

Omen (Iblis Hamlasi)

Bu yerda donolik bor. Kimning idroki bo'lsa, yirtqichning raqamini biladi; Zero bu insonlarning ham raqamidir. Uning raqami olti yuz oltmish olti. (Kashfiyotlar Kitobi)

Muqaddima

Hammasi soniyaning mingdan bir ulushicha vaqt ichida yuz berdi. Galaktikalardagi asrlarga tatiguvchi harakat bir lahzada sodir bo'ldi. Keyp Xetti rasadxonasidagi yosh astronom hayratdan qotib qolgandi. U ancha kech qolgandi va fotokamera sodir bo'lgan hodisani bilinar-bilinmas tarzda muhrladi: uchta yulduz burjining bir-biriga yaqinlashishi oqibatida yana bir yorqin yulduz paydo bo'lgandi. Ja'diy, Saraton va Asad burjlaridan ajralib chiqqan mayda zarralar shunday aniqlik bilan bir-biriga kirishib ketdiki, natijada yangi bir samoviy jism paydo bo'ldi. Jism borgan sari yorqin nur socha boshladi va burjlar titrab ketdi, balki astronomning qo'llari hayajondan titragani uchun shunday tuyulgandi.

U bu hodisaga guvoh bo'lgan yagona inson ekanligidan qo'rqardi. Ammo yer qa'ridan shovqin eshitildi. Bu odamlarning shovqini bo'lsada, jazavaga tushayotgan mutaassiblarniki emasdi. G'orlarda, yerto'lalarda ko'z yoradigan ayollar yig'ilishgan, ular roppa-rosa yigirma ming nafar edilar. Ular bir-birlarining qo'llarini ushladilar. Ularning ovozlari tobora qattiqroq eshitila boshladi va osmonga ko'tarilib so'ng yerning qoq yuragiga urildi.

Oltinchi oy, oltinchi kun, oltinchi soat edi. Eski Ahd kitobida ayni mana shu daqiqalar aytilgandi. Aynan mana shu lahza Yerning taqdirini o'zgartirishi kerak edi. Yer yuzidagi barcha urushlar ulkan bir voqea oldidan insoniyat uchun shunchaki tayyorgarlik sinovi edi xolos. Kashfiyotlar kitobida bu allaqachon aytib o'tilgandi!

Olis osmon qa'rida yangi yulduz yanada tovlana boshladi va odamlarning qo'shig'i avjiga chiqdi.

Qadimiy Megiddo shahrida yashovchi qariya Bugengagen buni his etdi va yig'lab yubordi. Endi uning barcha yozganlari keraksiz matohga aylanib qolgandi. Yuqorida, Isroilda esa bir guruh talaba-arxeologlar bir daqiqaga ishlarini to'xtatdilar. Ular belkuraklarini tashlab, sukut saqlashdi: talabalarning oyoqlari ostidagi yer silkina boshladi.

Vashington-Rim yo'nalishi bo'yicha uchayotgan samolyotda Jeremi Torn o'tirardi. U ham qandaydir g'alati tuyg'uni his etdi va darhol xavfsizlik kamarini taqib, o'z fikrlariga cho'mdi.

Agar u bu tuyg'uning asl sababini bilganida ham endi hech narsani o'zgartira olmasdi. Chunki bu vaqtda Jeneral gospitalining yerto'lasida uning endigina dunyoga kelgan farzandining boshi tosh bilan majaqlab tashlangandi.

1

Samoda parvoz qilayotgan samolyotlarda har soniyada minglab kishilar uchadilar. "Skaylayner" jurnalida berilgan bu raqamlar Tornni qiziqtirib qo'ydi va u odamlarni ikki guruhga: osmon va yerdagilarga bo'ldi. Torn odatda bunday bema'ni narsalar bilan shug'ullanmasdi, ammo samolyotdan tushganda uni qanday yangilik bilan qarshi olishlarini o'ylamaslik uchun yana xayolga berildi. Statistika ko'ra, agar yer aholisi birdaniga yo'q bo'lib kesa, havoda parvoz qilayotgan bir necha yuz ming kishigina omon qolar ekan - ular hatto yerda nima sodir bo'lganini ham bilishmaydi.

Samolyot Rim uzra parvoz qilardi. Torn yana o'yga cho'mdi: nechta erkak va ayol tirik qolarkin? Agar ular yerga eson-omon qo'nib olishsa, sog'lom jamiyatni tiklay olishadimi? Tirik qolganlarning aksariyati erkaklar bo'lishi aniq, chunki yuqori lavozimlarda ko'proq erkaklar o'tirishadi, demak ularning foydasi bo'lmaydi, chunki barcha ishchilar halok bo'lgan bo'lishadi. Rahbarlar qoladilar, lekin ularning qo'l ostida hech kim bo'lmaydi. Demak, bir necha samolyotda doimo ishchilarni olib yurilsa, foydadan xoli bo'lmas ekan. Samolyot asta pastlay boshladi. Torn sigaretini o'chirib, pastga qaradi. U keyingi paytda samolyotda tez-tez uchar va bunga ko'nikib qolgandi. Lekin bugun u judayam hayajonlanardi. O'n ikki soat ilgari u Vashingtonda telegramma olgan va agar bu vaqt ichida biror narsa yuz bergan bo'lsa, endi kech edi. Katerina nihoyat farzand ko'rgandi.

U ilgari ikki marta homilador bo'lgan, ammo ikkisida ham homilasi tushib ketgandi. Bu safar u homiladorlikning sakkizinchi oyida ko'z yorgandi. Torn agar biror narsa yuz bergan bo'lsa, Katerinadan bir umrga ayrilishini bilardi.

Ular bolaliklaridanoq bir-birlarini yaxshi bilishar va Torn uning qalbida qandaydir tashvish borligini sezardi. Uning ko'zlari doimo xaloskoridan najot izlayotganday boqar va Torn o'zini uning xaloskoriday his etardi. Yaqindan beri Torn yuqori lavozimga ko'tarilgan, shuning uchun u Katerinaga uncha e'tibor bermay qo'ygandi.

Xotining dastlabki ruhiy besaranjomligi deyarli sezilsiz o'tdi. Katerina hech bir sababsiz qaychini olib sochlarini qirqib tashlaganda, unga e'tibor berish o'rniga Tornning jahli chiqqandi. Katerina sochlari o'sguncha yasama soch taqib yurdi. Bir kuni esa yuvinish xonasiga kirib, ustara bilan barmoqlarining uchini tilib tashladi. Shundan so'ng ruhshunosga murojaat qilishdi. U esa hech narsani aniqlab berolmadi. Katerina bir oycha ruhshunosga qatnadi va farzandli bo'lish istagini aytdi.

U birpasda homilador bo'ldi va dastlabki uch oy quvonch ichida o'tdi. Katerina baxtli edi. Ular Yaqin Sharq bo'ylab sayohatga ham chiqishdi. Ammo samolyotda uning homiladorligi barham topdi.

Ikki yildan so'ng u yana homilador bo'ldi. Besh yarim oy davomida ularning uyida yana umid hukmronlik qildi. Katerina supermarketda yurganida uni to'lg'oq tutdi va shu yerda ko'z yoridi. Endi Katerina uchinchi marta homilador bo'lgan va Torn bu ularning so'nggi ilinji ekanligini bilardi. Agar bu safar ham biror narsa yuz bersa, xotini aqldan ozishi aniq. Samolyot g'ildiraklari yerga tegdi. U boshqalar samolyotni tark etgunlaricha kutib turdi. Uni pastda mashina kutib turardi. U iqtisodiyot masalalari bo'yicha prezidentning maslahatchisi va o'z shtab-kvartirasini yaqindagina Syurix shahridan Rimga ko'chirgan iqtisodiyot masalalari bo'yicha Xalqaro Konferensiya raisi edi. To'rt haftalik dastur olti oyga cho'zilgan, bu davr ichida uni ancha yuqori darajadagi mansabdorlar tanib olishgandi. Bir necha yildan so'ng u AQSh prezidentining umidi va tayanchiga aylanishi haqida gap-so'zlar yurardi.

Qirq ikki yoshli Torn mansab pillapoyalaridan ko'tarilib borardi. Xalqaro Konferensiya raisi bo'lib saylanishi uning mavqeini ko'tarib yubordi va dastlab elchilik, so'ngra mahkama vaziri, balki prezidentlikka ham yo'l ochgandi. Tornlar oilasiga qarashli zavodlar urush yillarida gullab-yashnagan, Jeremi eng nufuzli o'quv yurtlarida ta'lim olgandi. Otasi vafot etgach, Jeremi barcha zavodlarni yopdi va buzg'unchilikka qarshi ekanligini e'lon qildi. Ammo Tornning boyligi ko'payishda davom etardi. U qurilish ishlarini olib bordi, muhtojlar va ishbiarmonlarga qarz berib turdi. Hisob-kitoblarga qaraganda, uning boyligi bir necha yuz million dollarga teng edi. Buni Tornning o'zi ham bilmas, chunki hech hisoblab ko'rmagandi!

Taksi Jeneral gospitali oldida to'xtadi. Spilletto ota uchinchi qavatda joylashgan xonasi derazasidan mo'ralab, kelgan kishi Jeremi Torn ekanligini tushundi. Uning tashqi qiyofasi gazetada bosilgan suratlaridan tanish edi. Tanlashda adashmabmiz, deb o'yladi Spilletto ota. Ruhoniy kiyimi etaklarini yig'ishtirib, o'rnidan turdi. Uning ulkan gavdasi oldida stol kichrayib ketgandek ko'rindi. Yo'lakda Tornning qadam tovushlari eshitila boshladi.

- Janob Torn?

Zinaning birinchi pog'onasiga qadam qo'ygan Torn yuqoriga qaradi.

- Ha, menman.

- Mening ismim Spilletto ota. Men sizga!

- Ha. Telegrammangizni oldim.

Ruhoniy zinapoya tutqichidan engashdi. Uning harakatlaridan nimadir yuz berganligi ko'rinib turardi.

- Bola! tug'ildimi? - so'radi Torn.

- Ha.

- Xotanim qalay?

- Dam olyapti.

Ruhoniy pastga tushdi va uning ko'zlari Tornga qadaldi.

- Biror narsa yuz berdimi? - so'radi Torn.

- Bola o'ldi.

Dahshatli sukunat cho'kdi. Torn og'ir zarbaga uchragandi.

- U bir necha soniya nafas oldi, - pichirladi ruhoniy, - keyin vafot etdi.

Ruhoniy Tornning hech narsaga e'tibor bermay oldidagi kursiga o'tirishini va boshini egib yig'lashini kuzatib turdi. Yig'i ovozi yo'lakda aks-sado berdi. Ruhoniy yana gap boshladi:

- Xotiningiz tirik qoldi, ammo endi ona bo'lolmaydi.

- Hammasi tamom, - pichirladi Torn.

- Sizlar bola asrab olishingiz mumkin.

- U o'z farzandi bo'lishini istardi!

Bir lahzaga jimlik cho'kdi va ruhoniy oldinga qadam tashladi. U terlab ketgandi.

- Siz uni juda sevasiz, - dedi u.

Torn bosh iring'adi. U javob beradigan holatda emasdi.

- Unda siz Xudoning irodasiga bo'ysunishingiz kerak.

Qorong'i yo'lakda rohiba paydo bo'ldi va ruhoniyni ko'zi bilan imlab chaqirdi. Ular italyan tilida gaplashishdi va ruhoniy uning oldiga qaytib keldi.

Uning nigohi boshqacha boqardi.

- Xudoning karami keng, janob Torn, - ruhoniy uni yo'lga boshladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlar palatasi uch qavat yuqorida edi. Ular xira chiroq nuri yoritib turgan yo'lak bo'ylab ketishdi. Kasalxonada hidi Tornning qayg'usini yanada kuchaytirdi. Ular oynavand to'siq oldida to'xtashdi va ruhoniy Tornning to'siq ortiga qarashini kuzatib turdi. U yerda chaqaloq yotardi. Chaqaloqning sochlari qop-qora, Tornga tikilib turgan ko'zlari moviy edi.

- Uning hech kimi yo'q, - dedi ruhoniy. - Uning onasi vafot etdi. Farzandingiz bilan bir vaqtda.

Torn keskin unga o'girildi.

- Xotiningizga farzand kerak, - davom etdi ruhoniy, - bu go'dakka esa ona.

Torn asta bosh chayqadi.

- Biz o'z farzandimiz bo'lishini xohlardik, - dedi u.

- Go'dak judayam o'xshab ketadi!

Torn yana unga qaradi va uning so'ziga qarshilik bildirolmadi. Chaqaloqning sochlari Katerinaniki bilan bir xil edi, yuzi esa Tornning yuziga o'xshardi.

- Xonim bu haqda hech qachon bilmaydi, - dedi ruhoniy.

Torn ko'zlarini yumdi, uning qo'llari qaltirardi.

- Bola sog'lommi?

- Mutlaqo sog'lom.

- Qarindoshlari bormi?

- Hech kimi yo'q.

Ular jim qolishdi.

- Bu yerda men rahbarman, - dedi ruhoniy. - Hech qanday yozuv qoldirilmaydi. Bu haqda hech kim bilmaydi.

Torn shubha ichida ko'zlarini olib qochdi.

- O'z bolamni ko'rsam maylimi? - so'radi u.

- Bu bilan nima o'zgarardi? - javob qildi ruhoniy. - Tiriklarga mehr ko'rsating.

Oynavand to'siq ortidagi chaqaloq xuddi Tornni quchoqlamoqchidek unga qo'llarini cho'zardi.

- Xotiningiz haqqi, janob. Xudo bu yolg'onni kechiradi. Mana bu go'dakka rahm qiling!

U jim bo'lib qoldi, chunki ortiqcha gapga o'rin qolmagandi.

- Ushbu tunda Xudo sizga o'g'il ato qildi, janob Torn.

Osmonda yangi paydo bo'lgan yulduz titray boshladi. Kasalxonada karavotida esa Katerina o'ziga keldi. U bir necha daqiqa ilgari o'ziga ukol qilinganini bilmasdi. Uning tug'ishi o'n soatga cho'zilgan, keyin esa hushidan ketib, chaqalog'ini ko'rmagan edi. U o'ziga kelgach, hayajonga tushdi va tashqarida qadam tovushlarini eshitib, o'zini tutib oldi. Eshik ochildi. Katerina erini ko'rdi. Jeremining qo'lida chaqaloq bor edi.

- Bizning bolamiz, - dedi Torn. Uning ovozi quvonchdan titrab chiqardi. - Bizning o'g'limiz bor.

Katerina qo'llarini cho'zib chaqaloqni oldi va quvonganidan ho'ngrab yubordi. Tornning ko'zlaridan yosh oqar va Xudodan minnatdor edi.

2

Tornlar katoliklarga mansub bo'lishsada, hech qachon ibodat qilishmasdi. Katerina ba'zida duo o'qib turar, cherkovga esa faqatgina diniy bayramlarda borardi. Torn Katerinadan farqli o'laroq, o'g'li Demenni cho'qintirishmaganiga befarq qarardi. To'g'ri, ular bunga urinib ko'rishdi. Ular chaqaloqni cherkovga olib borishdi, lekin cherkovga kirganlarida chaqaloqning dahshatga tushib chinqirganini ko'rishgach, ortga qaytishni ma'qul topishdi. Muqaddas suvni olib ularning ortidan ko'chaga chiqqan ruhoniy, agar

ular farzandini cho'qintirishmasa, u Xudoning dargohiga hech qachon tusha olmasligini aytdi. Ammo Torn go'dakning qattiq qo'rqanini ko'rib, cho'qintirishdan voz kechdi. Katerinani tinchlantirish uchun Demenni keyinroq cherkovga olib borishini aytdi. Lekin bu narsa bo'lmadi. Tez orada ular ishga shunchalik berilib ketishdiki, cho'qintirish butunlay xayoldan ko'tarildi. Iqtisodiyot masalalari bo'yicha konferensiya yakunlanib, Tornlar yana Vashingtonga qaytishdi. Torn prezident maslahatchisi lavozimida ishga kirishdi va ko'zga ko'ringan siyosiy shaxsga aylandi. Ularning Virjiniya shtatidagi qarorgohida yig'ilishlar o'ta boshladi. Gazetalar va jurnallar orqali Tornlar hammaga tanila boshlashdi. Ular boy edilar va yuqoriga tez ko'tarilishdi. Ularning davrasida prezidentni ham tez-tez ko'rish mumkin edi. Shuning uchun Tornning Buyuk Britaniyaga elchi sifatida tayinlanishi ham kutilmagan hol bo'lmadi.

Londonga kelishgach, Tornlar o'n yettinchi asrga mansub Pirford qo'rg'oniga joylashishdi. Ularning hayoti, ayniqsa Katerina uchun shirin tushga o'xshardi, u judayam baxtli edi.

Pirford qo'rg'onining tarixi qadim zamonlarga borib taqalardi. Bu yerda tepaliklar bor edi. Atrof esa bir paytlar qirol Genrix V to'ng'iz ovlagan o'rmon bilan o'ralgandi.

Uydagi ishlarni bajarish uchun xizmatchi Gortonlardan tashqari yana bir necha xizmatchilar yollandi. Katerina o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lgan paytda Demenga Chessa ismli enaga qiz qarardi. U ko'plab o'yinlarni bilar, Demenni xuddi o'z o'g'lidek yaxshi ko'rardi. Ular soatlab birga bo'lishar, Chessa unga ko'lmakdan itbaliq va ninachilar tutib berardi.

Bolakay juda chiroyli edi. U uch yoshga to'lgandi. Bundan tashqari, Demen o'ta aqlli bo'lib, juda kuzatuvchan ham edi. U tikilganda ancha-muncha kattalar ham uning nigohiga dosh berolmasdi. Bolakay olma daraxti tagida odamlarni soatlab kuzatib o'tirishdan charchamasdi. Oila haydovchisi Gorton Demenni mashinasida tez-tez olib yurardi. Unga bolakayning indamay o'tirishi yoqardi.

- U xuddi o'zga sayyoralikka o'xshaydi, - dedi bir kuni Gorton o'z xotiniga, - uni odamlarni o'rganish uchun yerga yuborishgan shekilli.

- Onasi eshitib qolsa xafa bo'ladi, - dedi xotini.

- Men hech qanday yomon narsani nazarda tutganim yo'q. Faqat u juda g'alati bola.

Yana bir g'alatilik shunda ediki, Demen kamdan-kam ovoz chiqarardi. U quvonganini tabassum bilan bildirar, xafa bo'lganda esa ovoz chiqarmay yig'lardi. Bir kuni Katerina bu haqda shifokorga aytganida, shifokor uni tinchlantirgandi.

Albert Eynshteyn to'rt yoshigacha gapirmagan, Demen esa endigina uch yarimga to'lgandi. Nima bo'lmasin, u Katerina bilan Jeremining hayotlari ifodasi edi.

3

Gaber Jennings ismli kishi Dalv burji ostida tug'ilgandi. U bema'ni soch turmagi va qaysarligi bilan ajralib turardi.

Jennings o'ta mutaassib fotomuxbir edi. U xuddi mushuk sichqonni poylagani kabi suratga olishning qulay vaqtini kutib o'tirishdan zerikmasdi. Uni kamyob suratlar muallifi sifatida bilishardi. U birorta ham hamkasbi tushira olmaydigan suratlarni topib kelardi. U Chelsida bir xonali uyda yashardi.

Keyingi paytda uning e'tiborini amerikalik elchi o'ziga tortgandi. Uning qanday kamchiliklari bor? U birortasi bilan yuradimi? Balki elchi shahvoniy jurnallar sotib olar? Jenningsni mana shu savollar qiziqtirardi. Bu savollarga hozircha javob topmagan bo'lsada, u umidini uzmagan va kuzatishda davom etardi.

Bugun u Pirfordga borishi kerak edi. Balki bu yerda u kerakli suratni ololmas, chunki usiz ham suratkashlar ko'p bo'ladi, ammo u birorta xizmatchini qarmoqqa ilintirishi mumkin.

Jennings saharlab o'rnidan turdi, fotoapparatlarini tekshirib ko'rdi. U karavoti ostidan kiyimlarini oldi va ozg'in badaniga ildi.

Uydan chiqib ketishdan oldin u taklifnomani izladi. Pirfordda Tornning o'g'li to'rt yoshga to'lishi munosabati bilan ziyofat o'tkazilishi kerak edi. Pirford tomon yetim-esir va nogiron bolalar to'ldirilgan avtobuslar kelayotgandi. Jennings ko'ngil yozish uchun nasha chekib oldi.

Tornlarning qo'rg'onidan bir milya narida mashinalarni kuzatayotgan va taklifnomalarni tekshirayotgan politsiyachilar turishardi. Jennings ular taklifnomani tekshirgunlaricha, atrofni tomosha qilib turdi.

Nihoyat u ulkan darvozalar oldida paydo bo'ldi va nashaning kayfini yozishga harakat qildi. Butun qo'rg'on bayramona bezatilgandi. Bolalar o'ynab yurishar, xizmatchilar esa mehmonlarga turli shirinliklar va mevalar tarqatishardi. Ularning ovozi chalinayotgan organ ovozi bosib ketardi. Bu yerda hatto folbin ayol ham o'z chodirini tikkan va Londondagi ancha mashhur kishilar chodir oldida navbat kutishardi.

Kichkinagina shotland poni otlari qo'rg'on bo'ylab chopib yurishardi. Ajoyib ziyofatdan og'zi qulog'ida bo'lgan suratkashlar to'xtovsiz suratga tushirishardi, ammo Jennings uchun bu yerda suratga oladigan narsa yo'q edi.

- Ha, hamkasb? Fototasmang tugadimi?

Bu "Gerald Nyus"ning suratchisi Gobi edi. U zudlik bilan yangi tasmani fotoapparatga soldi.

- Mushakbozlikni kutyapman, - dedi Jennings.

- Bunaqa joyda har doim ham bo'lavermaysan.

- Nima bo'пти? Kerak bo'lsa, sendan surat sotib olaman.

- Birona g'ayritabii narsani kutyapsanmi?

- Menga boshqa narsa kerakmas.

- Bo'пти, omad tilayman. Omading kelmasa kerak, Tornlar bu yerdagi eng yaxshi oila.

Kutilmagan surat. Jenningsga mana shu kerak edi. Hech kim ko'ra olmagan narsani ko'rish. U Tornlarni kuzata boshladi. Agar ularning IChIGA kirib olsa edi!

Hammaning nigohi uy ichidan olib chiqilayotgan ulkan tortga qaratildi. Enaga masxaraboz kiyimini kiyib olgan, yuziga oppoq upa chaplangan, lablariga esa tabassumni ifodalovchi labbo'yoq surtilgandi. U Demenni quchoqlab, uning yuziga yuzini bosdi.

Jennings bir burchakda turgan Katerina Tornni ko'zlari bilan izlab topdi. Uning yuz ifodasidan suratkash Katerina hozirgi voqeani yoqtirmaganini tushundi. Bayram torti atrofida yig'ilganlar qarsak chalishdi. Katerina oldinga yurdi.

- Uni folbinga olib kirmaysizmi? - qichqirdi muxbirlardan biri.

- Kelinglar, olib kiramiz, - dedi hamma bir ovozdin enagani folbinning chodiri tomon sudrashib.

- Uni men olib kiraman, - dedi Katerina Chessaning yoniga kelib.

- O'zim olib kiraveraman, xonim, - dedi enaga.

- Yo'q, o'zimga, - sovuq jilmaydi Katerina.

Ularning ko'zlari uchrashdi va enaga indamay bolani onasiga berdi. Bunga hech kim e'tibor bermadi va faqat Jenningsga buni ko'rdi. Enaga yolg'iz o'zi qoldi, uning ortida minora ko'rinib turardi. Chessa ortiga qayrilib uyga kirib ketguncha, Jennings uni ikki marta suratga olishga ulgurdi.

Folbinning chodiri oldida Katerina muxbirlardan tashqarida qolishlarini so'radi va ichkari kirdi.

- Salom, bolakay.

Folbin ayol kichkinagina yashil stol oldida o'tirar va iloji boricha sirli ovozdagi gapirishga harakat qilardi. Uning yuziga ham yashil bo'yoq surtilgandi. Demen unga qaradi va onasiga mahkam yopishdi.

- Qo'rqma Demen, - kuldi Katerina. - U yaxshi pari. To'g'rimi?

- Albatta, - dedi folbin, - qo'rqma.

- U seni kelajakda nima kutayotganini aytib beradi, - dedi Katerina.

- Kel yonimga, - chaqirdi folbin, - qo'lingni ber.

Demen onasiga yanada mahkamroq yopishdi. Folbin uning yoniga keldi.

- Qo'rqma, men ham odamman.

Demen tinchlandi va qo'lini uzatdi.

- O, qanday chiroyli qo'lcha! Kelajaging juda yaxshi bo'ladi.

Birdan u bolaning kaftiga qarab jim bo'lib qoldi.

- Bu qo'lingni uzat-chi.

Demen ikkinchi qo'lini ham uzatdi va folbin yanada taajjubga tushdi.

- Bunaqasini hech qachon ko'rmaganman, - dedi ayol. - Uch yildan beri folbinlik qilsamda, bunaqasini birinchi marta ko'rib turibman.

- Nimani ko'rdingiz?

- O'zingiz qarang. Uning kaftida hech qanday chiziq yo'q!

- Nima?

Katerina o'g'lining kaftiga qaradi.

- Uning qo'li kuymaganmi?

- Yo'q.

- O'zingizning qo'lingizga qarang. Mana bu chiziqlarni ko'ryapsizmi? Mana shu chiziqlar har bir kishining o'zigagina xos. Bu chiziqlar sizning taqdiringiz.

Oraga jimlik cho'kdi, bolakay esa nima gunohi borligini bilmoqchi bo'lganday qo'llariga qarardi.

- Qarang, barmoqlarining uchi qanday silliq, - dedi ayol. - Uning barmoq izlari ham yo'q!

Katerina haqiqatan ham shunday ekanligini ko'rdi.

- Juda yaxshi, - kuldi ayol. - Agar u birorta bankni o'marsa, uni hech kim topolmaydi.

- Uning kelajagini aytib berolmaysizmi? Bu yerga shuning uchun kirgandik.

Katerinaning ovozi qaltirar, uni qandaydir xavotir chulg'ab olgandi.

- Albatta.

Ayol bolaning qo'lidan ushlab bilan tashqarida qattiq qichqiriq eshitildi.

- Demen! Demen! Buyoqqa chiq! Senga sovg'am bor!

Folbin jim bo'lib qoldi. Chessaning ovozi g'alati edi.

- Demen, bu yoqqa chiq. Qara, sen uchun nima qilaman!

Katerina Demenni ko'tarib chodirdan chiqdi va uning tomiga qaradi. Yuqorida qo'lida arqon ushlagan Chessa turardi. U arqonni ko'tarib, uning bir uchi bo'yniga boyolanganini ko'rsatdi. Pastda to'planganlar jimgina qarab turishardi. Masxaraboz kiyimidagi enaga esa tom chetiga keldi va xuddi o'zini hovuzga tashlayotganday qo'llarini birlashtirdi.

- Qara, Demen! - qichqirdi Chessa. - Bu sen uchun! - Va tomdan sakradi.

Uning uchib tushayotgan tanasini arqon to'xtatib qoldi, keyin esa jonsiz tana chayqala boshladi.

Pastda turganlar u yoqdan-bu yoqqa chayqalayotgan tanaga xuddi sehrlangandek tikilib qolishgandi. Shu payt dahshatli chinqiriq eshitildi. Katerina dod solayotgandi. To'rt kishi unga yordamga shoshilishdi va uning uyga kirib ketishiga yordam berishdi. Demen o'z xonasida yolg'iz qoldi. U hozirgina bo'shab qolgan maydonchaga, tomga chiqib Chessaning bo'ynidagi arqonni yechayotgan politsiyachiga qaradi. Jasad pastga gursillab tushib, boshi majaq bo'ldi. Chessaning ko'zlari osmonga tikilgan, yuzida esa o'sha masxaraboz tabassumi turardi.

Chessani ko'mishdan bir kun ilgari havo bulutli edi. Pirford osmoni qora tusga kirgan va momaqaldiraq gumburlardi. Katerina butun kunni ko'zlarini uzoqlarga ma'nosiz tikkancha, mehmonxonada o'tkazdi. Tergovchining yozma dalolatnomasiga ko'ra, Chessaning qonidan allergiyaga qarshi ichiladigan dori topilgan, bu esa ishni yanada chigallashtirgandi. Atrofda hamma enaganing o'z joniga qasd qilgani haqida gapirardi. Torn esa muxbirlardan yashirib, uydan chiqmadi. U xotining ruhiy iztirobga tushishidan qo'rqayotgandi.

- Bunchalik g'am chekma, azizam, - dedi u mehmonxonaga kirib. - Axir Chessa oilamiz a'zosi emasdi-ku.

- Edi, - dedi jimgina Katerina. - U doimo biz bilan yashashni istashini aytgandi.

Torn bosh chayqadi.

- U ahdidan voz kechgan ekan. - Torn xotining ko'ziga qarashdan cho'chiyotgandi. - Kechir, - qo'shib qo'ydi u, - lekin menga bunday o'tirishing yoqmayapti.

- Hammasiga men aybdorman, Jeremi.

- Sen?

- Tug'ilgan kunda bir voqea bo'lgandi!

Torn uning yoniga o'tirdi.

- Unga hamma e'tibor qaratdi, - davom etdi Katerina, - va men rashk qila boshladim. Men undan Demenni tortib oldim, chunki o'zim hammaning e'tiborini tortishni istagandim.

- Menimcha, sen o'zingga nisbatan juda talabchanlik qilyapsan. Qizning ruhiyati barqaror emasdi.

- Meniki ham, - dedi Katerina. - Agar e'tiborda bo'lish men uchun shunchalik muhim bo'lsa.

U jim bo'lib qoldi. Hamma gap aytib bo'lingandi. Torn uni quchoqladi va u uxlab qolguncha kutib turdi. Bir soatcha shunday o'tirdi, keyin xotinini asta ko'tarib, yotoqxonaga olib kirdi. Ertasiga ertalab Katerina Demenni olib Chessani ko'mish marosimiga bordi. To'planganlar bor-yo'g'i qizning yaqinlari va Katerina bilan Demen edi. Ko'mishdan oldin ruhoniy duo o'qidi. Torn jamoatchilik fikridan qo'rqib, unda ishtirok etmadi va Katerinadan ham u yerga bormaslikni so'radi. Ammo u enagani yaxshi ko'rardi.

Qabrston panjarasi ortida Torn elchixonadan jo'natgan ikki askar ichkariga kiritmayotgan muxbirlar to'planishgandi. Ular orasida Jennings ham bor edi. Suv o'tmaydigan plashga o'rangan Jennings daraxt ortida turar va marosimni fotoapparati yordamida kuzatardi. Bu apparat juda uzoqdagi narsani ham bemalol suratga olardi. Muxbir ob'ektivda hamma bir-bir qarab chiqdi. Katerinaning yonida bolakay turardi.

Jenningsni aynan bola qiziqtirib qolgandi va kerakli paytni kuta boshladi. Kutilgan daqiqa yetib keldi. Demenning yuz ifodasi va ko'z qarashi xuddi nimadandir cho'chib ketgandek o'zgardi, ammo birpasda tinchlandi. Demenning ko'zlari qabrston burchagiga qadalgandi. Jennings fotoapparatini o'sha tomonga qaratdi, ammo qabr toshlaridan boshqa narsani ko'rmadi. Keyin esa nimadir qimirladi. Qandaydir qora narsa ko'zga tashlandi. Jennings apparat sezgiriligini kuchaytirdi. Bu hayvon edi. Juda katta va qop-qora it. Uning pastki jag'i oldinga turtib chiqqan, tishlari ko'rinib turardi. Itni hech kim sezmad. It jim turar, Jennings esa oq-qora tasvirli tasmani olgani uchun o'zini la'natlardi: itning sap-sariq ko'zlari dahshatli va sirli boqardi. Jennings itni suratga oldi, keyin esa ob'ektivni burib, bolani suratga oldi.

Bunday surat uchun butun kunni sarflasa ham arzirdi. Jennings o'z ishidan qoniqish hosil qildi.

It va bola uzoqdan kichkina bo'lib ko'rinishardi, ammo ularning so'zsiz suhbat g'ayritabiiy edi.

Ertasiga ertalab ikkita voqea yuz berdi: kuchli yomg'ir yog'di va irland millatiga mansub Beylok xonim kelib, o'zini yangi enaga deb tanishtirdi. Soqchi uni to'xtatib qolishga urindi, ammo Beylok xonim uni turtib o'tib ketdi.

- Hozir sizlarga qiyinligini bilaman, - dedi u paltosini yecharikan, er-xotin Tornlarga, - shuning uchun qayg'ungiz haqida eslatib o'tirmayman. Ammo yosh qizni enagalikka yollagan odam g'alvani pulga sotib oladi.

Torn va Katerina og'izlarini ochganicha unga qarab turishardi.

- Yaxshi enagani qaydan bilish mumkinligini aytaymi? - Kuldi u. - Ko'kragingiz katta-kichikligidan. Bu kichkina qizlar har haftada almashishadi. Menga o'xshaganlar esa uzoq vaqt qolishadi. Gayd-parkka borsangiz, gapim rostligini ko'rasiz.

U birpas jim qoldi. Keyin chamadonini ko'tardi.

- Xo'p, yaxshi. Bola qani?

- Yuring, ko'rsataman, - dedi Katerina zinadan ko'tarilar ekan.

- Bizni yolg'iz qoldirasiz, xo'pmi? O'zimiz tanishib olamiz, - taklif qildi Beylok xonim.

- Demen notanish odamlardan uyaladi.

- Faqat mendan emas, ishonavering.

- Rostini aytyapman!

- Qo'ysangiz-chi. Urinib ko'raman.

U chiqib ketgach, Tornlar bir-biriga qarashdi.

- U menga yoqdi, - dedi Jeremi.

- Mengayam.

- Uni qayerdan topding?

- Qayerdan topdim? - so'radi Katerina.

- Ha.

- Uni men topqan yo'q. Uni sen topding deb o'ylabman.

Torn yangi enagani chaqirdi:

- Beylok xonim!

U ikkinchi qavat maydonchasiga chiqib Tornlarga qaradi:

- Ha?

- Kechirasiz, bir narsani tushunmadik!

- Nimani?

- Bu yerga qanday kelib qoldingiz?

- Taksida.

- Yo'q, sizni bu yerga kim jo'natdi?

- Boshqarma.

- Boshqarma?

- Ular gazetadan enagasiz qolganingizni bilishib, boshqasini jo'natishdi. Ya'ni, meni.

Torn hozir Londonda ish topish qanchalik qiyinligini bilardi, shuning uchun u Beylokning so'zlariga ishonadi.

- Ular juda ishbilarmon-da, - dedi Torn.

- Balki ularga qo'ng'iroq qilib so'rab ko'rsammikin? - taklif qildi Katerina.

- Albatta, - sovuq javob qildi ayol. - Men ko'chada kutib turaymi?

- Yo'q-yo'q! - vaziyatni yumshatishga urindi Torn.

- Men josusga o'xshaymanmi? - do'q qildi Beylok.

- Yo'q, - kuldi Torn.

- Balki, sumkamda magnitofon bordir. Meni tintuv qilishga buyruq berarsiz?

Ular kulishdi.

- Bo'пти, boravering, - dedi Torn. - Keyinroq surishtirib ko'rarmiz.

Katerina boshqarmaga qo'ng'iroq qildi. U yerdagilar Beylok xonim katta tajribaga ega ekanligini aytishdi. Faqatgina bir anglashilmovchilik bo'lib, qaydnomaga ko'ra Beylok Rimda ishlar ekan. Keyinroq uning hozirgi ish joyini qayd qilib qo'yishlarini aytishdi.

Katerina go'shakni ildi va eriga qaradi. Torn yelkasini qisdi, ammo vaziyat oydinlashganidan xotirjam edi.

Yuqoridagi xonada Beylok xonim uxlab yotgan bolakayga ancha vaqt qarab turdi. Bolakay uyg'onib ketdi va ularning ko'zlari to'qnashdi. U o'rnidan turib karavotga o'tirdi.

- Qo'rqma, oppog'im, - shivirladi yangi enaga. - Men seni himoya qilish uchun keldim. Osmonda kutilmaganda chaqmoq chaqdi. Yomg'ir yanada kuchliroq yog'a boshladi.

4

Iyul oyiga kelib Angliyaning qishloq joylaridagi tabiat gullab-yashnadi. Uzoq davom etgan yomg'ir mavsumi Temzaning barcha irmoqlarini shunday to'ldirdiki, natijada irmoqlardan qonib suv ichgan barcha o't-o'lanlar tirildi. Pirford yerlari ham bundan bebahra qolmagandi: hammayoq yam-yashil tus oldi, boyolar va o'rmon qalin o't-o'lanlar bilan qoplandi. Yovvoyi quyonlarning bog'dagi lolalarni yeb ketishidan qo'rqan Gorton ularga qopqon qo'ydi. Kechalari qopqonga tushgan quyonlarning ayanchli ovozlari eshitish mumkin edi. Ammo tez orada bu barham topdi, bunga nafaqat Katerina chek qo'ydi, balki Gortonning o'zi ham o'rmonga kirib quyonlarning jasadlarini terib yurishdan zerikdi. Bundan tashqari u butalar ortida o'zini kimningdir nigohi ta'qib qilayotganini sezardi. U bu haqda xotiniga aytganda, xotini bu Genrix Vning arvohi deb kuldi. Ammo Gorton hazillashmayotgan edi va yangi enaga bolakayni tez-tez o'rmonga olib borayotganidan tashvishga tushdi. Gorton shuningdek, xotini Demenning kiyimlarini yuvayotganida uning kiyimidan tez-tez hayvon yungini topib olishini ham bilardi. Lekin u bu yunglar va o'rmonga borish orasida qanday boyoliqlik borligini topa olmadi. U buni ham Pirfordda kundan-kunga ko'payib borayotgan jumboqlardan biriga yo'yib qo'yaqoldi.

Katerina bora-bora farzandiga e'tibor bermaydigan bo'lib qoldi, uning o'rmini yangi enaga egallagandi. Bolakay ham uni yaxshi ko'rib qolgandi. Faqat bir narsa Katerinaning ko'nglini xijil qilardi: Demen onasidan ko'ra enagaga ko'proq boyolanib qolgandi. Buni barcha xizmatchilar sezishgan, ular onaga achinishardi. Ular Beylok xonimning bu yerdan ketishini istardilar. Ammo buning o'rniga uning bu yerdagi mavqei va xo'jayinlarga ta'siri kundan-kunga oshib borardi.

Katerina ham shuni his qilardi, lekin hech narsani o'zgartirishga qurbi yetmasdi. U farzandini sevgan odamga rashk qilmaslikni istardi. U bir paytlar Demenning enagasi halok bo'lganligida o'zini aybdor his qilardi va bunday hol yana takrorlanmasligini xohlardi. Ikkinchi haftaning oxirida Beylok xonim Demenning xonasi ro'parasidagi xonaga ko'chib o'tishni so'raganida Katerina rozi bo'ldi. Katerinaning o'zi uncha boy bo'lmagan xonadonda katta bo'lgan, uning yagona do'sti va himoyachisi esa faqatgina onasi edi. Lekin bu yerdagi hayot boshqacha edi. U ertalab xayriya tadbirlarida qatnashar, kunduzi esa siyosat haqida suhbatlar bo'ladigan tushliklarda ishtirok etardi. Eri uning bu ishini ma'qullardi. U aynan mana shunday xotini bo'lishini orzu qilgandi. Tornning ishlari ko'payib ketgandi, u Londonga elchi bo'lib kelgandan buyon, neft importidagi asosiy shaxsga aylangandi. AQSH prezidenti uning neft korchalonlari bilan uchrashuvi samarali yakunlanishiga umid qilardi. Bir necha haftadan so'ng u Saudiya Arabistoniga uchishi kerak edi.

Tornning uyqusi kelmasdi. U balkonda o'tirgancha, oyni tomosha qilardi. U sokin o'rmonga qaradi. O'rmon xuddi uxlayotgandek edi.

Ammo o'rmon uxlamagandi va birdan Tornga xuddi kimdir qarab turganday tuyuldi. U durbin olib qaradi. Dastlab u zulmatdan boshqa narsani ko'rmadi. Keyin esa bir juft ko'zni ko'rdi! Bir-biriga yaqin joylashgan, sap-sariq ko'zlar unga qarab turardi. Torn titrab ketdi. Durbinni tushirib, ortiga tisarildi. U ko'rgan narsasidan ta'sirlanib xonada birpas turdi, keyin yalangoyoq pastga tushib, eshikni ochdi. Hammayoq jimjit, hattoki chigirtkalar ham xonish qilmayotgan edi. Torn oldinga bir qadam tashladi. So'ng to'xtab qoldi. Yonib turgan ko'zlar g'oyib bo'lgandi. U ortga burildi va qandaydir iliq va ho'l narsani bosib oldi. Tornning nafasi chiqmay qoldi. U pastga engashdi. Yerda endigina o'ldirilgan quyon yotardi. Uning boshi yo'q edi!

Ertasiga Torn erta turdi va Gortondan quyonlarga qopqon qo'ygan-qo'ymaganligini so'radi. Gorton unga rad javobini berdi va Tornni quyonning jasadini yotgan o'rmonga boshlab bordi. Jasadni pashsha talayotgandi. Gorton ularni kaltak bilan haydadi va jasadga engashdi.

- Nima deysiz? - so'radi Torn. - Bu yirtqichning ishimini?

- Tushunolmadim, janob. Bunga shubham bor.

U jasadni ko'rsatib, dedi:

- Odatda yirtqichlar qurbonining boshini yemaydilar. Bu quyon shunchaki ko'ngil yozish uchun o'ldirilgan.

Torn Gortonga bu haqda hech kimga og'iz ochmaslikni aytdi. Ular oldinga yurishdi, birdan Gorton to'xtab qoldi.

- Menga bu o'rmon hech ham yoqmayapti, janob. Beylok xonim o'yolingizni bu yerga olib kelishi ham yoqmayapti.

- Unga endi bu yerga kelmasligini ayting, - dedi Torn. - Uyimizda ham qiziqarli narsalar ko'p.

Beylok xonim kechqurun Tornning xonasiga kirdi va xizmatkor orqali buyruq berishlaridan noroziligini bildirdi.

- Aytganingizni qilaman, - dedi u, - lekin menga bevosita xo'jayinning o'zi buyruq berishi kerak deb hisoblayman.

- Buning nima farqi bor? - dedi Torn. Uni ayolning ko'zlaridagi qahr-g'azab hayron qoldirdi.

- Nima, bu uyda xo'jayin yo'qmi, janob Torn?

U burilib chiqib ketdi, Torn esa ayol nimani nazarda tutganini tushunmadi. Agar u xizmatchilarni nazarda tutgan bo'lsa, ularga Katerina buyruq berardi. Balki Beylok xonim uyda hamma narsa joyida emasligini aytmoqchi bo'lgandir. Balki Katerina oshirib yuborayotgandir?..

Chelsidagi uch qavatli uydagi xonadonda yashovchi muxbir Gaber Jennings uxlay olmasdi. U butun devorga yopishtirib tashlangan Tornlarning fotosuratlariga tikilib turardi. Ko'mish marosimidagi suratlar: qabr toshlari orasidagi it va bola yirik planda edi. Bu yerda tug'ilgan kunda olingan suratlar ham bor edi: Katerina enagaga qarab turibdi, masharaboz kiyimidagi enaga esa yolg'iz o'zi. Oxirgi surat uni qiziqtirib qo'ydi, chunki enaganing boshi ustida qandaydir dog' bor edi. Odatiy fotonuqson, lekin hozir u qandaydir baxsizlikdan darak beruvchi belgiga o'xshab ko'rinardi. Emulsiya zararlanganga o'xshab va suratdagi enaganing bo'ynida sirtmoq shaklidagi oq dog' bor edi. Boshqa vaziyatlarda u bu suratni tashlab yuborgan bo'lardi, ammo bunisini saqlab qo'yish lozim edi. Agar voqealar rivoji boshqacha yakunlansa, bu surat ramziy ma'noga ega bo'lardi. Eng oxirgi suratda Chessaning arqonda osilib turgani aks etgandi. Barcha suratlar go'yoki dahshatlar ko'rgazmasini eslatardi. Bu Jenningsga yoqdi. U Tornlarni o'rgana boshladi va bu oilaning hali hech kim bilmagan g'alati qirralarini topdi. U oila tarixini o'rganishga kirishdi. Ma'lum bo'lishicha, Katerina rus emigrantlari oilasida tug'ilgan, uning otasi o'z joniga qasd qilgan ekan. "Minneapolis Tayms" gazetasining yozishicha, u o'zini tomdan tashlab yuborgan. Katerina otasining o'limidan bir oy o'tgach dunyoga kelgan, onasi esa ikkinchi marta erga tegib, Nyu-Gempshirga ko'chib o'tgan. Katerina o'gay otasining familiyasini olgan, lekin intervyularda bu otasi haqida hech narsa demasdi. Muxbir kerakli yo'nalishga tushganini bildi.

Unga faqatgina elchining surati yetishmasdi va Jennings ertaga bu suratni olishga qaror qildi. Barcha Avliyolar cherkovida mashhur bir oilaning nikoh marosimi bo'lishi kerak edi va Tornlar oilasi ham bu marosimda ishtirok etardi.

! Nikoh marosimigacha Torn o'zining ishlarini qoldirdi va Katerina bilan shahar aylangani chiqdi. U ikkalasi yolg'iz qolishganda ba'zi narsalarni aniqlamoqchi edi. Keyingi bir necha oy ichida Katerina birinchi marta xursand edi. Ular Evondagi Stretford teatriga borishdi va "Qirol Lir" spektaklini tomosha qilishdi.

Katerina bu tomoshadan ta'sirlanib, yiyolab ham oldi. Tomoshabinlar chiqib ketishgach, u anchagacha yiyolab o'tirdi. Ular mashinaga o'tirishdi. Katerina erining qo'lini mahkam ushlab olgandi. U juda ta'sirchan bo'lib qolgandi. Daryo bo'yida to'xtaganlarida, u yana yiyolab yubordi. Qo'rqayotganini, Demenni yo'qotib qo'yishdan cho'chiyotganini aytdi.

- Undan ajralmaymiz, Ket, - tinchlantirdi uni Torn. - Hayot u darajada beshafqat emas.

U anchadan buyon xotinini Ket deb chaqirmay qo'ygandi. Ular dub daraxti tagidagi o'tloqqa o'tirishdi. Katerinaning ovozi juda past chiqardi.

- Men juda qo'rqapman, - dedi u.

- Hech narsadan qo'rqishning hojati yo'q. Nimadan qo'rqasan?

- Nimadan qo'rqaman?

U xotining gapni davom ettirishini kutib turdi.

- Men yaxshi narsalardan qo'rqaman, chunki ketib qoladi. Men yomon narsalardan qo'rqaman, chunki juda ojizman. Men sening yutuqlaringdan va omadsizliklaringdan qo'rqaman. Men sening Qo'shma Shtatlar prezidenti bo'lishingdan qo'rqaman, Jeremi! Bu menga yoqmayapti.

Ular jim bo'lib qolishdi.

- Uyga qaytgim kelyapti.

Torn o'tloqqa yonboshladi.

- U yerda biz bexavotir bo'lamiz. Tug'ilib-o'sgan joyimizda.

U ko'zlarini yumdi.

- Bu yer Nyu-Jersi, to'yorimi? - dedi Katerina. - Anavi tepalik ortida bizning fermamiz joylashgan.

- Bu juda katta tepalik, Ket.

- Bilaman. Biz bu tepalikdan hech qachon o'tolmaymiz.

Yengil shabada ularning oyoqlari ostidagi barglarni uchirdi.

- Balki Demenning qo'lidan kelar. U zo'r fermer bo'lar.

- Bilmadim. U xuddi sening o'zing.

Torn javob bermadi.

- Rost aytyapman. Uning menga hech qanday aloqasi yo'qqa o'xshaydi.

Torn o'rnidan turib uning g'amgin yuziga tikildi.

- Nega unday deyapsan?

Xotini yelkasini qisdi.

- U juda mustaqil. Unga hech kimning keragi yo'qdek.

- Senga shunday tuyuladi.

- U boshqa bolalar singari menga boyolanmagan. Sen onangni yaxshi ko'rarmiding?

- Ha.

- Xotiningni-chi?

Ularning ko'zlari uchrashdi. Katerina uning qo'lini o'pdi.

- Bilasanmi, Ket, - dedi Torn birpas jim turgach, - men seni birinchi marta uchratganimda seni dunyodagi eng go'zal ayol deb o'ylaganman.

Keti jilmaydi.

- Hozir ham shunday deb o'ylayman.

- Men seni sevaman, - dedi Katerina.

- Men ham seni sevaman, - javob berdi Jeremi.

Ular Pirfordga kech kirganda qaytishdi.

Ertalab to'qqizda Torn nikoh marosimiga borish uchun tayyor bo'lib kiyinib olgandi.

- Ket! - chaqirdi u.

- Hozir! - dedi Katerina yuvinish xonasida turib.

- Kech qolyapmiz. Ular bizni kutib qolishadi.

Gorton limuzinni darvoza yoniga olib keldi. Torn ko'chaga chiqib, unga birpas kutib turishni aytdi va tezda oshxonaga qaytdi.

Katerina kiyinib chiqib, Demenning xonasiga kirdi.

- Ketskik, Demen!

Bolaning xonasida hech kim yo'q edi. U suvning shildirashini eshitdi va yuvinish xonasiga kirdi. Demen vannada o'tirar, Beylok xonim uni yuvintirdi.

- Beylok xonim, - do'q urdi Katerina, - men sizga bolani kiyintirishni buyurgandim!

- Agar qarshi bo'lmasangiz, xonim, menimcha u boqqa borgani yaxshi.

- Uni cherkovga olib borishimizni aytdim-ku!

- Cherkov yosh bola uchun mos joy emas.

Ayol jilmaydi. U vaziyatning jiddiyligini tushunmayotganga o'xshardi.

- Kechirasiz, - o'zini bosishga urindi Katerina, - lekin biz cherkovga borishimiz shart.

- U cherkovga borishga yoshlik qiladi, - qaysarlik qildi Beylok xonim.

- Meni tushunmayapsiz shekilli? - qat'iy tarzda dedi Katerina. - U biz bilan cherkovga boradi.

Beylok xonim g'ijindi. Bola ham nimadir yuz berganini sezgandek enagasiga mahkam yopishdi.

- U oldin ham cherkovga borganmi? - so'radi Beylok xonim.

- Buning nima ahamiyati bor!

- Ket! - chaqirdi Torn.

- Ketyapman! - dedi u va ayolga g'azab bilan tikildi. Ayol ham unga shunday tikilib turardi.

- Kechirasiz, lekin to'rt yoshli bola cherkovdagi nikoh marosimini tushunarmikin?

- Siz o'yolimni kiyintiring, - dedi Katerina xotirjamlik bilan, - va besh daqiqadan keyin mashina yoniga olib chiqing. Yo bo'lmasa, boshqa joydan ish izlang.

- Bo'пти, shunday qilaman.

Katerina burilib chiqib ketmoqchi bo'ldi.

- Aytgandek, cherkov masalasida! - dedi Beylok xonim.

- Nima?

- Uni olib borganingizga pushaymon bo'lasiz.

Katerina chiqib ketdi. Besh daqiqadan keyin Demen kiyinib chiqdi.

Ular yangi shosse qurilayotgan Shepperton orqali ketayotib, mashinalar tiqiniga duch kelishdi. Mashinada shusiz ham betoqat vaziyat hukmron edi.

- Biror narsa bo'ldimi? - so'radi Torn.

- Arzimagan narsa.

- Juda achchig'ing kelyapti?

- Hechqisi yo'q.

- Nima bo'ldi?

- Beylok xonim, - uf tortdi Katerina.

- Nima bo'ldi?

- Gaplashib oldik.

- Nima haqda?

- U Demenni boqqa olib bormoqchi bo'ldi.

- Buning nimasi yomon?

- Cherkovning o'rniga.

- Bunga qarshilik qilmasdim.

- U nima qilib bo'lmasin bolani olib qolishga harakat qildi.

- Balki, usiz zerikar?

- Bilmadim.

Torn yelkasini qisib qo'yib yo'lga qaradi.

- Aylanib o'tsak bo'lmaydimi, Gorton? - so'radi u.

- Yo'q, janob, - javob berdi u, - agar qarshi bo'lmasangiz, Beylok xonim haqida bir narsa demoqchi edim.

Er-xotin ajablanib unga qarashdi.

- Gapiring, - dedi Torn.

- Bolaning oldida gapirgim kelmayapti.

Katerina Demenga qaradi. U yangi tuflisining bog'ichini o'ynab o'tirardi.

- Gaping, - dedi Katerina.

- Menimcha, u ayol bolaga yomon ta'sir ko'rsatyapti. U uyda o'rnatilgan qoidalarga amal qilmayapti.

- Qanday qoidalarga? - so'radi Torn.

- Masalan, bizda xizmatkorlar birgalikda ovqatlanishadi, idishlarni esa navbat bilan yuvishadi.

Torn Katerinaga qaradi. Bunda hech tashvishlanarli narsa yo'q edi.

- U biz bilan umuman ovqatlanmaydi, - davom etdi Gorton. - Ovqat yegan idishini ham yuvmaydi.

- Unga boshqa bunday qilmasligini aytish mumkin.

- Bizda shuningdek, uyda chiroq o'chganidan so'ng ko'chaga chiqilmaydi, - davom etdi Gorton, - men uning tunda o'rmonga ketayotganini bir necha marta ko'rdim.

Tornlar o'ylanib qolishdi, ular eshitgan so'zlar g'alati edi.

- Yana bir narsa, janob.

- Yana nima, Gorton? - tashvish bilan so'radi Torn.

- U Rim bilan telefonda gaplashish uchun buyurtma beradi.

Gorton gapini tugatib mashinani yurgizdi. Katerina va Torn bir-biri bilan gaplashishardi.

- U bugun o'zini juda yomon tutdi, - dedi Katerina.

- Sen uni bo'shatib yuborasanmi?

- Bilmadim.

- Demen unga o'rganib qolganga o'xshaydi.

- Bilaman.

- Buni o'ylab ko'rish kerak.

- Ha, - xo'rsindi Katerina. - Albatta.

- Agar istasang uni ishdan bo'shatishing mumkin.

- Menimcha, u o'zi ketadi.

Demen ularning o'rtasida o'tirardi. Mashina shaharga kirib keldi. Barcha Avliyolar cherkovi juda katta qurilgandi. Bu yerda 17-asrdan shu kungacha qurilgan binolar saqlanib qolgandi. Ulkan kirish eshiklari katta qilib ochib qo'yilgan edi. Zinalar gul bilan to'lib ketgan, xizmatchilar tantanali ravishda turishardi. Marosimga juda ko'pchilik tashrif buyurgan, soqchilar olomoni zo'rg'a ushlab turardilar. Limuzin mashinalari qator turardi.

Tornlarning limuzini kechroq kelgani uchun oxirgi qatorga yaqinlashdi. Bu yerda soqchilar yo'qligi uchun ularni birpasda odamlar o'rab olishdi. Mudrayotgan Demen uyg'onib ketdi va oynadan qarayotgan odamlarni ko'rib qo'rqib ketdi. Katerina bolani mahkam quchoqladi. Kimdir oynani taqillatdi.

- E, Xudo, - dedi Katerina. - Bu yerda nima bo'lyapti?

Demening yuzida tashvish alomatlari ko'rindi.

- Qo'rqma, - dedi Torn uning xavotirlanganini ko'rib. - Ular bizga hech narsa qilishmaydi.

Lekin bolaning ko'zlari dahshatdan o'laya boshladi, u odamlarga emas, cherkov tomiga o'rnatilgan xochga qarab turardi.

- Qo'rqma, Demen, - dedi Torn. - Biz to'y tomosha qilamiz.

Bolaning qo'rquvi kuchaydi. Mashina tobora cherkovga yaqinlashayotgan edi.

Torn bolasidan ko'z uzmayotgan Katerinaga qaradi. Demenning yuzi oqarib ketgan, olomon yo'q bo'lsada, u g'ujanak bo'lib olgandi.

- Hammasi joyida, Demen, - shivirladi Katerina. - Odamlar ketishdi!

Ammo bolaning ko'zlari cherkovga tikilgan, o'zi esa dag'-dag' titrardi.

- Unga nima bo'ldi? - so'radi Torn.

- Bilmadim.

- Senga nima bo'ldi, Demen?

U o'lgudek qo'rqib ketgandi.

Bola dam Tornga, dam Katerinaga qarardi.

- Bu bor-yo'g'i cherkov, - dedi Katerina.

Bola yuzini keskin burdi. Uning lablari qurib qolgan, nafas olishi sekinlashayotgandi.

- E Xudoyim! - qichqirdi Katerina.

- Unga nima bo'ldi?

- Uning tanasi sovub qoldi. Xuddi muzga o'xshaydi!

Limuzin cherkov oldida to'xtadi va xizmatchilardan biri eshikni ochib Demenga qo'l uzatdi. U dahshat bilan onasining ko'yligidan mahkam ushladi.

- Demen! - qichqirdi Katerina. - Demen!

U bolaning qo'llarini bo'shatmoqchi bo'ldi, ammo u yanada mahkamroq ushladi.

- Jeremi! - Katerina o'zini yo'qotib qo'ydi.

- Demen! - baqirdi Torn.

- U ko'ylagimni yirtib yuboradi!

Torn bolaga engashdi, u esa onasining sochlariga yopishdi.

- Yordam beringlar! - chinqirdi Katerina.

Demen dahshatdan qichqirardi. Ularning olishuvini ko'rgani birpasda odamlar to'planishdi. Gorton ularga yordam berish uchun bolani tortib olmoqchi bo'ldi. Ammo bola haqiqiy yirtqichga aylangan, bo'kirar, o'tkir tirnoqlari esa onasining yuziga botirilgandi.

U hatto Katerinaning bir tutam sochini ham yulib oldi.

- Uni olinglar! - baqirdi Katerina.

U Demenni ura boshladi. Torn bolani kuch bilan yulqib oldi.

- Ketdik! - dedi u Gortonga. - Bu yerdan ketamiz!

Limuzin oldinga siljidi. Ular cherkovdan uzoqlashganlari sari bolaning jazavasi pasaya boshladi va bir necha daqiqadan keyin u jim bo'lib qoldi. Demenning ko'zlari yonar, yuzidan ter oqardi. Torn uni mahkam ushlab olgandi. Uning yonida Katerina o'tirar, uning bir ko'zi yumilib qolgandi. Ular jim ketishdi.

Pirfordga kelgach, ular Demenni o'z xonasiga olib kirishdi va uning yonida o'tirishdi. Bolaning peshonasi muzdek edi.

- Unga o'zim qarayman, - dedi Beylok xonim xonaga kirarkan.

Uni ko'rib Demen ancha tinchlandi.

- U judayam qo'rqib ketdi, - dedi Katerina.

- Demen cherkovni ko'radi, - dedi enaga. - Men uni boqqa olib bormoqchi edim.

- U o'zini yirtqichlardek tutdi, - dedi Torn.

- Bolaning jahli chiqqan, - Beylok xonim oldinga yurdi va Demenning qo'lidan tutdi. Bola unga yopishdi, Tornlar esa ularni jimgina kuzatishardi.

- Bunda bir gap bor, - dedi Gorton kechqurun xotiniga.

Xotini uning kunduzi qanday voqea ro'y berganini haqidagi hikoyasini jimgina eshitardi.

- Bu Beylok xonimda bir gap bor, - davom etdi u, - bu bolada ham, umuman bu uyda bir sir bor.

- Sen o'ta oshirib yuboryapsan, - dedi xotini.

- Agar buni ko'rganingda edi, meni tushungan bo'larding.

- Yosh bolaning injiqligi, xolos.

- Yirtqichning injiqligi.

- U juda o'jar.

- Qachondan beri?

Xotini yelkasini qisdi.

- Biror marta uning ko'zlariga qaraganmisan? - so'radi Gorton. - Huddi yirtqich hayvonga qaragandek bo'lasan. Uning ko'zlari kuzatib turadi. U ichingdagini ko'zi bilan sezadi.

- Namuncha irimchi bo'lmasang?

- Hali ko'rasan, - ishontirdi uni Gorton. - Bu yerda bir ko'ngilsizlik yuz beradi.

- Ko'ngilsizlik hamma yerda ham yuz beradi.

- Menga bu narsalar yoqmayapti, - dedi u tundlik bilan. - Menimcha, biz bu yerdan ketishimiz kerak.

Tornlar esa bu paytda hovlida o'tirishardi. Allaqachon qorong'i tushgan edi. Demen uxlardi. Ular yulduzli osmonga tikilishardi.

Katerinaning yuzi shishib, yara bo'lib ketgan va u namlangan matoni yuziga bosib o'tirardi.

- Xo'sh, - dedi u nihoyat, - yomon kunni tugatish uchun uxlash kerak. Men uxlayman.

- Men birpas o'tiraman.

Xotining qadam tovushlari tindi va Jeremi o'yga cho'mdi. U o'rmonga ko'z tikdi, lekin ko'z oldida o'rmon o'rniga Rimdagi kasalxona va oynavand to'siq namoyon bo'ldi.

Nima uchun u Demenning onasi haqida so'ramadi? Uning onasi kim edi? Qayerlik edi? Bolaning otasi kim va u nima uchun bolasining oldiga kelmadi? O'tgan yillar davomida u bir necha taxminlar bilan o'zini ovutib kelgandi. Balki, Demenning haqiqiy onasi oddiygina dindor ayol bo'lgani uchun katoliklar kasalxonasida ko'z yorigandir. Bu kasalxona xizmati juda qimmat edi va tanishlarsiz bu yerga kelish qiyin edi. Balki, u yetim bo'lgandir va bola nikohsiz dunyoga kelgandir - bolaning otasi yo'qligini u shu bilan izohlardi. Yana nimalarni bilish kerak edi? Yana nima muhim edi? Bola juda chiroyli va sog'lom edi.

Torn o'z hatti-harakatlarida ikkilanmas va buning uchun o'zini ayblamasdi. U doimo barcha ishni to'yori bajaryapman, deb o'yarladi. Balki u noto'yori qadam bosgandir? Balki u ko'p narsani bilishi lozim edimi?

Torn bu savollarga javob topa olmadi.

Javobni bir necha kishigina bilar va ular ham turli joylarga tarqalib ketishgandi. Rohiba Tereza, Spilletto ota, Tassone ota. Faqat ular bilishardi. Bu sir ularning yurak tubida edi. O'sha mash'um tunda ular bu ishni bajarishga tanlanishgani uchun faxrlanishardi. Dunyo tarixida bu ishni bajarishga ikki marta urinishgan, lekin faqat mana shu safar ish o'ngidan kelishi kerak edi. Ularning bu ishi haqida birorta ham tirik jon bilmasdi. Demen tug'ilgach, Tereza uni bo'lajak ota uchun tayyorladi: uning peshonasi va qo'llaridagi tuklarni tozaladi, Torn kelgan paytda chiroyli ko'rinsin deb unga upa sepdi. Chaqaloqning sochlari ular kutganday qalin edi. Torn Terezani ham, yerto'lada ikkita jasadni qutiga joylagan Tassoneni ham hech qachon ko'rmaydi. Birinchi jasad Tornning endigina dunyoga kelgan farzandini edi - u tug'ilib, yiyolashga ham ulgurmay dunyoni tark etdi, ikkinchi jasad esa yashashga hukm etilgan chaqaloqning onasiga tegishli edi. Tashqarida esa jaslarni Cherveteridagi qabristonga olib ketish uchun yuk mashinasi kutib turardi.

Reja Shaytonga sig'inuvchilar jamiyati tomonidan tuzilgan bo'lib, Spilletto uning rahbari edi. U ishtirokchilarni o'ta ehtiyotkorlik bilan tanladi. Terezadan uning ko'ngli to'q edi, ammo so'nggi daqiqalarda Tassone ota uni tashvishga soldi. Oxirgi kuni u jur'atsizlik qilib Spillettoni o'ylantirib qo'ydi. Tassone bu ishning naqadar muhimligini unutib qo'ygandi. Spilletto uni o'yindan chiqarmoqchi bo'ldi. Agar ulardan birortasi og'zidan gullab qo'ysa, uchalovi ham buning uchun javob berishardi. Ammo eng asosiysi, ish yana ming yilga cho'zilardi.

Biroq Tassone sodiqlik bilan ishini bajarib o'zini oqladi. U chaqaloqning boshini tosh bilan urib majaqladi. Bu ish unga yomon ta'sir qildi, lekin u o'z ishini bajargandi, qolgan narsalar esa unchalik muhim emasdi. O'sha tunda shifokor va hamshiralalar yonlarida nimalar sodir bo'layotganidan bexabar holda o'z ishlarini bajarardilar. Barcha narsa o'ta hushyorlik bilan amalga oshirilgandi. Hech kim, ayniqsa Torn hech narsani bilmay qolgandi.

Torn hovlida o'tirganicha tunni tomosha qilardi. Torn Pifrovd o'rmoni endi uni bezovta qilmay qo'yganini sezib qoldi. Endi o'rmon osoyishta bo'lib qolgan, chigirtka va qurbaqalar esa hayot tinchgina davom etayotganidan darak berayotgandek sayrashardi. Jeremi Demenning xonasiga qaradi. U yerda tungi chiroq yonib turar va Torn uxlayotgan go'dakning yuzini tasavvur qilardi. Bu dahshatli kun nihoyasida u bolaning yuziga boqishni istadi. Jeremi o'rnidan turdi, chiroqni o'chirib, uyqudagi uyga yo'l oldi. Ichkarini zimiston qoplagan, jimjitlik odamning yuragiga vahima solardi. Torn qo'llari bilan paypaslab zinapoya tutqichini ushladi va yuqoriga ko'tarildi. Butun atrof uyquga cho'ngandi. Jeremi devor bo'ylab asta-sekin yura boshladi, keyin yo'lakdan burildi. Oldinda Demenning xonasi bo'lib, eshik tirqishidan tungi chiroqning nuri tushib turardi. Torn joyida qotib qoldi, uning qulog'iga qandaydir tovush chalingandek bo'ldi.

Torn oldinga qadam tashlamoqchi bo'lgandi, tovush yana takrorlandi. Bu safar u qattiqroq eshitildi va Jeremining yuragi orqaga tortib ketdi. U pastga qarab bir juft ko'zni ko'rdi. Uning nafasi chiqmay qoldi va rangi oqarib, devorga qapishdi. Zulmat qo'ynidan bolaning xonasini qo'riqlashga shay it chiqib keldi. Uning ko'zlari yonardi.

- Xo'sh!xo'sh, - dedi Torn qaltiroq ovozdagi va it unga tashlanishga shaylandi.

- Tinchlan, - dedi o'z xonasidan chiqqan Beylok xonim. - Bu kishi uyning xo'jayini.

It darhol tinchlandi. Beylok xonim chiroqni yoqdi va butun yo'lak yorishib ketdi. Torn itdan ko'zlarini uzmasdi.

- Bu nimasi? - dedi u.

- Nima, janob? - xotirjamgina so'radi Beylok xonim.

- Mana bu it.

- Menimcha, qo'riqchi it. Chiroyli ekanmi? Biz uni o'rmondan topib oldik.

It uning oyoqlari ostiga yotdi.

- Sizga kim ruxsat berdi itni!

- Men bizga qo'riqchi it kerak deb o'ylabman. Bola uni juda yaxshi ko'radi.

Torn g'azabdan titrab ketdi. Beylok xonim esa qiziqish bilan so'radi:

- U sizni qo'rqitib yubordimi?

- Ha.

- Qarang, u juda yaxshi. Qo'riqchi sifatida. Ishonavering, ketganingizdan keyin, siz mendan minnatdor bo'lasiz.

- Qayerga ketganimdan keyin? - so'radi Torn.

- Saudiya Arabistoniga bormaysizmi?

- Saudiya Arabistoniga borishim kerakligini siz qayerdan bilasiz?

U yelkasini qisdi:

- Buning sir ekanligini bilmabman.

- Men safar haqida hech kimga indamagan edim.

- Gorton xonim aytgan edi.

Torn bosh silkidi va yana itga qaradi.

- It endi hech kimni bezovta qilmaydi, - ishontirdi uni Beylok xonim. - Biz uni ortib qolgan ovqatlar bilan boqamiz.

- Uning bu yerda qolishini istamayman, - dedi keskin ohangda Torn.

Beylok xonim unga hayronlik bilan qaradi.

- Siz itlarni yomon ko'rasizmi?

- Qachon xohlasam, o'shanda it olib boqaman.

- Lekin bola uni juda yaxshi ko'radi. Bu it unga juda kerak.

- Unga qanaqa it kerakligini o'zim bilaman.

- Bolalar itlarni o'zlarining himoyachilari deb bilishadi, janob. Boshqa narsalar ularni qiziqitirmaydi.

U yana qandaydir muhim bir narsani aytmoqchi bo'lgandek taraddudlanib qoldi.

- Yana biror narsani aytmoqchimisiz?

- Aytishga botinolmayapman, janob.

Uning yuzi Tornni xavotirga soldi.

- Agar biror g'apingiz bo'lsa, sizga jon deb quloq solaman.

- Yo'q, janob. Shusiz ham ishingiz ko'p!

- Aytdimku, sizni tinglashga tayyorman.
- Nazarimda, bola o'zini yolg'iz his qilyapti.
- Nega bunday deyapsiz?
- Onasi unga yaxshi e'tibor bermayapti.
Torn qotib qoldi.
- Mana, ko'rdingizmi? - dedi enaga. - Buni aytmasligim kerak edi.
- Yaxshi e'tibor bermayaptimi?
- U bolasini yaxshi ko'rmaydi. Bola ham buni his qilyapti.
Torn aytishga so'z topolmasdi.
- Ba'zida Demening mendan boshqa hech kimi yo'qdek tuyuladi, - qo'shib qo'ydi u.
- Siz adashyapsiz.
- Endi uning iti bor. It unga juda yoqadi. Bolangiz uchun uni haydamang.
Torn ulkan itga qaradi va bosh chayqadi.
- Menga bu it yoqmayapti. Ertagayoq uni berib yuboring.
- Kinga berib yuboraman?
- It otadiganlarga.
- Axir ular itlarni o'ldirashadi-ku?
- Unda bu uydan haydab yuboring. Ertaga bu yerda uning qorasini ko'rmay.
Beylok xonimning rangi devordek oqarib ketdi. Torn burilib jo'nab qoldi. It va ayol uning ortidan tikilib turishar, ularning ko'zlarida nafrat o'ti yonardi.

5

Torn tunni bedor o'tkazdi. U ayvonda o'tirganicha sigaret chekar, tamakining ta'midan uning ko'ngli aynib ketay derdi. Yotoqxonadan Katerinaning ingrashi eshitildi va Torn u tushida qanday mahluq bilan olishayaptikin, deb o'yladi. Tushkunlik uni yana ta'qib etmayaptimikin? Torn butun tunni xayollar girdobida o'tkazdi.
Katerina uyg'onganida, uning jarohatlangan ko'zi yanada shishib, butunlay yumilib qolgandi. Torn ishga ketayotib, unga shifokorga uchrashish lozimligini aytdi. Ular boshqa hech narsa haqida gaplashmadilar. Katerina jim turar, Torn esa yangi kunning muammolari bilan band edi. Saudiya Arabistoniga safar uchun ayrim mayda-chuydalarni olish qolgandi xolos, ammo u yerga bormasligi lozimligi haqidagi fikr Tornni o'yga toldirgandi. U qo'rqardi. Katerina uchun, Demen uchun, o'zi uchun tashvishlanar, lekin nega bunday bo'layotganini tushunmasdi. Ularning hayoti go'yoki qil ustida turgandek edi. Ilgarilari Torn o'lim haqida umuman o'ylamasdi. Ammo hozir u hayoti xavf ostidaligini his qilayotgandi.
Limuzinda ketayotib, u yo'l bo'yi sug'urta varaqalarini to'ldirib bordi, o'limidan so'ng nimalar qilish lozimligi haqida ko'rsatmalar yozdi. Va nihoyat, yozishni tugatgach, Tornni birdan qo'rquv hissi chulg'ab oldi. Jeremi qandaydir xatarni sezayotgandi. Limuzin to'xtadi. U oldiga ikki kishi yugurib kelayotganini ko'rdi. Ulardan biri fotoapparatini chiqillatdi, ikkinchisi esa uni savolga tutdi. Torn elchixonaga tomon yurmoqchi bo'ldi, lekin ular uning yo'lini to'sishdi.
- Bugungi "Reporter"ni o'qidingizmi, janob Torn?
- Yo'q, o'qimadim!
- Unda farzandingizning enagasi haqida maqola chiqibdi!
- Ko'rmadim.
- Maqolada yozilishicha, enaga o'limidan oldin qandaydir xat yozgan ekan.
- Bema'ni gap.
- Bu yoqqa qarang, iltimos, - dedi Jennings va uni suratga oldi.
- Meni o'tkazib yuboring, - dedi Torn.
- U giyohvand bo'lganligi rostmi? - so'radi jurnalist.
- Albatta yo'q.
- Uning qoni tarkibida dori bo'lgan.
- Bu allergiyaga qarshi dori edi, - javob berdi Torn tishlarini g'ijirlatib. - Uning allergiyasi bor edi.
- Aytishlaricha, u dorini me'yoridan ortiq ichgan.
- Bir daqiqa to'xtang, - so'radi Jennings.
- Yo'limdan qoching! - baqirdi Torn.
- Bizning ishimiz shu, janob.
Torn chetlanib o'tib ketmoqchi bo'ldi, lekin ular yana uning yo'lini to'sishdi.
- U giyohvand edimi, janob Torn?
- Aytdim-ku sizga.
- Maqolada yozilishicha!
- Tupurdim o'sha maqolangizga!
- Juda yaxshi! - dedi Jennings. - Birpas qimirlamay turing!
U fotoapparatini to'yoriladi. Torn uni turtib yubordi va fotoapparat qattiq zarb bilan yo'lakka tushdi. Ular bir necha soniyaga qotib qolishdi.
Jennings yerga engashdi.
- Kechirasiz, - dedi Torn. Uning ovozi qaltirardi. - Pulini to'layman.
Jennings singan apparatni asta qo'lga oldi va jimgina Tornga qaradi.
- Hammasi joyida, janob elchi, - dedi u. - Keling, sizni mendan "qarzdor" deb hisoblaymiz.
Torning xonasida to'polon boshlandi. Saudiya Arabistoniga safar barbod bo'layotgandi, chunki Torn hech qanday tushuntirishlarsiz u yerga borishni rad etgandi. Safar rejasi ikki hafta davomida tuzilgan, endi esa uning yordamchilari elchidan izoh talab qilishayotgandi.
- Siz uni rad eta olmaysiz, - ishontirishga urinardi yordamchilardan biri. - Shuncha tayyorgarlikdan keyin siz "bormayman" deya olmaysiz.

- Men boraman, - e'tiroz bildirdi Torn. - Faqat keyinroq.
- Ular buni haqorat deb tushunishadi.
- Mayli.
- Nima uchun?
- Hozir borolmayman, - dedi Torn. - Vaqti emas.
- Buning nimaligini tushunasizmi? - so'radi yana bir yordamchi.
- Diplomatiya, - javob berdi Torn. - Boshqa birortasini jo'nataman.
- Prezident sizning borishingizni istagandi.
- Men u bilan gaplashaman. Hammasini tushuntiraman.
- Ey xudo! Biz ikki hafta reja tuzgandik!
- Unda boshqatdan tuzinglar! - qichqirdi Torn.
- Uning g'azabi har ikki yordamchini jim bo'lishga majbur qildi.
- Qo'ng'iroq jiringladi.
- Eshitaman?
- Sizni Tassone ota ko'rmoqchi, - kotibaning ovozi eshitildi.
- Kim?
- Tassone ota. Rimdan kelibdi. Uning sizda zarur ishi bor ekan.
- Men u kishi haqida umrimda eshitmaganman, - dedi Torn.
- U bor-yo'g'i bir daqiqa vaqtingizni olarkan. Qandaydir gospital haqida gaplashmoqchi ekan.
- Xayriya so'ragani kelgandir-da, - dedi yordamchilardan biri.
- Bo'пти, - dedi Torn. - Mayli, kirsin.
- Sizning oldingizga kirish burchalik osonligini bilmagan ekanman, - dedi yordamchi.
- Jamoat ishlari, - ming'irladi Torn.
- Saudiya Arabistoni masalasida noto'yori qarorga kelmang.
- Bir qarorga kelib bo'ldim, - dedi Torn. - Yoki boshqa birov boradi yoki uni keyinroqqa qoldiramiz.
- Qachonga?
- Keyinroqqa, - javob berdi Torn. - Qachon borgim kelganida o'shanda.
- Eshik ochilib, pastakkina kishi ko'rindi. U ruhoniy edi. Uning kiyimlari g'ijim bo'lib ketgandi. Yordamchilar bir-birlariga qarashdi.
- Mumkinmi! - dedi ruhoniy kuchli italyancha talaffuz bilan, - siz bilan xoli gaplashsam bo'ladimi?
- Gospital haqidami?
- Si.
- Torn bosh irg'adi va yordamchilar sekin tashqariga yo'l olishdi. Ular chiqib ketishgach, ruhoniy eshikni yopdi va unga g'amgin qiyofada tikildi.
- Xo'sh, - dedi Torn.
- Bizning vaqtimiz oz qoldi.
- Nima?
- Siz gapimga quloq solishingiz shart.
- Ruhoniy eshikka suyanganicha qimirlamay turardi.
- Nima demoqchisiz? - so'radi Torn.
- Siz Xudoga, Xaloskoriningizga ishonishingiz shart. Hozirning o'zida!
- Bir necha soniyaga jimlik cho'kdi.
- Marhamat, janob!
- Kechirasiz, - uning gapini bo'ldi Torn. - Agar sizni to'yori tushungan bo'lsam, siz oldimga shaxsiy masalada kelgandingiz, shundaymi?
- Siz imon keltirishingiz shart, - davom etdi ruhoniy, - ana shundagina iblisning farzandini yenga olasiz.
- U bir marta o'ldirdi, - pichirladi ruhoniy, - yana o'ldiradi. U barcha mulkingiz uning qo'lga o'tmagunicha o'ldiraveradi.
- Ruhoniy unga yaqinlashdi, uning ovozida hayajon bor edi.
- Faqat Xudoning yordamida u bilan kurasha olasiz, - po'pisali ohangda gapirdi u. - Unga imon keltiring.
- Torn qo'ng'iroq tugmasini bosdi.
- Men eshikni yopib qo'ydim, janob Torn, - dedi ruhoniy.
- Torn uning so'zlaridan cho'chib ketdi.
- Eshitaman? - kotibaning ovozi eshitildi.
- Soqchilarni bu yerga jo'nating.
- Nima bo'ldi, janob?
- O'tinaman, janob, - hayqirdi ruhoniy, - gaplarimni tinglang.
- Janob? - qaytardi kotiba.
- Farzandingiz dunyoga kelgan o'sha tunda men gospitalda edim, janob Torn, - dedi ruhoniy.
- Torn qotib qoldi. U Tassone otadan ko'z uzolmasdi.
- Men! doyalik qilganman, - dedi ruhoniy. - Men uning tug'ilishiga guvoh bo'lganman.
- Yana kotibaning tahlikali ovozi eshitildi.
- Janob Torn? Men sizni eshitmayapman.
- Hech narsa. Faqat, joyingizda bo'lib turing.
- U dahshat bilan ruhoniyga tikildi.
- O'tinaman, - dedi Tassone, ko'z yoshlarini zo'rg'a tiyib.
- Nima kerak sizga?
- Sizni qutqarmoqchiman, janob Torn. Xudo mening gunohimni kechirishini istayman.
- O'yolim haqida nima bilasiz?
- Hamma narsani.

- Nimani? - do'q urdi Torn.

Ruhoniy qaltirab ketdi.

- Men uning onasini ko'rganman.

- Mening xotinimnimi?

- Uning onasini, janob Torn!

- Meni shantaj qilmoqchimisiz?

- Yo'q, janob.

- Unda mendan nima istaysiz?

- Aytib bermoqchiman.

- Nimani?

- Uning onasini.

- Gapiring, uning onasiga nima bo'lgan?

- Uning onasi! shoqoled! - Ruhoniy ingrab yubordi. - Farzandingiz shoqoldan tug'ilgan. Buni o'z ko'zlarim bilan ko'rganman!

Eshik shahd bilan ochildi. Xonaga soqchi va Tornning yordamchilari, kotiba otilib kirishdi. Torn rangi oppoq holda bir so'z demay o'tirardi. Ruhoniyning ko'zlaridan duvillab yosh to'kilardi.

- Bu yerda biror narsa bo'ldimi, janob? - so'radi soqchi.

- Ovozingiz g'alati eshitildi, - qo'shib qo'ydi kotiba. - Eshik esa berk edi.

- Bu kishini zudlik bilan olib chiqib ketinglar, - dedi Torn. - Agar bu yerda yana paydo bo'lsa, qamoqqa olinglar.

Hech kim joyidan qimirlamadi. Soqchi nima qilishni bilmasdi. Tassone sekin eshik tomon jo'nadi. Ostonada u Tornga o'girildi.

- Xudoga ishonib, - qayg'uli ohangda pichirladi u va chiqib ketdi.

- Nega kelibdi? - so'radi yordamchilardan biri.

- Bilmayman, - javob berdi Torn. - U aqldan ozgan shekilli.

Ko'chada esa Gaber Jennings avtomobilga suyanganicha ikkinchi fotoapparatini tekshirardi. U soqchi ruhoniyni kuzatayotganini ko'rdi va ikki marta suratga tushirdi.

Soqchi uni ko'rib qoldi.

- Bu mashmashalar joningizga tegmadimi? - dedi u fotoapparatga imo qilib.

- Mashmashalar jonu dilim, - dedi kulib Jennings va ruhoniyni ortidan yana suratga oldi.

Kechqurun Jennings qorong'i xonada o'tirganicha olgan suratlarini tomosha qilardi. Fotokamerasining yaxshi ishlashiga ishonch hosil qilish uchun u o'ttiz oltita surat olgandi. Ulardan uchasi yaroqsiz chiqdi. Bu aynan Tornlarning uyidagi tug'ilgan kun marosimida enagani suratga olgandagi kabi nuqson edi. Endi bu narsa ruhoniy bilan yuz berayotgandi. Ruhoniyning barcha suratlarida dog' bor edi.

Jennings beshta suratni qo'liga oldi. Ruhoniyning soqchi bilan turgan paytdagi ikkita surati, soqchining yolg'iz holdagi ikkita surati va yana ruhoniyning surati. So'nggi suratdagi dog' ingichka shaklda edi.

Bu dog' ruhoniyning ustida turar, go'yoki uzun nayza uning boshi uzra sanchilganday edi. Jennings o'yga toldi. Chamasi, o'ta kuchli hayajonda bo'lgan kishidan qandaydir nur taralar va bu nurni suratga olsa bo'lardi.

Bu Jenningsni hayajonlantirib yubordi va u o'ta sezgir fototasmalarni topish uchun ma'lumotnoma titkilashga tushdi. Bu fototasmalar 3-X-600 tasmalari bo'lib, u yaqindan beri ishlab chiqarilayotgandi. Uning sezgirligi o'ta yuqori - hattoki sham shu'lasida ko'rinib turgan jismlarni ham muhrlay olardi.

Ertasiga ertalab Jennings aynan mana shu fototasmadan sotib oldi. Unga kuchli hayajonga tushgan odamlar kerak edi, shuning uchun u kasalxonaga yo'l oldi va bu yerda o'limini kutayotgan bemorlarni suratga oldi. Natija esa uni hayratga soldi: birorta ham suratda dog'dan asar yo'q edi. Bu esa doyolar o'limdan darak beruvchi belgi emasligini bildirardi. Butun hafta davomida Jennings enaga va ruhoniyning suratlaridagi g'ayritabiiy doyolar haqida o'yladi. Keyin esa yana bir marta Tornning oldiga borishga qaror qildi.

Torn mahalliy universitetda, turli kechalarda chiqishlar qilar va uni tinglagani deyarli barcha qatnashardi. Elchi kuchli notiq bo'lib, qayerda nutq so'zlamasin, tinglovchilarni o'ziga jalb qila olardi.

- Bizda hamma narsa bo'linib qolgan, - derdi elchi. - Yoshlar va qarilar, boylar va kambag'allar! ammo eng asosiy bo'linish shuki, kimlardadir katta imkoniyatlar bor, yana kimlardadir hech qanday imkoniyat yo'q! Demokratiya - bu tenglik! Teng imkoniyatlar yo'q joyda "demokratiya" so'zi yolg'onga aylanadi!

Torn bunday chiqishlar davomida savollarga javob qaytarar, tinglovchilar bilan muloqotda bo'lar, eng asosiysi, u odamlarni i sh o n t i r a o l a r d i.

Torn o'zini jamoat ishlari bilan chalg'itishga urinardi, chunki uni qandaydir dahshatli his ta'qib etayotgandi. U omma oldidagi chiqishlari davomida tanish ruhoniyga ikki marta ko'zi tushdi. Torn Tassonening so'zlariga jiddiy e'tibor bermadi: u bor-yo'g'i siyosiy arbobni ta'qib qiluvchi aqldan ozgan diniy mutaassib, Tornning farzandi haqidagi gaplari esa shunchaki tasodif. Lekin ruhoniyning so'zlari uning miyasiga o'rnashib qolgandi. Uning xayoliga ruhoniy balki qotildir, degan fikr ham keldi, ammo Torn bu fikrni miyasidan chiqarib tashladi. Torn o'zini xuddi lochin ta'qibidagi dala sichqonidek his qilardi.

Pirfordda esa hamma narsa o'z maromida ketayotgandek edi. Ammo tashqi xotirjamlik ortida hayajon yashiringan edi. Torn bilan Katerina kamdan-kam ko'rishishardi: turli joylardagi nutqlari sababli Torn uyda kam bo'lardi. Katerina ko'proq vaqtini Demenga ajrata boshladi. Ammo Demen uning oldida og'ziga tolqon solgandek jim yurar, kun bo'yi Beylok xonimning qaytishini kutib o'tirardi.

U enagasi bilan o'ynab-kular, Katerina esa unga yoqmasdi. Katerina uning mehrini qozonish uchun hamma narsa qilib ko'rdi. Kitobchalar, bo'yash uchun rasmiy kitoblar, o'yinchoqlar sotib oldi. Ammo bolakay ularga qarab ham qo'ymadi. To'yori, Demen bir marta hayvonlar surati tushirilgan kitobchani tomosha qildi va ana shunda Katerina uni hayvonot bog'iga olib borishga qaror qildi. Tomoshaga o'tlanar ekan, Katerina o'z hayoti boshqalarnikidan qanchalik kuchli farq qilishini his etdi. O'yoli to'rt yarimga kirgan bo'lsada, hali biror marta ham hayvonot bog'ida bo'lmagan edi. Balki, ko'chaga kam chiqqani uchun Demen kamgap, odamovi bo'lib qolgandir. Ammo bugun u quvnoq edi va Katerina nihoyat to'yori yo'lni tanlaganini tushundi. Demen hatto u bilan gaplashdi. Katerina o'zini baxtli his etishi uchun shuning o'zi yetarli edi. Shaharga yetguncha u to'xtamasdan gapirdi va Demen indamay unga quloq solib ketdi!

Qishning o'sha yakshanbasida Londonda havo ochiq bo'lib, hayvonot bog'i gavjum edi. Hayvonlar ham quyosh nuridan zavq

olishar, ularning ovozi hatto kirish darvozasigacha eshitalardi. Ular oqqushlar oldida to'xtashdi va bolalarning ularga non tashlayotganini kuzatishdi. Katerina bilan Demen ularga yaqinlashishdi. Birdaniga qushlar non yeyishni to'xtatishdi va ko'lining o'rtasiga qarab suzib ketishdi. Ular oqqushlarga non tashlayotgan bolalarni kuzatib turishdi. Ammo oqqushlar qaytishmadi. Ona-bola nari ketishlari bilan qushlar yana bolalarning oldiga suzib kelishdi.

Tomoshabinlar haddan ziyod ko'p edi. Katerina oldida tomoshabin ozroq to'plangan qafasni izlay boshladi. O'ng tomonda "Itlar" deb yozilgan ko'rsatkich turardi. Ular o'sha tomonga yo'l olishdi. Katerina bu yerda ham odam oz emasligini ko'rdi.

Kutilmaganda itlar inlariga kirib ketishdi va tomoshabinlar asta-sekin tarqala boshladilar. Itlarni tomosha qilish uchun bo'ynini cho'zgan Demen qafas ichida ahlatdan boshqa narsani ko'rmadi va hayron bo'lib onasiga qaradi.

- Ular ovqat yegani kirib ketishdi shekilli, - dedi Katerina yelkasini qisib.

Ona-bola nariroqqa borishib, sosiska sotib olishdi.

- Maymunlarni ko'ramiz, - dedi Katerina. - Ketdikmi?

Ular qator tizilgan qafaslar yonidan o'tib borishardi. Demening ko'zlari hayvonlarni ko'rish ishtiyoqida yonardi. U birinchi bo'lib ayiqni ko'rdi. Ayiq qafas ichida u yoqdan-bu yoqqa tinmay borib-kelardi. Ammo Katerina bilan Demen uning yoniga yaqinlashishigayoq ayiq to'xtab qoldi. Ularga bir qarab qo'ydi va shu zahoti iniga kirib ketdi. Qo'shni qafasda yovvoyi mushuk sap-sariq ko'zlarini ulardan uzmay o'tirardi. Uzoqroqdagi qafasda babuin maymuni bo'lib, maymun ularni ko'rishi bilan joyida qotib qoldi. Katerina o'zlarining hayvonlarga bo'lgan ta'sirini sezdi va qafaslar yonidan o'tib borar ekan, ularni diqqat bilan kuzatdi. Barcha hayvonlar Demendan ko'z uzishmasdi. Demen ham buni his qildi.

- Shirinligingdan ular sendan ko'z uzisholmayapti, - kuldi Katerina.

Oldinda maymunlar qafasi bor edi. Katerina Demenni qo'liga ko'tarib oldi.

Ularning qulog'iga maymunlarning shovqini chalindi. Katerina maymunlar oxirgi qafasda o'ynayotganligini tushundi. U oldinga o'tdi va ularni ko'rdi. O'rgimchaksimon maymunlar qafas ichida quvlashmahoq o'ynashar, shoxdan-shoxga sakrashardi. Demen ularni ko'rib kulib yubordi. Katerina eng oldingi qatorga o'tmoqchi bo'ldi. Maymunlar odamlarga e'tibor berishmasdi. Ammo Katerina va Demen yaqinlashishi bilan ularning kayfiyati keskin o'zgardi. O'yin birdaniga to'xtadi. Maymunlar tomoshabinlar orasidan kimnidir qidira boshlashdi. Tomoshabinlar ham nega bunday hol yuz berganiga ajablanib, jimgina qarab turishardi. Hamma ularning yana birdaniga o'yinni davom ettirishini kutardi. Qo'qqisdan qafas ichida xavf-xatardan ogohlantiruvchi chinqiriq yangradi. Unga boshqa maymunlar ham qo'shilishdi. Ular o'zlarini qafasga urishardi. Hayvonlar o'zlarini har tomonga urishar, bir-birlarini tirnar, tishlar, ularning butun badani qonga bo'yalardi. Tomoshabinlar dahshatdan jim bo'lib qolishdi, Demen esa qah-qah urib kulganicha, bu qonli tomoshadan zavq olardi. Qafas ichidagi tahlika kuchayib borardi. Maymunlardan biri yuqoridagi simga o'ralashib, bo'g'ilib qoldi va birpas tipirchilagach, joni uzildi. Odamlar baqirib yuborishdi, ammo ularning ovozini hayvonlarning shovqini bosib ketdi. Maymunlar o'zlarini u yoqdan-bu yoqqa urishardi. Ulardan biri beton polga boshini to'xtovsiz uraverib sulayib qoldi. Hamma tashqariga shoshildi. Katerina esa haykaldek qotib qolgandi. Uning o'yoli esa zavq bilan kulardi. U qonga belangan maymunlarni ko'rsatib, yanada qattiqroq kuldi. Barcha hayvonlar Undan qo'rqishardi. Bularning barchasini U qilayotgandi. Qafasdagi shovqin avjiga chiqqanida Katerina dahshat bilan qichqirdi.

6

Pirfordda uni Jeremi kutib turgandi. Jeremi uning yaxshi kayfiyatda kelishiga umid qilgan va u kelmaguncha tushlik qilmasligini aytgandi. Ular stol atrofida o'tirishganida Torn Katerinaning hayajonini sezib qoldi.

- Tuzukmisan, Katerina?

- Ha.

- Jim o'tiribsan?

- Charchadim, shekilli.

- Taassurotlar yaxshimi?

- Ha.

U qisqa-qisqa javob berardi.

- Yoqdimi?

- Ha.

- Hayajonlanyapsan?

- Rostdanmi?

- Nima bo'ldi?

- Nima bo'lishi mumkin?

- Bilmadim. Negadir jahling chiqyapti.

- Shunchaki charchadim. Uxlashim kerak.

U jilmayishga urindi, lekin eplolmadi. Torn tashvishlandi.

- Demen tuzukmi?

- Ha.

- Ishonching komilmi?

- Ha.

U Katerinaga diqqat bilan qaradi.

- Agar biror narsa yuz bergan bo'lsa! menga aytarding, to'yorimi? Men Demenni nazarda tutyapman.

- Demenga nima bo'lishi mumkin, Jeremi? O'yolimizga nima bo'lishi mumkin? Axir biz baxtlimiz-ku!

Katerina jilmaydi, ammo uning yuzida g'amginlik alomatlari sezildi.

- Aytmoqchimanki, uyimizning eshigi faqat yaxshilik uchun ochiq. Qora bulutlar bizning uyni chetlab o'tadi.

- Nima bo'ldi o'zi? - xotirjamlik bilan so'radi Torn.

Katerina boshini egdi.

- Men shifokorga borishim kerak shekilli. - Uning ko'zlarida qayg'u ifodasi ko'rindi. - Men! qo'rqyapman. Oddiy odam mendek qo'rqmaydi.

- Ket, - pichirladi Torn. - Nimadan qo'rqyapsan?

- Agar buni aysam, sen meni tashlab ketasan.

- Yo'q, - dedi u. - Yo'q! men seni sevaman.
- Unda menga yordam ber, - iltimos qildi u. - Shifokor top.
Uning ko'zlaridan yosh tomchiladi. Torn uning qo'lini ushladi.
- Albatta, - dedi u. - Albatta.

Katerina ho'ngrab yubordi. Kunduzi yuz bergan hodisa uning qalbiga toshdek botardi.

Angliyada ruhshunos shifokorni Amerikadagidek topish oson bo'lmasada, Torn ishonish mumkin bo'lgan shifokorni topdi. U yosh bo'lsada, yaxshi tavsiyanoma va katta tajribaga ega edi. Uning ismi Charlz Griyer edi. U Priston universitetini bitirgan va Bellevuda ishlardi. Yana shunisi diqqatga sazovor ediki, u bir qancha vaqt Jorjtaunda yashagan va bir nechta senatorlarning xotinlarini davolagandi.

- Siyosiy arboblarning xotinlarida uchraydigan asosiy muammo - ichkilikbozlik, - dedi u Torn. - Menimcha, bu yolg'izlikdan kelib chiqsa kerak.

- Suhbatimiz maxfiylikni tushunsangiz kerak, - dedi Torn.

- Albatta, - kuldi ruhshunos. - Odamlar menga ishonishadi va to'yorisini aysam, ularga shundan boshqa narsani taklif qila olmayman. Ular boshqalarga aytolmagan dardlarini menga aytishadi.

- U oldingizga kelishi kerakmi?

- Unga manzilgohimni ayting. Kelishga majburlamang.

- U o'zi kelishni istadi.

- Yaxshi.

Torn o'rnidan turdi. Yosh shifokor jilmaydi.

- U bilan gaplashganingizdan so'ng menga qo'ng'iroq qilasizmi? - so'radi Torn.

- Ishonchim komil emas.

- Aytmoqchimanki! agar biror gapingiz bo'lsa.

- Barcha gaplarimni Uning O'ziga aytaman.

- Agar uning ahvolidan tashvishlansangiz!

- U o'zini o'ldirmoqchimi?

БҲ”В! Yo'q.

- Unda tashvishlanishga asos yo'q. Ishonamanki, bu siz o'ylaganingizdek jiddiy emas.

O'zini tetik sezgan Torn eshik tomon yurdi.

- Janob Torn?

- Ha?

- Nima uchun mening oldimga keldingiz?

- Sizni ko'rish uchun.

- Nega?

Torn yelkasini qisdi:

- Ko'rinishingiz qandayligini bilish uchun bo'lsa kerak.

- Birorta muhim narsa haqida aytmoqchimasizmi?

Torn o'zini noqulay his qildi. Bir oz o'ylanib turgach, bosh irg'adi.

- Menga ham ruhshunos kerak demoqchimisiz? Kasalga o'xshayapmanmi?

- Men-chi? - so'radi ruhshunos.

- Yo'q.

- Mening shaxsiy shifokorim bor. - kuldi Griyer. - U menga doim kerak.

Bu suhbat Tornning jahlini chiqardi va u ishxonasiga qaytgach, kun bo'yi shu suhbatni o'yladi. Griyerning oldida o'tirganida u hali hech kimga aytmagan barcha narsani aytishi lozimligini his qilgandi. Lekin bundan nima foyda chiqardi? Mash'um yolg'on uning hayotining ajralmas qismiga aylanib bo'lgandi.

Kun sekin o'tmoqda edi va Torn muhim nutqini yozmoqchi bo'ldi. U ertaga nomdor ishbilarmonlar guruhi oldida nutq so'zlashi lozim bo'lib, bu yerga neft kompaniyalari vakillari ham kelishlari kutilmoqda edi. Torn o'z nutqi Yaqin Sharqda tinchlik o'rnatishga xizmat qilishi uchun harakat qildi. Anchadan buyon davom etayotgan arab-isroil ziddiyatlari oqibatida Arab dunyosi AQShdan borgan sari uzoqlashmoqda edi. Torn arab-isroil nizolari uzoq tarixga taqalishini va bu muqaddas kitoblarda ham bayon etilganligini bildirdi. Shuning uchun u yanada aniqroq tasavvurga ega bo'lish uchun Injilning uchta nashrini ko'rib chiqishga qaror qildi. Bundan tashqari, diniy kitoblardan ko'chirma keltirish tinglovchilarga kuchli ta'sir o'tkazishi mumkin edi.

Torn kimningdir ingraganini eshitdi. Bu ovoz ikki marta takrorlandi. Torn xonasidan chiqib yuqoriga, Katerinaning xonasiga yo'l oldi. Katerina terga pishganча uxlab yotardi. Jeremi birpas unga qarab turdi va zina tomon yurdi. Qorong'i yo'lakda ketayotib u Beylok xonimning xonasi eshigi qiya ochiqligini ko'rdi. Gavdali ayol chalqanchasiga uxlab yotardi. Torn yo'lida davom etmoqchi edi, ammo ayolning yuzini ko'rib joyida qotib qoldi. Uning yuziga qalin qilib upa chaplangan, lablari esa qip-qizil labbo'yoq bilan bo'yalgandi. U o'zini g'alati his qildi.

Torn eshikni yopib, xonasiga kirdi va qalashib yotgan kitoblarga qaradi. U fikrini bir joyga jamlolmas, ko'zlari sahifalar uzra maqsadsiz yugurardi.

"... Va unga qarshilik qilinadi va unga hukmronlik berilmaydi, lekin u jimlik bilan kelib, hukmronlikni qo'lga kiritadi. U barcha qo'shinlarni cho'ktirib yo'q qilib yuboradi! u yolg'on bilan keladi va ozchilik xalq ustidan hukmronlik qiladi. U tinch va farovon mamlakatlarga keladi hamda otasi va otasining otalari qilmagan ishni qiladi. Talab qo'lga kiritgan barcha boylik va mulklarini qo'l ostidagilariga tarqatadi. Va u o'z bilganini qiladi, kuchayib ketadi va u o'zini Yaratgandan ham ustun qo'ya boshlaydi U Yaratganga ham bo'ysunmay qo'yadi va g'azabga uchraydi: taqdir qilingan narsa ijobat bo'ladi".

Torn sigaret tutatdi, keyin stakanga vino quydi. U yuqorida ko'rgan narsasini unutishga harakat qildi. U yana kitob varaqlashga tushdi.

"Yer va dengizdagi barcha mahluqotlar, iblis g'azab bilan yirtqichni jo'natadi, zero u vaqti oz qolganini biladi. Bu yerda donolik bor. Kimning idroki bo'lsa, yirtqichning raqamini biladi; Zero bu insonlarning ham raqamidir. Uning raqami olti yuz oltmish olti". Armageddon. Qiyomat.

"... va Xaloskor keladi! va u Quddusning sharq tomonidagi Oliv tog'ida turadi! va Xaloskor barcha itoatkorlari bilan keladi".

Torn kitoblarni yopdi va stol chirog'ini o'chirdi. Ancha vaqtgacha u Injilni kim yozganligini, nega yozilganligini mushohada qilib o'tirdi. Keyin u karavotga yotdi va uxlab qoldi. Torn dahshatli tush ko'rdi. U ayollar kiyimida shovqinli ko'chada turardi. U politsiyachining yoniga kelib, adashib qolganligini va qo'rqayotganini aytdi. Ammo politsiyachi unga quloq solmay, mashinalar harakatini tartibga solib turaverdi. Mashinalar Tornning oldiga yaqinlashganida, u shamolni sezdi. Shamol kuchayib, mashinalar tezlik bilan o'ta boshladilar. U quyunda qolgandi. Jeremi politsiyachining qo'lidan tutdi, ammo politsiyachi uni sezmedi. Jeremi qichqirdi, ammo qichqirig'i quyunga singib ketdi. Kutilmaganda qora mashina Jeremi tomon kela boshladi. U joyida qotib qoldi. Mashina uning oldiga yaqinlashdi va u haydovchini ko'rdi. Uning yuzi yo'q edi. Haydovchi kula boshladi. Og'iz o'rnidan qon otilib chiqdi va mashina uning ustiga bostirib kela boshladi.

Shu payt Torn uyg'onib ketdi. Uning nafasi bo'g'ilib qolgan, o'zi esa terga botib ketgandi. Hamma uxlayotgandi. Torn o'kirib yiyolab yuborishdan o'zini zo'rg'a tiyib qoldi.

7

Torn "Meyfer" mehmonxonasida ishbilarmonlar oldida nutq so'zlashi lozim edi. U nutqi gazetalarda ham yoritilishi lozimligini yordamchilariga aytgan va ertalabki gazetalarda ushbu yig'ilish o'tkazilishi to'yorisida bildiruv berishgan edi. Odam juda ko'p kelgan, jurnalistlar ham oz emasdi. Torn yig'ilganlar orasida fotoapparatini urib sindirgan muxbirni ham ko'rdi. Suratlash unga qarab jilmaydi va yangi fotoapparatini ko'rsatdi. Torn ham unga javoban jilmaydi. U yig'ilganlar jim bo'lishini kutib turdi va shovqin pasaygach nutqini boshladi. U dunyo iqtisodiy tizimi va umumiy bozorning ahamiyati haqida so'zlardi. Har qanday jamiyatda ham bozor juda katta rol o'ynaydi. Bir tomon sotishni, ikkinchi tomon sotib olishni istasa, u holda o'zaro hamkorlikka asos paydo bo'ladi. Agar bir tomon sotib olishni istasa va ikkinchi tomon sotishdan bosh torsa, unda biz urush sari qadam tashlaymiz. Torn insoniyat haqida, hamma odamlar bir-biri bilan birodar ekanligi, yer yuzidagi boyliklar barchaga yetishi haqida so'zlardi.

- Biz hammamiz, - dedi u, - vaqt to'rida yashaymiz. Biz manmanlik va og'ir mehnatning asirimiz.

Uning nutqi yig'ilganlarni tobora o'ziga tortayotgan edi. Keyin elchi siyosiy tartibsizliklar va ularning iqtisodiy munosabatlarga ta'siri haqida gapira boshladi. Torn yig'ilganlar orasida arablarni ko'rdi va bevosita ularga murojaat qildi.

- Tartibsizliklarning qashshoqlikka qanchalik boyoliqligini bilamiz, lekin insoniyat ortiqcha to'qlikdan ham inqirozga yuz tutishi mumkin!

Torn butun vujudi bilan nutq so'zlashga kirishib ketgandi. Devor yonida turgan Jennings uni bir necha marta suratga oldi.

- Yana bir achchiq haqiqat borki, u Sulaymon podsho davriga borib taqaladi, - davom etdi Torn. - Boylik va mansab uchun tug'ilganlar...

- Bu haqda ko'p narsa bilishingiz aniq, - orqa qatordan kimdir qichqirdi.

Torn gapirishdan to'xtab, yig'ilganlarga qaradi. So'z tashlagan kishi jim bo'lib qoldi. Torn yana so'zida davom etdi:

- Misrda fir'avnlr davridayoq boylik va mansab uchun tug'ilganlar...

- Gapiravering, qani! - yana o'sha ovoz eshitildi. Bu safar yig'ilganlar jonlanishdi. Torn ovoz kelgan tomonga sinchiklab qaradi.

Yirtiq jinsi shim kiygan soqolli bir talaba uning so'zini bo'lgandi.

- Qashshoqlik haqida nima bilasiz, janob Torn? - davom etdi u. - Umringizda biror marotaba ham ter to'kib mehnat qilmagansiz-ku!

Olomon talabaga norozi tarzda guvilladi, ayrimlar qichqira boshlashdi. Torn qo'llarini ko'tarib, ularni tinchlantirishga urindi.

- Bu yigitning so'zlariga quloq solaylik-chi.

- Dunyodagi boyliklarni bo'lishmoqchi ekansiz, nega o'z boyligingizni boshqalarga berishdan boshlamaysiz? - dedi talaba baland ovozda. - Sizning necha millionlab pulingiz bor. Dunyoda qanchadan-qancha insonlar och ekanligini bilasizmi? Cho'ntagingizdagi pullar qancha odamga yetishini bilasizmi? Haydovchingiz olayotgan maosh bilan Hindistonda butun boshli oilani bir oy boqish mumkin. Sizning qirq gektarli yeringizda o'sayotgan mevalar Bangladeshning yarim aholisiga yetadi. Bolangizning tug'ilgan kuniga sarflagan pulingizga shu yerda, London janubida butun boshli kasalxona qurish mumkin. Agar siz odamlarni boylik bo'lishishga da'vat qilayotgan bo'lsangiz, o'zingiz ibrat ko'rsating! To'rt yuz dollarli kostyum kiyib olib bizning oldimizda qashshoqlik to'yorisida ma'ruza qilmang!

Talabaning bu so'zlari ommaga yoqdi. U g'alaba qozongandi. Hattoki, olqishlar ham yangradi. Yig'ilganlar Tornning qanday javob qilishini kutishardi.

- Gapirib bo'ldingizmi? - so'radi u.

- Sizning boyligingiz Rokfellerlikidan ko'pmi? - qichqirdi yigit.

- Ancha oz.

- Rokfelleri vitse-prezident etib saylashganida gazetalarda uning boyligi uch yuz million dollardan sal ko'proqligini yozishgandi.

"Sal ko'prog'i" qanchaligini bilasizmi? O'ttiz uch million dollar! Bu raqamni ular hatto hisobga ham kiritishmagan. Yer yuzi aholisining yarmi ochlikdan halok bo'layotganida, uning cho'ntagida shuncha pul tursa! Bu axir tahqirlash emasmi? Nahotki bir kishiga shuncha pul kerak bo'lsa?

- Men janob Rokfeller emasman.

- Buni ko'rib turibmiz!

- Javob berishimga ijozat eting?

- Birgina go'dak! Och qolgan birgina go'dak! Hech bo'lmasa och qolgan bitta go'dakka yordam bering! Shunda biz sizga ishonamiz! Ma'ruza o'qishning o'rniga unga yordam qo'lini cho'zing!

- Men shunday qilganman, - xotirjamlik bilan javob qildi Torn.

- Xo'sh, qani u? - so'radi talaba. - Qani o'sha go'dak? Kimni qutqargansiz, janob Torn? Kimni qutqarmoqchisiz? Agar ochlikdan qiynalayotgan birgina go'dakka yordam bera olmasangiz, siz dunyoni qutqara olmaysiz, janob Torn!

Zaldagilarning hammasi talabaning fikrini ma'qullashardi.

- Men sizni ko'rmayapman, - dedi Torn. - Qorong'ulikda turib olib, menga ayb taqayapsiz.

- Men tomonga yoruyolikni tushiringlar, undan ham qattiqroq gapiraman!

Hamma kulib yubordi, projektorlar talaba tomon qaratildi, fotograflar o'rinlaridan turishdi. Jennings ham fotoapparatini yigit tomon qaratdi.

Torn o'zini xotirjam tutardi, ammo projektorlar orqa qatorda turganlarni yoritishi bilan, uning rangi o'zgarib ketdi. U talabaga emas, uning ortida turgan kishiga qarab turardi. U yerda shlyapasini qo'lga olganicha, ruhoniylar turardi. U Tassone edi. Torn uni

tanidi va turgan joyida qotib qoldi.

- Nima bo'ldi, janob Torn? - dedi talaba. - Gapirmaysizmi?

Tornni qo'rquv hissi chulg'ab olgan, u jim turardi. Jennings uning nigohi qaratilgan tomonni bir necha marta suratga oldi.

- Gapiring, Torn! - talab qildi yigit. - Mana, meni ko'rib turibsiz. Endi nima deysiz?

- Menimcha... - boshladi Torn bo'g'iq ovoqda. - ... siz haqsiz. Men... men biror narsa qilishga urinib ko'raman.

Yigit bolalarcha kuldi. Torn o'zini bosib olishga urinar, ammo ruhoniylar turgan tarafdan ko'zini uzmasdi.

Jennings uyiga kech qaytdi va olgan suratlarini chiqara boshladi. Elchi uni yanada qiziqtirib qolgandi. Muxbir uning ko'zlaridagi qo'rquvni sezgandi. Torn yig'ilganlar orasida kimnidir ko'rgandi. Jennings qorong'u taraf olingan suratda birorta tanishni ko'rishiga umid qilardi. U qorni ochganligini his qildi va uyiga qaytishda sotib olgan qovurilgan jo'jani yeyishga kirishdi.

Zalning uzoq burchagi olingan suratlarida odamlarning yuzi aniq ko'rinmasdi, lekin har bir suratda nayzasimon tutunga o'xshagan dog' bor edi. Suratda sigara chekayotgan baqaloq kishi aks etgandi. Bu dog' o'sha sigaraning tutuni bo'lishi mumkin edi. Jennings eng tiniq suratlarini oldi va ularni kattalashtirdi. Yo'q. Bu tutun emasdi. Agar u sigaraning tutuni bo'lganda, baqaloq to'xtovsiz ravishda sigara chekishi lozim edi. Buning ustiga yig'ilganlar unga emas, boshqa tomonga qarab turishardi.

Dog' zalning orqa burchagidan ko'tarilgandi. Jennings suratni yanada kattalashtirdi va unga astoydil razm soldi. Dog' ostida ruhoniylar kiyadigan kiyim ko'rindi. Suratlash qo'llarini ko'tarib xursandligini nishonladi. Yana o'sha ruhoniylar! Uning Tornga qandaydir boyoliqlik tomoni bor edi.

- Ruhoniylar! - qichqirdi Jennings. - Yana o'sha jin urgur ruhoniylar!

U xursandligidan jo'janing bir qanotini sindirib oldi va g'ajiy ketdi.

- Men uni topaman! - haholab kuldi u.

... Ertasiga ertalab suratlash ruhoniylarning elchixonada oldida olingan suratlaridan birini olib ko'chaga chiqdi. U suratni bir necha cherkovlarga ko'rsatdi. Ammo uni hech kim tanimas ekan. Agar u shu yerlik bo'lsa, uni tanirdik, deyishdi. Ruhoniylar boshqa yerlik ekani aniq edi. Ish murakkablashdi. Jennings Skotland-Yardga keldi va jinoyatchilarning suratlarini ko'rib chiqdi. Ular ichida ruhoniylarning suratini yo'q edi. U ruhoniylarni birinchi marta elchixonadan chiqayotganida ko'rgandi. Uni o'sha yerdagilar bilishi mumkin edi.

Soqchilar uning hujjatlarini uzoq tekshirishdi, ammo ichkariga qo'yishmadi.

- Men elchi bilan ko'rishmoqchi edim, - dedi Jennings. - Janob Torn mening fotoapparatimni sindirib qo'ygan. Menga uning pulini to'lashi kerak.

Soqchilar unga qo'ng'iroq qilishdi. Keyin uni ichkariga kiritishdi. Ichkaridagi telefonda u Tornning kotibasi bilan gaplashdi.

Kotiba undan fotoapparat necha pul turishini va pulni qaysi manzilga jo'natish kerakligini so'radi.

- Buni men shaxsan o'ziga aytmoqchi edim, - dedi Jennings.

Kotiba buning iloji yo'qligini, elchi hozir zarur uchrashuvda ishtirok etishi lozimligini aytdi. Jennings tavakkal qildi.

- To'yorisini aysam, men elchi bilan shaxsiy masalada gaplashmoqchi edim. Balki, yordam berarsiz. Men bir ruhoniylarni qidirib yuribman. U mening qarindoshim. U elchixonaga kelgan ekan, balki uni bu yerda ko'rganlar uni topishda menga yordam berishar. Bu juda g'alati iltimos edi va kotiba bir oz jim bo'lib qoldi.

- U past bo'yli, - qo'shib qo'ydi Jennings.

- Italyanmi? - so'radi kotiba.

- U ancha vaqt Italiyada yurgan, - dedi Jennings hiylam ish berarmikin, degan umidda.

- Uning ismi Tassone emasmi?

- Aniq bilmayman. Men yo'qolib qolgan qarindoshimni izlayapman. Bilasizmi, onam va uning akasi yoshliklarida bir-birlarini yo'qotib qo'yishgan. Onam hozir og'ir ahvolda yotibdi. U akasini ko'rmoqchi. Biz uning bo'yi pastligini va ruhoniylar ekanligini bilamiz xolos. Bir tanishim o'tgan haftada bu yerdan qandaydir ruhoniylar chiqayotganini ko'rgan ekan. Tanishim u onamga judayam o'xshab ketishini aytgandi.

- Bu yerga bir ruhoniylar kelgan edi, - dedi kotiba. - U Rimdan kelganligini, ismi Tassone ekanligini aytgandi.

- Uning qayerda yashashini bilasizmi?

- Yo'q.

- Elchida uning gapi bor ekanmi?

- Shunaqa shekilli.

- Balki elchi uning qayerda yashashini bilar?

- Menimcha bilmaydi.

- So'rab ko'rmaysizmi?

- Mayli.

- Qachon so'raysiz?

- Keyinroq.

- Onam og'ir kasal. U kasalxonada yotibdi. Uning ahvoli og'ir. Har bir daqiqa g'animat.

Kotiba Tornga qo'ng'iroq qildi va ikki hafta oldin uning oldiga kelgan ruhoniylarning manzilini bilish-bilmasligini so'radi. Tornning eti jimirlab ketdi.

- Bu kimga kerak ekan?

- Bir kishiga. Siz uning fotoapparatini sindirib yuborgan ekansiz. U ruhoniylar qarindoshi ekanligini aytdi.

Torn bir oz jim turgach, dedi:

- Unga ayting, xonamga kirsin.

Jennings Tornning xonasini darhol topdi. Xona yo'lakning oxirida joylashgan bo'lib, yo'lakning har ikki tomonidagi devorga AQShning Londondagi barcha elchilarining portretlari osilgandi. Jon Kvinsi Adams va Jeyms Monrolarning suratlarini ko'rib, ular ham AQSh prezidenti bo'lishdan ilgari mana shu lavozimda ishlaganliklarini bilgan Jennings ajablandi. Balki, Torn ham kelajakda prezident bo'lar.

- Kiring, - deb kulimsiradi Torn suratlash muxbir eshikni ochganida. - Keling, o'tiring.

Jennings fotomuxbirlar faoliyatida o'z "qurboni"ga birinchi marta shunchalik yaqin o'tirardi. Bu yerga kirish u o'ylaganidan osonroq bo'ldi. Uning tizzasi qaltirar, yuragi tez-tez urardi.

- Fotoapparatimni sindirgan uchun sizdan uzr so'rayman, - dedi Torn.

- Hechqisi yo'q, o'zi eski edi.
- Uning pulini to'lamoqchiman.
- Yo'q, yo'q...
- Yo'q demang.

Jennings yelkasini qisdi.

- Eng yaxshi fotoapparat rusumi qaysi?
- Kerakmas.
- Eng zo'rining nomini aysangiz bo'ldi.
- Nemislarniki. "Pentafleks-300".
- Kelishdik. Kotibamga manzilingizni aytarsiz.

Torn suratlashga diqqat bilan razm soldi. Uning oyog'idagi ikki xil paypoq ham, kurtkasining yoqasidan chiqib osilib turgan iplar ham Tornning nazaridan chetda qolmadi. Jennings odamlarni hayratga soladigan holda kiyinishni yoqtirardi. U o'zining tashqi ko'rinishi bilan suhbatdoshini boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yishini bilardi.

- Men sizni yig'ilishda ko'rdim, - dedi Torn.
- O'z vaqtida kerakli joyda bo'lishga har doim harakat qilaman.
- Tirishqoq ekansiz.
- Rahmat.

Torn o'rnidan turdi, barni ochib, bir shisha brendi oldi. Jennings uning brendi quyishini kuzatib turdi va o'ziga uzatilgan qadahni oldi.

- Kecha haligi yigitga zo'r javob qildingiz, - dedi Jennings.
- Shunday deb o'ylaysizmi?
- Ha.

- Men esa yo'q.

Ular birinchi bo'lib kim gap ochishini kutib vaqtni cho'zishardi.

- Men uning fikrlariga qo'shilaman, - dedi Torn. - Endi gazetalar men haqimda istaganini yozishadi.
- Matbuotni bilasiz-ku.
- Ha.
- Axir ular ham yashashi kerak.
- To'yor.

Ular brendini maydalab ichishardi. Torn deraza oldiga keldi va tashqariga qaragancha so'radi:

- Siz qarindoshingizni izlayapsizmi?
 - Ha, janob.
 - U ruhoniy Tassonemi?
 - U ruhoniy, lekin ismini aniq bilmayman. U onamning akasi. Ular yoshliklarida bir-birlarini yo'qotib qo'yishgan.
- Torn Jenningsga qaradi va u Tornning nigohida ajablanish alomatini ko'rdi.
- Demak, siz uni yaxshi bilmaysiz? - so'radi elchi.
 - Yo'q, janob. Men uni topmoqchiman.

Torn qovog'ini uydi va stulga o'tirdi.

- So'rasam maylimi?... - so'z boshladi Jennings. - Agar u sizning oldingizga nega kelganini bilganimda edi, men...
- U bir kasalxona masalasida kelgandi. U... xayriya so'ragandi.
- Qaysi kasalxonaga?
- Rimdagi. Aniq esimda yo'q.
- U sizga manzilini aytmadimi?
- Yo'q. Buni qarang, men unga pul jo'natmoqchiman, lekin manzilini bilmayman.

Jennings bosh iring'adi:

- Demak, ikkimiz ham uni izlayapmiz ekan.
- Shunaqaga o'xshaydi, - dedi Torn.
- U shunchaki kelib-ketdimi?
- Ha.
- Uni boshqa ko'rmadingizmi?

Tornning yuzi burishdi. Jennings buni sezdi va elchi nimanidir yashirayotganini bildi.

- Qaytib ko'rmadim.
- Men o'ylovdimki... biror joyda nutq so'zlayotganingizda balki ko'rgandirsiz?

Ularning nigohlari to'qnashdi va Torn Jennings u bilan qandaydir o'yin o'ynayotganini sezdi.

- Ismingiz nima? - so'radi u.
- Jennings. Gaber Jennings.
- Janob Jennings...
- Gaber.

- Gaber. - Torn uning yuziga uzoq tikildi, keyin ko'zlarini oyna tomon qadadi. - Men o'sha kishini topishim zarur. O'sha ruhoniyni. Men unga qo'pollik qildim. Undan uzr so'ramoqchiman.

- Nima uchun?
- Men unga ortiqcha qo'pollik qildim. hattoki, uning gapini oxirigacha eshitmadim.
- U bunga o'rganib qolgan bo'lsa kerak. Xayriya so'ragan paytda...
- Uni topishim shart. Bu men uchun juda muhim.

Tornga qarab uning gaplari to'yoriligini bilish qiyin emasdi. Jennings to'yor yo'ldan ketayotganini bildi, ammo bu yo'l uni qayoqqa olib borishini bilmasdi.

- Agar uni topsam, sizga xabar beraman, - dedi u.
- Yaxshi bo'lardi.

Torn bosh silkidi. Jennings o'rnidan turib, uning qo'lini siqib qo'ydi.

- Siz nimadandir hayajonlanyapsizmi, janob elchi? Umid qilamanki, dunyo portlab ketmas.

- Yo'q, - jilmaydi Torn.

- Men sizning muxlisingizman. Shuning uchun doim sizni kuzatib yuraman.

- Rahmat.

Jennings eshik tomon yurdi, ammo Torn uni to'xtatdi.

- Janob Jennings?

- Ha, janob?

- Men bir narsani bilmoqchi edim. Siz o'sha ruhoniyni hech ko'rganmisiz?

- Yo'q.

- Siz u mening ma'ruzamda qatnashganini so'radingiz-a? Balki u...

- Nima?

- Yo'q, yo'q. Ahamiyati yo'q.

- Oilaviy suratingizni olib qo'yaymi? - so'radi kutilmaganda Jennings.

- Hozir vaqti emas.

- Balki bir necha kundan so'ng sizga qo'ng'iroq qilarkan?

- Mayli.

- Bo'пти, qo'ng'iroq qilaman.

Muxbir xonani tark etdi. Torn uni diqqat bilan kuzatdi. Bu kishi nimanidir biladi, lekin ruhoniy haqida nima bilarkin? Tasodifan tanishib qolgan bu muxbir nima uchun kechayu kunduz uni kuzatib yurgan ruhoniyni izlayapti? Torn uzoq o'ylandi, lekin savollariga javob topolmadi. Keyingi paytdagi voqealar singari bu ham uning uchun bir tasodifdek tuyuldi.

8

Edgaro Emilio Tassone uchun bu dunyodagi hayot do'zaxdagidan ham battar edi. Shuning uchun u boshqalar singari Rimdagi shaytonparastlar jamiyatiga a'zo bo'lgandi. Tassone portugaliyalik baliqchining o'yoli bo'lib, otasi Nyufaundlend qirg'oqlarida baliq ovlayotib halok bo'lgandi. Bolalik xotiralaridan uning yodida faqat baliq hidi qolgan edi. Tassone sakkiz yoshida yetim qolib, ibodatxonada yashar, bu yerda ruhoniylar uni barcha gunohlariga iqrar bo'lishi uchun o'lasi qilib kaltaklashardi. O'nga kirganida u gunohlaridan forig' bo'lgan va Yaratganga xizmat qilishga tayyor bo'lgandi, ammo uning umurtqa pog'onasi oyoriy boshladi.

Xudodan qo'rqqanidan u hayotini cherkovga bag'ishladi, kechayu kunduz Injilni yodlab sakkiz yil seminariyada tahsil oldi, Yaratganning rahmati va g'azabi haqida o'qidi. Yigirma beshga kirganida u odamlarni do'zax o'tidan qutqarishga otlandi. U missioner sifatida dastlab Ispaniyaga, so'ng Marokashga bordi. Keyin Marokashdan Afrikaning janubi-sharqiga yo'l oldi. Bu yerda u dinsiz qabilani uchratib qoldi va ularni dinga kiritishga urindi. Tassone bechoralarni kaltaklay boshladi. U tez orada ularning azoblanishidan rohat olayotganini tushundi. Uni o'lim ta'qib qila boshladi. Nayrobida u ruhoniy Spilletto ota bilan tanishib qoldi va unga barcha qilgan gunohlarini aytib tavba qildi. Spilletto uni himoya qilishga va'da berdi va o'zi bilan Rimga olib ketdi. Aynan mana shu yerda, Rimda, u Do'zahiylar oqimi bilan tanishdi. Shaytonga sig'inuvchilar Xudoning qahridan qo'rquvchilarga panoh berishardi. Ular bir-birlari bilan yaqinlik qilib lazzatlanardilar. Tassone ham o'ziga yoqqanlarga o'z tanini in'om etardi.

Bu guruh uyushgan tuban insonlar bo'lib, ular birgalikda boshqa insonlarga qarshi kurashardilar.

Ular Shaytonni Xudo deb bilishardi. Ana shu paytlarda Injilda yozilgan davr, Yer yuzidagi yangi davr boshlanishidan darak beruvchi alomatlar sezila boshladi. Sayyora paydo bo'lganidan buyon uchinchi marotaba La'in o'z zurriyodini yerga jo'natishi va uni yerdagi shogirdlari tarbiyasiga topshirishi lozim edi. Bunday urinish ikki marta bo'lgan, lekin har ikkisida ham Xudoga imon keltirganlar Iblis farzandini go'dakligidayoq yo'q qilishgandi. Bu safar mayolubiyatga yo'l qo'yilmasligi lozim edi. Reja ikir-chikirigacha puxta ishlab chiqilgandi.

Spilletto Tassoneni bejizga tanlab olmagan edi. Pastak bo'lyli bu ruhoniy itdek sadoqatli bo'lib, har bir buyruqni so'zsiz, itoatkorlik bilan bajarardi. Shuning uchun uning chekiga rejaning eng mudhish qismi - gunohsiz go'dakni o'ldirish tushgandi. Spilletto iblisvachchani boqib oladigan oilani topishi lozim edi. Mariya-Tereza ona (uni ilgari Baalok deb atashardi) homilador onani kuzatib turishi va unga doyalik qilishi kerak edi. Tassone birorta ham iz qoldirmasligi, jasadlarni qabristonga ko'mishi lozim edi. Tassone o'z ishiga xursandlik bilan kirishdi. Bir paytlar xo'rlangan yetimchani endi hamma biladi. U Tanlanganlar safida, u Shaytonning o'zi bilan ittifoqchi! Ammo rejani amalga oshirishdan bir necha kun ilgari Tassoneda g'alati hislar paydo bo'ldi. U zaiflashib qoldi. Eski kasali yana qo'zidi. U har tunda uxlashga urinar, tanasidagi oyoriy kuchayib borardi. U besh kun davomida ko'z oldida paydo bo'ladigan manzarani quvishga harakat qildi. Tassone uxlatadigan dorilar ichdi, ammo uning tushiga ham o'sha dahshatli manzaralar kira boshladi.

U tushida yordam so'rayotgan afrikalik go'dak Tobuni ko'rdi. Uning terisi shilib olingan, ko'zlari Tassonega tikilib turar, yuz tomirlari otilib chiqqandi. Tassone yoshlik davrini ko'rdi. U qirg'oqda otasining ovdan qaytishini kutardi. Keyin u o'lim to'shagida yotgan onasini ko'rdi. Onasi uni taqdir bilan yuzma-yuz, yolg'iz tashlab ketayotgani uchun undan uzr so'rardi. U shu kecha ko'zlarida yosh bilan uyg'onib ketdi. Uyqu uni yana og'ushiga olganida, tushiga Iso Masih kirdi. Iso Tassonega Xudoning dargohiga boradigan yo'l hali yopilmaganini, agar tavba qilsa, Tangri uni kechirishini aytdi.

Bu dahshatlar Tassonega shunchalik ta'sir qildiki, buni Spilletto sezdi. U nima bo'lganini bilish uchun Tassoneni yoniga chaqirdi. Ammo Tassone endi ortga yo'l yo'qligini bilar, agar ikkilanayotganini sezdirib qo'ysa, hayoti xavf ostida qolishini tushunardi. U eski kasali qiynayotganini aytdi va Spilletto unga oyoriy qoldiruvchi dori berdi. So'nggi daqiqalargacha Tassone giyohvandlik moddalarini ta'sirida yurdi va uni Isoning qiyofasi ortiq ta'qib qilmay qo'ydi.

Oltinchi iyun ham keldi. Oltinchi oy, oltinchi kun, soat roppa-rosa olti edi. Shu daqiqalarda Tassoneni keyinchalik bir umr qiynaydigan voqealar sodir bo'ldi. Iblisning onasini to'lg'oq tutdi. Bola tug'ildi. Tassone Spilletto bergan tosh bilan onaning boshiga urib uni o'ldirdi. Tassone endi yana bir chaqaloqni ham ana shu usulda o'ldirishi kerak edi. Ammo unga endigina dunyo yuzini ko'rgan chaqaloqni olib kelishganida, u ikkilanib qoldi, chunki go'dak juda chiroyli edi. U yonma-yon yotgan chaqaloqlarga qaradi: ularning biri qalin tuk bilan qoplangan, hammayog'i qon, ikkinchisi esa chiroyli bo'lib, uning ko'zlari Tassonega ishonch bilan boqardi. Tassone nima qilish lozimligini bilardi va uni amalga oshirdi. Lekin urinishi muvaffaqiyatsiz chiqdi. Bir necha lahza Tassone bolani olib, xavfsiz joyga qochishni ham o'yladi. Ammo chaqaloqning yashab ketishiga umid qolmagandi. U

bolaning boshiga tosh bilan yana va yana urdi. Chaqaloqning yig'isi o'chdi.

O'sha tunda Tassonening yonoqlaridan sel bo'lib oqayotgan yoshlarni hech kim ko'rmadi. Bundan tashqari, shu tundan so'ng uni hech kim oqim a'zolari orasida qaytib ko'rmadi. Erta tongda u Rimni tark etdi va to'rt yil davomida xilvatda yashadi. U Belgiyaga ketib, o'sha yerda daydilar orasida kun kechirdi, keyin kasalxonaga ishga joylashdi. Bu yerda u giyohvandlik moddalarini topish imkoniyatiga ega bo'ldi. Narkotiklar unga nafaqat tanasidagi oyoriqni, balki o'sha tundagi dahshatli voqealarni unutish uchun ham kerak edi. Tassonening holi qurib borardi. U kasalxonada tekshiruvdan o'tdi. Uning umurtqasidagi oyoriq dahshatli shishning ta'siridan edi. Shishni jarrohlik yo'li bilan olib tashlashning iloji yo'q edi. Tassone o'limga mahkum etilgan va Yaratganning uni kechirishini istardi.

Bor kuchini yig'ib, u Isroilga yo'l oldi. Unga Bugengagen ismli kishi kerak edi. Bu ism yer yuzida hayot boshlanganidan buyon Shayton nomi bilan birga tilga olinardi. Aynan Bugengagen 1092 yilda Shaytonning birinchi bolasini izlab topgan va uni o'ldirish chorasini kashf qilgandi. 1710 yilda yana bir Bugengagen La'inning ikkinchi bolasini izlab topgan va uning hayotiga nuqta qo'ygandi. Ular Xudo yo'lida kurashuvchi qo'riqchilar edilar. Ularning vazifasi yer yuzida Shaytonning hokim bo'lishiga yo'l qo'ymaslik edi.

Tassone yer ostidagi uyda yashovchi Bugengagenlarning oxirgi avlodini topishi uchun yetti oy ketdi. Bu yerda u ham Tassone kabi o'limini kutib yotar, o'z vazifasini uddalay olmaganidan azob chekardi. U vaqt oz qolganini bilar, ammo Shaytonning farzandi tug'ilishiga to'sqinlik qilolmagandi.

Tassone qariyani topdi va unga shaytonvachchaning dunyoga kelishi haqidagi barcha narsani aytdi. Bugengagen uni afsus bilan tingladi. U yer ostidagi uydan chiqa olmasdi. O'sha bolani boqib olgan kishi uning oldiga kelishi kerak edi. Vaqtni boy berishdan qo'rqqan Tassone Tornni topish va unga Bugengagen bilan uchrashishi lozimligini aytish uchun zudlik bilan Londonga keldi. U bir xonali uyni ijaraga oldi va uni cherkovga o'xshatib tashladi. Xonaning butun devor va derazalariga Injil sahifalarini yopishtirib chiqdi. Buning uchun unga yetmishta Injil kitobi kerak bo'ldi. Hammayoqqa xoch osib tashlangan, deraza oldidagi xochlardan biriga quyosh nuri tushmaguncha tashqariga chiqmasdi. Tanasidagi oyoriq kuchayib borar, Torn bilan birinchi uchrashuvi muvaffaqiyatsiz yakun topgandi. Endi Tassone elchini doim kuzatib yurardi. Bugun ertalabdan beri u Chelsi rayonida kambag'allarga uy qurish uchun mablag' beradigan shaxslar guruhida bo'lgan Tornni kuzatayotgan edi.

...Ushbu loyihani boshlaganimizdan baxtiyorman...- dedi Torn, yig'ilganlarga murojaat qilarkan, - ... bu jamiyatning turmush darajasini yaxshilashga bo'lgan intilishi natijasidir.

Shu so'zlarni aytib, u birinchi bo'lib belkurak bilan yerni chopdi. Akkordeonchilar ansambli musiqa chalishni boshlab yubordi va Torn panjaraning narigi tarafida ushbu marosimni tomosha qilayotganlarning qo'llarini siqish uchun yo'l oldi. U uzatilgan har bir qo'lni siqishga urinardi.

Kutilmaganda u qaltirab ketdi: kimningdir qo'li uning yoqasidan mahkam tutib, panjara tomon tortdi.

- Ertaga, - dedi Tassone qo'rqib ketgan Tornning yuziga tikilib. - Tush paytida Kyu-Gardenda uchrashamiz.

- Qo'yvoring! - dedi Torn.

- Bor -yo'g'i besh daqiqa xolos. Keyin meni qaytib ko'rmaysiz.

- Qo'lingizni oling...

- Xotiningizning hayoti xavf ostida. Agar kelmasangiz, u o'ladi.

Torn uning qo'llaridan yulqinib chiqdi va ruhoniylar shu zahoti g'oyib bo'ldi.

Torn nima qilish kerakligi haqida uzoq o'yladi. U politsiyaga aytishi mumkin edi, lekin ruhoniylar nima deb ayb qo'yishni bilmadi. Uni so'roq qila boshlashadi, bu ish omma e'tiboriga tushadi. Yo'q, bu yo'l to'yori kelmaydi. Hech bo'lmaganda, hozircha. Torn ruhoniylar nima demoqchi bo'layotganini tushunmadi. U bolaning tug'ilishi haqida nimadir degandi: eng dahshatli o'xshashlik shunda ediki, Torn aynan mana shu masalada sir saqlab kelayotgandi. Balki, o'rniga boshqa kishini jo'natar. U ruhoniylar pul beradi yoki uni qo'rqitib, qaytib kelmaydigan qilib qo'yadi. Ammo bunda ham kimdir uning sirini bilib qolishi mumkin edi.

U suratlash Jenningsni esladi va u izlab yurgan kishi topilganini unga xabar qilmoqchi bo'ldi. Ammo bu yo'l ham maqbul emasdi. Matbuot xodimini bunday ishga aralashtirish aqlli odamning ishi emas. Baribir u o'z dardini kimgadir aytgisi keldi. U ruhoniylarning NIMAnidir aytishidan qo'rqardi.

Ertasiga ertalab Torn mashinasiga o'tirdi va Gortonga bir oz aylanib kelishini aytdi. U tushgacha ishxonasiga bormay, mashina minib yurdi. Uning miyasiga ruhoniylar talabini rad etish fikri ham keldi. Lekin Tornning o'zi ham u bilan uchrashishni istayotgandi. U ruhoniylar bilan yuzma-yuz gaplashishi va uning barcha so'zlarini tinglashi shart. Ruhoniylar Katerinaning hayoti xavf ostida ekanligini, agar Torn kelmasa, u o'lishini aytgandi. Katerina xavf ostida emasdi, ammo Torn juda xavotirlanar, endi ruhoniylar uchun Katerina asosiy shaxslardan biriga aylandi.

Torn uchrashuv joyiga o'n ikki yarimda keldi va sabrsizlik bilan kuta boshladi.

Roppa-rosa birda Torn mashinadan tushdi va park ichiga yo'l oldi. Birov tanib qolmasligi uchun u plash va qora ko'zoynak taqib oldi, ammo bu urinishi uning hayajonini yanada kuchaytirib yubordi. Torn ruhoniylar izlay boshladi. Tassone unga orqasini o'girganicha o'rindiqlardan birida o'tirardi. Torn unga bildirmasdan qaytib ketishi ham mumkin edi, ammo buning o'rniga u oldinga yurdi va ruhoniylar yaqinlashdi.

Tassone Tornning kutilmaganda paydo bo'lganidan cho'chib ketdi. Uning yuzi burishdi, xuddi chidab bo'lmas oyoriqni his qilayotgandek peshonasi tirishdi. Ular ancha vaqt jim o'tirishdi.

- Bu yerga politsiyani boshlab kelishim kerak edi, - gap boshladi Torn.

- Ular sizga yordam berisholmaydi.

- Gapiring. Nima demoqchi edingiz?

Tassone ko'zlarini yumib-ochdi, uning qo'llari qaltirardi. U kuchli hayajon ostida edi.

- U Sionga kelganida... - pichirladi u.

- Nima?

- U Sionga kelganida. Samo kometani yo'llaydi. Va Rim yuksaladi. Biz... ziyoni qaytib ko'rmaymiz.

Tornning yuragi hapriqdi. Bu odam butunlay aqldan ozgan!

Uning qiyofasi hech nimani anglatmas, she'r o'qirdi.

- Abadiy dengiz tubidan yirtqich chiqib keladi. Va so'nggi qoni qolguncha jang qilish uchun lashkar keladi. Aka o'z ukasini o'ldiradi va qilichini oxirgi insonning yuragi urishdan to'xtamaguncha tashlamaydi.

Torn ruhoniylar kuzatib turar, ruhoniylar esa qiynalib so'zlardi.

- Kashfiyotlar Kitobida bularning barchasi yozilgan! - qichqirdi u nihoyat.
- Men bu yerga diniy ma'ruza tinglagani kelganim yo'q, - dedi Torn.
- Faqat to'laligicha o'z qo'li ostida bo'lgan odam orqaligina Shayton o'zining so'nggi va dahshatli hujumini amalga oshiradi.
- Siz xotinimning xavf ostida ekanligini aytuvdingiz.
- Megiddo shahriga boring, - dedi Tassone. - Jezril shahrida qariya Bugengagenni topasiz. Faqat ugina Shaytonning o'yolini qanday qilib o'ldirish mumkinligini aytadi.
- Bilasizmi...
- Aks holda yirtqich g'ajib tashlaydi!
- Bas qiling!!!

Tassone jim bo'ldi va qaltiroq qo'llari bilan peshonasidagi terni artdi.

- Xotinimning hayoti xavf ostida ekanligini aytganingiz uchun bu yerga keldim, - dedi Torn.
- Mening ko'zimga ko'rindi, janob Torn.
- Siz aytuvdingizki...
- U homilador!

Torn jim bo'lib qoldi.

- Adashyapsiz.
- Yo'q. U rostdan ham homilador.
- Bunday bo'lishi mumkin emas.
- U bolaning tug'ilishiga yo'l qo'ymaydi. Bola onasining qornida ekanligidayoq uni o'ldiradi.

Ruhoniy oyoriqdan ingrab yubordi.

- Nimalar deyapsiz? - dedi Torn. Uning nafas olishi qiyinlashib ketgandi.
- Sizing o'yolingiz, janob Torn! U SHAYTONNING BOLASI! U tug'ilajak go'dakni o'ldiradi, keyin esa xotiningizni ham o'ldiradi! Butun boyligingiz unga o'tishiga ishonchi komil bo'lgach, janob Torn, u SIZni ham o'ldiradi!
- Bo'ldi qiling!
- Sizing boyligingiz va hokimiyatga ega bo'lgach, u Shaytonning buyrug'i bilan yer yuzida o'zining dahshatli saltanatiga asos soladi.
- Siz telba ekansiz, - xirilladi Torn.
- U o'lishi ShART, janob Torn!
- Besh daqiqaga degan edingiz...
- Megiddo shahriga boring, - o'tindi Tassone. - Kech bo'lmasdan turib Bugengagenni toping!

Torn bosh chayqadi va qo'lini bigiz qildi.

- Gaplaringizga quloq solib turdim, - dedi u tahdid bilan, - endi meni eshiting. Agar sizni yana bir marta ko'rsam, sizni qamataman.

Torn keskin o'girilib jo'nab qoldi. Tassone unga yig'i aralash qichqirdi:

- Do'zaxda uchrashamiz, janob Torn! Ikkalamiz ham u yerda jazomizni olamiz!

Torn ketdi, Tassone esa yolg'iz o'zi qoldi. Hammasi tugadi, u yutqazdi. Ruhoniy asta o'rnidan turdi va kimsasiz parkka nazar tashladi. Atrofnı dahshatli sukunat qoplagandi. Shu payt Tassonening qulog'iga qandaydir tovush chalindi. Tovush uzoqdan kelardi. Bir zumda bu tovush butun atrofnı tutib ketdi. Uning qulog'i batangga keldi. Tassone xochni mahkam ushlaganicha, parkni xavotir bilan kuzata boshladi. Osmonda bulutlar quyuqlashib borar, shamol tobora kuchayib daraxtlarnı silkitardi.

Tassone xochni ikki qo'llab ushlaganicha xavfsizroq joy izlab ko'chaga chiqdi. Ammo kutilmaganda shamol kuchaydi, yerda yotgan qog'oz va boshqa mayda-chuyda narsalar uchib ketdi. Ruhoniyning yuziga kuchli shamol epkini urildi. Ko'chaning narigi tarafida cherkov ko'rindi. Tassone oldinga intildi. Chang-to'zon uning ko'ziga urilib, yo'lnı yaxshiroq ko'rishga imkon bermasdi. U o'zidan bir necha qadam nariga yuk mashinasi kelib to'xtaganini sezmedi. Mashina yo'l chetiga urildi. Oynaning singani eshitildi. Birdan shamol to'xtadi va odamlar qichqirganicha Tassonening yonidan o'tishib, yuk mashinasi tomon chopishdi. Haydovchining tanasi rulga suyanib turar, mashinaning old oynasi qonga belangandi. Tassone ko'cha o'rtasida turganicha qo'rqqanidan yiyolardi. Osmonda momaqaldiroq gumburlab, chaqmoq chaqdi. Tassone yana parkka qarab qochdi. Dahshatdan ho'ngrar ekan, u toyib yiqildi. Tassone o'rnidan turayotganida, yashin uning narirog'idagi o'rindiqqa urilib, uni bir zumda kulga aylantirdi. Ruhoniy butalarnı yorib o'tib, ko'chaga chiqdi. U osmonga tikilganicha, qadam tashlardi. Yomg'ir tobora kuchayib borardi. Butun Londondagilar pana joy izlab u yoqdan-bu yoqqa yugurishar, derazalarnı yopishardi. Parkdan olti kvartal naridagi maktab o'qituvchisi esa qo'lidagi uzun temir bilan sinf derazasini yopishga urinar, o'quvchilar uni kuzatib turishardi.

U ruhoniy Tassone haqida umuman eshitmagan, taqdir uni ruhoniy bilan boyolashini ham bilmasdi. Bu vaqtda Tassone sirpanchıq va nam ko'chada yugurganicha maktab tomon kelardi. U tor ko'chalarda maqsadsiz yugurardi. Uning kuchi qolmagan, yuragi gursillab urardi. U binoni aylanib o'tdi va nafas rostlash uchun to'xtadi. U yuqoriga qarashni xayoliga ham keltirmasdi. Uchinchi qavatda, uning naq tepasida derazani yopishga urinayotgan ayolning qo'lidan temir kaltak sirg'anib tushib ketdi. Temir yuqoridan tik holatda, to'yori ruhoniyning boshiga tushib, uning tanasini teshib o'tdi va yerga mixlab qo'ydi.

Shu lahzada yomg'ir to'xtadi. Derazadan pastga qaragan o'qituvchi qichqirib yubordi. Parkning narigi tomonida esa odamlar peshonasida qon izi qotib qolgan haydovchining jasadini olib kelishardi.

Bulut tarqab, quyosh yuz ko'rsata boshladi. Boshiga temir sanchilgan Tassonening atrofiga bir to'p bolalar yig'ilishdi. Uning shlyapasidan yomg'ir tomchilari yuziga tushardi. Tassonening og'zi katta ochilgan edi.

Ertalab Gorton pochta qutisidan gazetalarnı oldi va Katerina bilan Torn nonushta qilib o'tirishgan xonaga olib kirdi. Gorton xonadan chiqib ketayotib Torn xonim charchagan va asabiy ko'rinishda ekanligini sezdi. U dastlab xonimning biror joyi oyorisa kerak deb o'yladi, ammo bir kuni kasalxona peshtoqidagi yozuvdan uning shifokori Griyer ruhiy xastalarnı davolovchi ekanligini bildi.

Katerina shifokorga qatnay boshlaganidan buyon kayfiyati tobora yomonlashar, endi u doimo asabiy holatda yurardi. Uning munosabati xizmatkorlarga qo'pollik bilan buyruqlar berishida namoyon bo'lar, bolasiga esa umuman onalik mehri yo'q edi. Eng dahshatlisi, endi o'yoli unga yaqinlashishga intilardi. Uning uzoq vaqt farzandi mehrini qozonish uchun qilgan harakatlari bejiz ketmagandi. Ammo Demen onasiga talpinsada, onasi unga mehsiz bo'lib qolgandi.

Katerina o'ziga nimalar bo'layotganini tushunmasdi. U ilgari kim bo'lganligini, orzu-istaklarini eslar, bularning hammasi o'tib

ketgan, kelajagini esa ko'rmasdi. Har bir mayda-chuyda uni qo'rquvga solardi: telefon qo'ng'irog'i, qaynayotgan suvning ovozi ham uni sarosimaga tushirardi... Go'yoki butun atrof uning diqqat-e'tiborida edi. U bilan gaplashish qiyin edi. U bugun eri bilan gaplashib olmoqchi edi, lekin Demen ularga halaqit berardi. Ertalabdan o'q unasining e'tiborini tortish uchun uning atrofida aylanardi. Demen kichkinagina mashinasini minib, uyni boshiga ko'tarib shovqin solardi.

- Beylok xonim!!! - qichqirdi Katerina.

Xotining ro'parasida o'tirgan Torn uning ovozidagi g'azabni ko'rib ajablandi.

- Biror narsa bo'ldimi? - so'radi u.

- Demenning shovqiniga chiday olmayapman.

- Unchalik shovqin solayotgani yo'q-ku.

- Beylok xonim! - qichqirdi u yana.

- Eshitaman, xonim?

- Uni bu yerdan olib chiqib keting, - buyurdi Katerina.

- O'ynayversin, - qarshilik bildirdi Torn.

- Olib chiqib keting deyaapman!

- Xo'p bo'ladi, xonim, - dedi Beylok.

U Demenni ko'tarib, xonadan olib chiqib ketdi. Bola onasiga tikilib turar, uning ko'zlari g'amgin edi. Buni sezgan Torn shahd bilan Katerinaga qaradi. Katerina esa uning nigohidan ko'zlarini olib qochib, ovqat yeyishga kirishdi.

- Biz nima uchun farzandli bo'lishni istagandik, Katerina?

- Hayot tarzimiz... - javob berdi u.

- ... Nima?

- Farzandsiz qanday yashay olardik, Jeremi? Sen chiroyli oilada chiroyli farzand bo'lmasligini eshitganmisan?

Torn javob bera olmasdi.

- Katerina...

- Shunday emasmi? Biz faqat farzand tarbiyalash nima ekanligini o'ylamaganmiz xolos. Biz gazetalarda suratimiz chiqsa, qanday chiroyli bo'lishini hisobga olgandik xolos.

Torn unga ajablanib qarab turardi.

- To'yorimi?

- Bu haqda shifokor bilan gaplashdingmi?

- Ha.

- Unda men ham u bilan uchrashishim kerak.

- Ha, u sen bilan uchrashmoqchi edi.

U oshkora va sovuq ohangda gapirardi. Torn hozir uning bir gapni aytishidan qo'rqib ketdi.

- U nega men bilan uchrashmoqchi? - so'radi u.

- Bir muammo paydo bo'ldi, Jeremi, - dedi u.

- ...Xo'sh?

- Men endi farzand ko'rmoqchi emasman. Hech qachon.

Torn unga diqqat bilan qaradi.

- Maylimi?

- Agar shuni istayotgan bo'lsang... - javob berdi u.

- Unda bolani oldirib tashlashimga ruxsat berasan.

Torn qotib qoldi.

- Men homiladorman. Buni kecha bildim.

Oraga jimlik cho'kdi. Tornning boshi aylana boshladi.

- Meni eshityapsanmi? - so'radi Katerina.

- Qanaqasiga? - pichirladi Torn.

- Spiralimning foydasi bo'lmapti.

- Homiladorman degin?

- Yaqindan beri.

Tornning rangi oqarib ketdi. U stolga suyandi, uning qo'llari qaltirardi.

- Bu haqda birortasiga aytgan edingmi?

- Faqat shifokor Griyerga.

- Aniqmi?

- Ortiq bola ko'rishni istamayotganim haqidami?

- Homiladorliging haqida.

- Ha.

Telefon jiringladi va Torn darhol go'shakni ko'tardi.

- Eshitaman? - U ovozni tanimay jim turib qoldi. - Ha, menman. - Keyin ajablangan tarzda Katerinaga qaradi. - Nima? Kimsiz?

Allo, allo!

Go'shakdan qisqa gudok tovushlari kelardi. Torn qimirlamas, uning ko'zlarida xavotir uyg'ongandi.

- Nima bo'ldi? - so'radi Katerina.

- Gazeta...

- Qanaqa gazeta?

- Kimdir qo'ng'iroq qilib "bugungi gazetalarni o'qing" dedi.

U bukloyoliq yotgan gazetani olib, sekin ochdi va birinchi sahifadagi suratni ko'rib baqrayib qoldi.

- Nima bor ekan? - so'radi Katerina. - Nima bo'пти? - U Tornning qo'lidagi gazetani olib suratga ko'z tashladi. Bu temir kaltak bilan yerga mixlanib qolgan ruhoniyning surati edi. Surat ostida "Ruhoniyning o'limida tasodif aybdor" degan sarlavha bor edi.

Katerina eriga qarab uning qaltirayotganini ko'rdi. U Tornning qo'lidan tutdi. Uning qo'llari muzdek edi.

- Jerri...

Torn asta o'rnidan turdi.

- Uni tanirmiding? - so'radi Katerina.

Ammo u javob bermadi. Katerina suratga qaradi va voqea qanday yuz berganini o'qir ekan, Tornning mashinasi hovlidan chiqib ketayotganini eshitdi. Maqolada shunday so'zlar bor edi: "Bishops Industrial skul maktabining o'qituvchisi Jeyms Akryuin xonim uchun kun odatdagidek boshlandi. Juma kuni, yomg'ir yog'a boshlaganida u dars o'tayotgandi. Sinf xonasiga yomg'ir kirmasada, o'qituvchi shovqin eshutilmasligi uchun derazani yopmoqchi bo'ldi. U ilgari ham derazaning balandda joylashgani, uni yopishga qiynalishidan arz qilgandi. U derazani doim uzun temir qoziq bilan yopardi. Bu safar ham u temirni uzatayotganida yomg'irdan qochib panada turgan ruhoniyning boshiga tushib, uni yerga qadab qo'ydi. Jasadning shaxsi aniqlanmoqda".

Katerina hech narsani tushunmasdi. U Tornning ishxonasiga qo'ng'iroq qilib, ishga kelishi bilanoq unga qo'ng'iroq qilishi kerakligini aytdi. Keyin u Griyerga qo'ng'iroq qildi. U ham yo'q edi. Keyin u abort masalasida gaplashish uchun shifoxonaga qo'ng'iroq qildi.

9

Ruhoniyning suratini ko'rgach, Torn Londonga jo'nadi. U yo'l-yo'lakay bu voqeani o'ylab ketdi. Katerina homilador EDI, ruhoni haq bo'lib chiqdi. Endi Torn Tassonening qolgan so'zlarini ham inkor eta olmasdi. U parkdagi uchrashuvni esladi: ismlar, Tassonening iltimosiga binoan borishi kerak bo'lgan joy nomi. U o'zini bosishga urindi, hozirgina bo'lib o'tgan voqealarni bir-bir yodga oldi: Katerina bilan suhbat, noma'lum kishining qo'ng'irog'i. "Bugungi gazetalarni o'qing", - degandi tanish ovoz, ammo Torn uning kimligini eslay olmadi. Uning ruhoniylar bilan aloqadorligini kim bilardi? Suratlash! Bu uning ovozi edi! Gaber Jennings!

Ishxonasiga kelib, Torn xonani ichidan qulflab oldi. U kotibasiga Jenningsga qo'ng'iroq qilishni buyurdi. Jennings uyida yo'q edi. Kotiba unga bu haqda aytgach, Katerina ertalab qo'ng'iroq qilganligini ham aytdi. Torn unga keyinroq sim qoqmoqchi bo'ldi. Katerina u bilan abort masalasida gaplashmoqchi edi, Torn esa unga aniq javob berishga tayyor emasdi.

"U bolaning tug'ilishiga yo'l qo'ymaydi", - Torn ruhoniyning so'zlarini esladi. - "Bola onasining qornida ekanligidayoq uni o'ldiradi".

Torn Charlz Griyerga qo'ng'iroq qilib, u bilan uchrashmoqchi ekanligini aytdi.

...Tornning tashrifi Griyerni ajablantirmadi. Katerinaning tashvish va azoblarining cheki yo'q edi. Ayoldagi qo'rquv hissi ortib borar, shifokor u o'z joniga qasd qilishidan qo'rqardi.

- Bu qo'rquvlar qachongacha davom etishini oldindan bilish qiyin, - dedi u Torn. - Ammo rostini aytganda, u o'ta kuchli ruhiy holatga tushishi mumkin.

Torn kursida o'tirar, yosh ruhshunos esa trubkasini tutatganicha xonaning u yog'idan bu yog'iga yurardi.

- Uning ahvoli yomonmi? - so'radi Torn qaltiroq ovozda.

- Deylik, kasallik kuchaymoqda.

- Unga yordam bera olasizmi?

- Men uni haftada ikki marta tekshiryapman, u bu yerga tez-tez kelib turishi kerak.

- Siz uni aqldan ozgan demoqchimisiz?

- U o'z xayoliy dunyosida yashaydi. Uning xayollari juda qo'rqinchli va bu xayollarning unga ta'siri kuchli.

- Qanaqa xayollar? - so'radi Torn.

Griyer aytishni ham, aytmaslikni ham bilmay bir oz o'ylanib turdi. U stulga o'tirdi va Tornga tik boqdi.

- Birinchidan, u bola o'ziniki emas deb o'ylaydi.

Bu so'zlar Tornga xuddi yashin urgandek ta'sir qildi. U nima deyishni bilmasdi.

- To'yorisini aysam, men bunga qo'rquv emas, xohish deb qarayman. U befarzand bo'lishni istaydi. Men buni shunday izohlayman.

Torn gangigancha jim o'tirardi.

- To'yori, farzand uning uchun ahamiyat kasb etmaydi, demoqchimasman, - davom etdi Griyer. - Aksincha, u xotiningiz uchun dunyodagi eng muhim va yagona narsa! Lekin u o'sha bola uning uchun xavfli deb fikrlaydi. Undagi bu qo'rquv qayoqdan paydo bo'lganligini bilmayman.

- Axir farzandli bo'lishni uning o'zi istagandi, - dedi nihoyat Torn.

- Sizni deb.

- Yo'q...

- Shunaqa. U sizga munosib ekanligini isbotlamoqchi bo'lgan. Isbotlashning eng yaxshi yo'li esa farzand ko'rish.

Torn to'yoriga tikilib turardi.

- Endi esa, u haqiqiy hayotga moslasha olmayapti, - so'zida davom etdi Griyer. - Va buning sababini topishga harakat qilyapti. U farzandi o'ziniki emasligini, uning yovuz ekanligini aytyapti...

- ... Nima?

- Xotiningiz uni yaxshi ko'ra olmasligini aytdi, - tushuntirdi Griyer.

- Katerina bolani yovuz deb o'ylayaptimi?

Torn hayajonlanib ketgan, uning ko'zlarida qo'rquv bor edi.

- Ha.

- Nima uchun?

- U farzand o'ziniki emas deb o'ylagani kabi bu ham xayolot xolos.

Tornning nafas olishi qiynlashdi, uning tomog'iga nimadir tiqilib qolgandi.

- Tashvishlanmang, - dedi Griyer unga tasalli berib.

- Bilasizmi...

- Ha?

Torn davom ettira olmadi.

- Biror narsa demoqchimisiz? - so'radi Griyer.

Torn gapirishdan qo'rqayotgandi.

- Janob Torn, tuzukmisiz?

- Men qo'rqib ketyapman, - pichirladi Torn.

- To'yor, bu xavotirli.
 - Qandaydir dahshatli narsa yuz beryapti.
 - Ha. Lekin bu o'tib ketadi.
 - Tushunmadingiz...
 - Tushundim.
 - Yo'q.
 - Menga ishoning, hammasini tushundim.
- Torn yiyolamsiragancha boshini changalladi.
- Siz ham kuchli hayajondasiz, janob Torn. O'ylaganingizdan ko'ra ancha kuchli.
 - Nima qilishni bilmayman, - ingradi Torn.
 - Birinchidan, siz abortga rozi bo'lishingiz kerak.
- Torn Griyerga qaradi.
- Yo'q, - dedi u.
 - Agar bu sizning diniy qarashlaringizga borib taqaladigan bo'lsa...
 - Yo'q.
 - Lekin buning zarur ekanligini tushunishingiz kerak...
 - Men rozi bo'lmayman, - dedi Torn qat'iy tarzda.
 - Rozi bo'lishingiz shart.
 - Yo'q!

Griyer unga nazar tashladi.

- Sababini bilmoqchi edim, - dedi u xotirjamlik bilan.

Torn qimir etmasdan o'tirardi.

- Menga uning homiladorligi barham topishini aytishgandi. Men bu narsa yuz bermasligini isbotlamoqchiman.

Shifokor unga taajjub bilan qaradi.

- To'yor, gapim g'alati tuyulishi mumkin. Balki, men... aql-danozgandirman.

- Nega unday deyapsiz?

Torn gapini zo'rg'a yakunladi.

- Men bu narsaga ishonmasligim uchun, bu homiladorlik davom etishi kerak.

- Nimaga ishonmaslik uchun?

- Xotinim singari. Bolaning...

So'zlar uning tomog'ida tiqilib qoldi, u o'rnidan turdi va bezovtalana boshladi. Uni qandaydir tuyg'u qamrab olgandi. U hozir nimadir yuz berishini sezdi.

- Janob Torn?

- Kechirasiz...

- Marhamat, o'tiring.

Keskin bosh chayqagan Torn xonadan otilib chiqdi. U mashinasiga o'tirdi. Dahshatli tahluka kuchayib borardi. U tezroq uyga borishi kerak. Mashinasini o't oldirib, u katta tezlikda pedalni bosdi. Pirfordgacha yarim soatlik yo'l edi. U vaqtida yetib borolmaslikdan qo'rqardi. London ko'chalari transportga to'lib ketgan, u to'xtovsiz ravishda signal bosib, mashinani o'qdek uchirib borardi. Xavotir hissi uni butunlay qamrab oldi...

Katerina ham bezovta bo'la boshladi va xavotirni yengish uchun uy ishlari bilan mashg'ul bo'lmoqchi bo'ldi. U qo'lida ko'za ushlagancha uchinchi qavat zinasida turar va devorga osilgan gullarga qanday qilib suv quyishni o'ylardi. Uning ortida Demen mashinasini minib yurar, o'zicha mashina ovozi ham o'xshatardi. U tezlikni oshirgani sari, ovozi ham balandroq chiqa boshladi. Beylok xonim Katerinaga sezdirmay xonaning burchagiga o'tdi va ko'zlarini yumgancha pichirlab duo o'qiy boshladi... Shosse bo'ylab katta tezlikda Torn kelardi. U uyiga olib boradigan katta yo'lga chiqdi. U rulga mahkam yopishib olgan, uning har bir muskuli mashinani yanada tezroq haydash uchun harakat qilayotganday edi. Torn oldidagi mashinalarga signal chalar, ular Torniga yo'l bo'shatishardi. U orqani ko'rsatadigan ko'zguna qaradi. Uning ortidan tobut solingan ulkan qora avtomobil kelardi. Mashina unga yaqinlashdi va Tornning rangi devordek oqarib ketdi...

Pirfordda Demen mashinasini yanada tezroq hayday boshladi. Katerina yo'lakda kursi ustida turardi. Beylok xonim Demenning xonasida turganicha, uni xayolan mashinani yanada tezroq yurgizishga undardi. Bolaning yuzi va ko'zlarida g'alati ifoda mujassam edi.

Torn ingrab yubordi. Spidometr soatiga to'qson mil tezlikni ko'rsatardi, keyin tezlik bir yuz o'nga chiqdi, ammo tobut solingan mashina undan ortda qolmasdi. Torn tezlikni pasaytirmadi. Nihoyat mashina uning mashinasi bilan yonma-yon keta boshladi.

- Yo'q... - dedi Torn. - Yo'q!

Ular bir oz yonma-yon ketishdi. Keyin mashina asta-sekin oldinga o'ta boshladi. Unga yuklangan tobut chayqalib borardi...

Tornlarning uyida Demen mashinasini katta tezlikda minib yurar, Katerina esa kursida turganicha muvozanatini saqlashga urinardi.

Shossedada tobut ortilgan avtomobil kutilmaganda tezlikni oshirdi. Ayni shu vaqtda Demen o'qdek uchib chiqib Katerina turgan kursiga urildi. U kursidan yiqilarkan, qo'lidagi ko'zani tushirib yubordi va biror narsani ushlab qolishga urindi. Bo'g'iq gursillagan tovush eshitildi. So'ngra ko'za yerga tushdi va uning parchalari atrofga sochildi. ... Katerina qimirlamay yotardi...

Torn kasalxonaga kelganida muxbirlar bu yerga kelib ulgurishgandi. Ular Tornni savollarga ko'mib tashlashdi, u esa Katerina yotgan palataga shoshilardi. Uyga kelganida u Beylok xonimni tashvishli holatda ko'rdi. U Katerina yiqilib tushganini va "tez yordam" uni kasalxonaga olib ketganini aytdi.

- Xotiningizning ahvoli haqida biror narsa deng, janob Torn! - qichqirdi muxbirlardan biri.

- Yo'qolinglar!

- Uni "yiqilib tushgan" deyishyapti.

- Ahvoli yaxshimi?

Muxbirlar uni to'xtatib qolishga urinishdi, ammo Torn ularni yorib o'tib, yugurib ketdi.

Unga shifokor peshvoz chiqdi.

- Mening ismim Bekker, - dedi u.
- Uning ahvoli yaxshimi? - so'radi Torn xavotir bilan.
- Tuzalib ketadi. Uning miyasi chayqalgan, bir-ikkita suyagi singan.
- U homilador.
- Qo'rqamanki, endi homilador emas.
- Bolasi tushib ketdimi? - nafasi ichiga tushib so'radi u.
- Yiqilib tushgan paytdayoq. Men tekshiruv o'tkazmoqchi edim, ammo xizmatkoringiz biz kelgunimizcha hammayoqni tozalab qo'ygan ekan.
- Torn titrab ketdi va holi qurigancha devorga suyandi.
- Albatta, - davom etdi shifokor, - bu haqda batafsil ma'lumotlarni hech kimga oshkor etmaymiz. Qancha kam odam bilsa, shuncha yaxshi.
- Torn unga tikildi va shifokor uning bu haqda hech narsa bilmasligini tushundi.
- Bilasizmi, u o'zini tashlab yuborgan, - dedi u.
- ... Tashlab yuborgan?
- Uchinchi qavatdan. Bolasi va enaganing ko'z oldida.
- Torn unga telbalarcha qarab turdi va devorga o'girildi. Uning yelkalari silkinardi va shifokor Tornning yiyolayotganini bildi.
- Bunday balandlikdan yiqilganda, - qo'shib qo'ydi shifokor, - odatda bosh qattiq jarohatlanadi. Qaysidir ma'noda uning omadi kelgan.
- Torn ko'z yoshlarini tiyishga urinarkan, bosh silkidi.
- Umuman, uning omadi kelgan, - dedi shifokor. - U tirik, to'yori davolansa bunday hol boshqa takrorlanmaydi. Akamning xotini ham o'z joniga qasd qilishga moyil edi. Bir kuni u vannaga suv to'ldirib, unga elektr suv qaynatgichni solgan. U shu tarzda o'zini o'zi o'ldirishga uringan.
- Torn shifokorga o'girildi.
- U tirik qoldi va boshqa bunday ish qilmadi. To'rt yildirki, uning soyoligi joyida.
- U qayerda? - so'radi Torn.
- Shveysariyada yashaydi.
- Xotinimni so'rayapman!
- 44-palatada. Tez orada o'ziga kelib qoladi.
- Katerina yotgan palata jimjit va qorong'i edi. Burchakda qo'lida jurnal ushlaganicha hamshira o'tirardi. Torn ichkariga kirdi va ko'rgan narsasidan hayajonga tushib, turgan joyida qotib qoldi. Katerinaning ko'rinishi qo'rqinchli edi: rangi oppoq, yuzi shishib ketgandi. Qo'li gipslangan va salgina ko'tarilgandi. Uning yuzida hayot alomatlari ko'rinmasdi.
- U uxlayapti, - dedi hamshira. Torn sekin uning karavoti oldiga keldi. Xuddi uning kelganini bilgandek, Katerina ingradi va boshini burdi.
- Torn uning yoniga o'tirdi. Karavot suyanchig'iga suyandi va yiyolab yubordi. Bir ozdan so'ng u Katerinaning qo'li sochlarini silayotganini sezdi.
- Jerri... - pichirladi u.
- Torn unga qaradi. Katerina qiyinchilik bilan ko'zlarini ochdi.
- Ket... - dedi Torn yig'i aralash.
- U meni o'ldirishiga yo'l qo'yma.
- Keyin u ko'zlarini yumdi va uyquga ketdi.
- Torn uyiga yarim tundan keyin keldi va Katerina yiqilgan marmar polga uzoq tikilib turdi. U juda charchagan va fojiani ozgina bo'lsada unutish uchun uxlashni istardi.
- Torn chiroqni yoqmasdan zim-ziyo zalda ancha vaqt turdi. U uchinchi qavatdan o'zini tashlamoqchi bo'lgan Katerinani tasavvur qildi. Nima uchun u joniga qasd qiladigan bo'lsa, o'zini tomdan tashlamadi? Uyda inson hayotiga nuqta qo'yishi mumkin bo'lgan kuchli ta'sir ko'rsatadigan turli dorilar, ustara tiyolari, boshqa o'nlab narsalar bor edi. Nega u aynan shu tarzda o'lishni istadi? Va nima uchun Demen bilan Beylok xonimning ko'z o'ngida?
- U yana ruhoniyning so'zlarini esladi. "U tug'ilajak go'dakni o'ldiradi, keyin esa xotiningizni ham o'ldiradi! Butun boyligingiz unga o'tishiga ishonchi komil bo'lgach, janob Torn, u sizni ham o'ldiradi...". Torn bu so'zlarni unutishga urinarkan, ko'zlarini yumdi. U dahshatli tarzda halok bo'lgan Tassoneni, Jenningsning telefon qo'ng'irog'ini, mashinada ketayotganida o'zini chulg'ab olgan xavotirni esladi. Ruhshunos haq edi. Katerinaning xavotiri unga ham o'tgandi. Uning xayollari qaysidir darajada yuqumli edi. Endi bunga yo'l qo'ymaydi! Endi doim hushyor bo'ladi.
- Qattiq charchoqni his qilgan Torn yuqori qavatga ko'tarila boshladi. U tiniqib uxlaydi va ertalab tetik holda uyg'onadi.
- U xonasi eshigi oldida to'xtab qoldi va Demenning xonasiga nazar tashladi. Tungi chiroqning xira nuri eshik tirqishidan tushib turardi. Torn maza qilib uxlab yotgan murg'ak go'dakning qiyofasini ko'z oldiga keltirdi. O'yoliga qarash istagida u Demenning xonasi tomon yurdi. Ammo eshikni ochgach, u titrab ketdi. Bola uxlab yotar, lekin yolg'iz emasdi. Karavotning bosh tomonida Beylok xonim o'tirganicha mizg'ir, karavotning oyoq tomonida esa katta it yotardi. Bu o'sha, u haydab yuborishi lozim bo'lgan it edi. Endi bu it o'yolini qo'riqlab yotardi. Nafasi bo'g'ziga tiqilgan Torn eshikni asta yopdi, yo'lakka chiqib, xonasi tomon ketdi. U o'zini bosib olishga urinardi. Kutilmaganda telefon qo'ng'irog'i jimlikni buzdi va u go'shakni tezlik bilan ko'tardi.
- Allo!
- Bu Jennings, - ovoz eshitildi. - Esingizdami, fotoapparatimni sindirib qo'ygan edingiz.
- Ha.
- Men Chelsida, Grosvenor va Beshinchi ko'cha tutashgan burchakda turaman. Menimcha, hozirning o'zida oldimga kelishingiz kerak.
- Nima istaysiz?
- Nimadir bo'lyapti, janob Torn. Siz bilishingiz kerak bo'lgan qandaydir voqealar yuz beryapti.
- Torn Jenningsning uyini uzoq qidirdi. Yomg'ir yog'ar, atrofni ko'rish qiyin edi. U derazalardan birida Jenningsni ko'rdi va u Tornga qo'l silkidi. Beshinchi qavatga ko'tarilguncha, Torn hansirab qoldi.
- Brendi ichasizmi? - taklif qildi Jennings.

- Mayli.
Jennings oshxonaga chiqib ketdi va Torn xonaga razm soldi. Xona devori fotosuratga to'lib ketgandi.

- Mana, - dedi Jennings qo'lida shisha va stakan ko'targanicha, - ozgina tomoq ho'llab olganingizdan keyin gaplashamiz.

- Chekasizmi? - so'radi Jennings.

Torn inkor ma'nosida bosh chayqadi, u mezbonning ma'nosiz ohangda gapirishidan ijirg'anardi.

- Siz nimadir yuz berayotganini aytgandingiz.

- Ha.

- Nimani nazarda tutganingizni bilmog'chi edim.

Jennings Tornga taajjub bilan tikildi.

- Hali ham tushunmadingizmi?

- Yo'q.

- Unda nima uchun bu yerga keldingiz?

- O'zingiz chaqirdingiz-ku.

Jennings bosh silkidi.

- Men sizga bir narsani ko'rsatmoqchiman.

- Nimani?

- Fotosuratlarni. - U o'rnidan turib, nimqorong'i xona tomon yo'l oldi va Tornni ortidan yurishga imladi. - Siz avval men bilan yaqinroqdan tanisharsiz, deb o'ylovdim.

- Juda charchadim.

- Bo'пти, hozir o'zingizga kelib qolasiz.

U kichikroq chiroqni yoqdi. Torn Jenningsning yoniga o'tirdi.

- Tanidingizmi?

Bu Demenning tug'ilgan kunida olingan suratlar edi. Charxpalakda uchayotgan bolalar, ularni kuzatib turgan Katerina.

- Ha.

- Endi mana buni ko'ring.

Jennings Demenning birinchi enagasi Chessaning suratini ko'rsatdi. U yolg'iz o'zi masxaraboz kiyimida turardi.

- Birorta g'ayritabiiy narsani ko'ryapsizmi? - so'radi Jennings.

- Yo'q.

Jennings enaganing boshi va bo'yni atrofidagi oq doylarni ko'rsatdi.

- Dastlab men buni fototasmaning nuqsuni deb o'ylovdim, - dedi Jennings. - Endi bunga qarang.

U Chessaning arqonda osilgan holatdagi suratini ko'rsatdi.

- Tushunmadim, - dedi Torn.

- Qarab turing.

Jennings boshqa suratlarni oldi. Eng tepada elchixonadan chiqib ketayotgan ruhoniylar Tassonening surati turardi.

- Bunisiga nima deysiz?

Torn unga dahshat bilan tikildi.

- Buni qayerdan oldingiz?

- O'zim suratga tushirganman.

- Siz uni izlab yuribsiz deb o'ylagandim. U qarindoshingiz ekanligini aytgandingiz.

- Sizga yolg'on gapirgandim. Suratga qarang.

Jennings ruhoniylarning boshi ustidagi oq dog'ga ishora qildi.

- Mana bu dog'mi? - so'radi Torn.

- Ha. Endi mana bunisiga qarang. Bu birinchi suratdan o'n kun keyin olingan.

U boshqa suratni oldi. Bu bir guruh kishilarning surati edi. Tassonening yuzi ko'rinmas, ammo bosh ustida o'sha uzun chiziq bor edi.

- Menimcha, bu o'sha odam. Yuzi uncha yaxshi ko'zga tashlanmasada, uning ustidagi chiziq aniq ko'rinib turibdi.

Torn suratga uzoq tikildi, ammo hech nimani anglolmadi.

- Bu safar chiziq pastroqda, - davom etdi Jennings. - U ruhoniylarning boshiga tegib turibdi.

Torn suratga jimgina tikildi. Jennings uning o'rniga gazetadan qirqib olingan ruhoniylarning yerga mixlanib qolgan paytdagi suratini ko'rsatdi.

- Boyoliqlikni sezdingizmi? - so'radi Jennings. U Tornning hayajon to'la nigohini sezdi.

- Men ham buni tushunmagandim, - dedi Jennings. - Shuning uchun kavlay boshladim.

- Politsiyada tanishlarim bor. Ular menga ruhoniylarning suratlarini berishdi. Patologoanatomning xulosasiga ko'ra, Tassone rak bo'lgan. U doim morfiy iste'mol qilgan.

Torn fotosuratlarga nazar tashladi. Suratlarda ruhoniylarning yalang'och tanasi aks etgandi.

- Tashqi ko'rinishidan uning tanasi mutlaqo sog'lom va hech qanday g'ayritabiiy narsa yo'q, - davom etdi Jennings. - Faqat uning chap oyog'ida bir belgi bor.

U Tornga kattalashtirib ko'rsatuvchi oyna berdi. Torn suratga diqqat bilan qaradi va qandaydir belgini ko'rdi.

- Nima bu? - so'radi Torn.

- Uchta olti. Olti yuz oltmish olti.

- Konslagernikimi?

- Men ham shunday deb o'ylovdim, ammo tekshiruv bu belgi uning tanasiga singib ketganini ko'rsatdi. Konslagerda bunday qilishmagan. Menimcha, buni o'zi qilgan. Mana bu suratga qarang. Mana u yashagan xona. Soxoda. Uning xonasi kalamushga to'lib ketgan ekan.

Torn suratga razm soldi. Kichkinagina xona, stol. Shkaf va karavot. Devorga qandaydir qog'ozlar yopishtirilgan, butun xonaga xochlar osib tashlangandi.

- Devordagi qog'ozlar - Injil sahifalari. Minglab sahifalar. Devorning birorta ham ochiq joyi qolmagan. Hatto derazalar ham.

Torn hayratda qolgandi.

- Xochlar ham. Birgina eshikning tepasiga qirq yettita xoch yopishtirgan.

- U jinni bo'lgan ekanmi? - so'radi Torn. Jennings unga qaradi.

- Siz bilasiz.

Jennings stol g'aladonidan jild oldi.

- Mana bu uning kundaligi. Unda ruhoniy to'yorisida emas, SIZ to'yoringizda, SIZning qayerga borishingiz, qayerda ovqatlanishingiz, ma'ruzalaringiz to'yorisida yozilgan...

- Ko'rsam bo'ladimi?

- Albatta.

Torn qaltiroq qo'llari bilan kundalikni varaqlay boshladi.

- Oxirgi qaydda siz u bilan Kyu-Gardenda uchrashishingiz lozimligi yozilgan, - davom etdi Jennings. - U aynan o'sha kuni o'lgan.

Torn boshini ko'tardi va Jenningsning nigohiga duch keldi.

- U telba edi, - dedi Torn.

- Nahotki?

Jenningsning ovozida tahdid ohangi bor edi.

- Sizga nima kerak?

- U bilan uchrashdingizmi?

- Y...yo'q.

- Menda bir gap bor, janob elchi, ammo to'yorisini aytmaguningizcha, bu sirni aytmayman.

- Bundan sizga nima foyda? - bo'g'iq ovozdagi so'radi Torn.

- Men sizning do'stingizman va sizga yordam bermoqchiman, - javob berdi Jennings.

Torn unga tikilib turaverdi.

- Eng asosiysi mana bu yerda, - dedi Jennings stolga ishora qilib. - Aytasizmi yoki ketaverasizmi?

Torn tishlarini g'ijirlatdi.

- Nimani bilmoqchisiz?

- Parkda u bilan ko'rishdingizmi?

- Ha.

- U sizga nima dedi?

- U meni ogohlantirdi.

- Nimadan?

- U hayotim xavf ostida ekanligini aytdi.

- Qanday xavf?

- Unchalik tushunmadim.

- Meni ahmoq qilmang.

- Rost gapiryapman. U tushunarsiz ma'noda gapirdi.

Jennings Torniga ishonchsizlik bilan qaradi.

- Injildan parcha edi, - qo'shib qo'ydi Torn. - Qandaydir oyatlar. Uni aqldan ozgan kishi deb o'ylovdim. U aytgan oyatlarni eslay olmayman va ularni tushunmayman ham.

- Siz menga ishonishingiz kerak, - dedi Jennings.

- Menga bir narsani aytmoqchi edingiz.

- Avval menga hammasini gapirib bering.

- Boshqa aytadigan gapim yo'q.

Jennings "shu ham yetadi" degandek bosh silkidi va g'aladondan bir parcha qog'oz oldi.

- Bu "Astrolodgers Montli" jurnalidan qirqib olingan. Bir astrologning g'alati hodisa haqidagi xabari. Kometa yorqin yulduzga aylanib qolgan haqida. Xuddi bundan ikki ming yil ilgari Betelgeyze yulduzi kabi.

Torn peshonasidagi terni artgancha xabarni o'qib chiqdi.

- Faqat bu hodisa boshqa joyda yuz bergan, - so'zida davom etdi Jennings. - Yevropada. To'rt yil ilgari. Aniqrug'i, oltinchi iyunda.

Bu sana sizga biror narsani eslatadimi?

- Ha, - xirilladi Torn.

- Unda ikkinchi xabarni o'qishingiz shart emas, - dedi Jennings Rimda chiqadigan yana bir gazetadan qirqib olingan parchani olarkan.

Torn uni darhol eshladi. Katerina ham xuddi shunday parchani saqlardi.

- Bu farzandli bo'lganingiz haqidagi xabar. BU ham to'rt yil ilgari, oltinchi iyunda yuz bergan. Buni tasodif degan bo'lardim. Sizchi?

Tornning qo'llari qaltirardi.

- O'yolingiz ertalab oltida tug'ilganmidi?

Torn unga tikildi. Uning ko'zlarida alam bor edi.

- Men ruhoniyning oyog'idagi belgi nimani anglatishini bilmoqchiman. Uchta olti. Menimcha, uning o'yolingiz bilan boyoliqligi bor. Oltinchi oy, oltinchi kun...

- Mening o'yolim o'lgan! - qichqirdi Torn. - Mening o'yolim o'lgan. Kimni tarbiyalayotganimni bilmayman.

U yuzini changalladi. Jennings undan ko'zini uzmasdi.

- Agar qarshi bo'lmasangiz, - dedi u xotirjamlik bilan, - buni aniqlashda sizga yordam beraman.

- Yo'q, - ingradi Torn. - Bu mening ishim.

- Adashdingiz, janob. Bu endi MYeNING ham ishim.

Torn unga o'girildi, ularning nigohlari to'qnashdi. Jennings qo'shni xonaga kirdi va qo'lida fotosurat bilan qaytib chiqdi. U suratni Tornga uzatdi.

- Ruhoniyning xonasi burchagida ko'zgu bor ekan, - dedi Jennings. - Suratga olayotganimda unda men ham aks etgan ekanman.

Suratdagi g'alati doyonni payqadingizmi?

Torn suratda xona burchagiga o'rnatilgan uncha katta bo'lmagan ko'zguni ko'rdi. Ko'zguna Jenningsning fotoapparatini yuziga

tutib turgani aks etgandi. Ammo unda nimadir yetishmasdi.

Jenningsning bo'yni yo'q edi.

Qandaydir dog' uning boshini tanasidan ajratib turardi...

10

Katerina bilan yuz bergan noxush voqeadan so'ng Torn bir necha kun kelolmasligi uchun ishxonasidagilarga bahona topdi. U Rimga, travmotologning oldiga ketayotganligini aytdi. Aslida u bu yerga boshqa maqsadda bormoqchi edi. Jennings uni hamma narsani boshidan boshlash kerakligiga, ya'ni Demen dunyoga kelgan o'sha kasalxonaga borish kerakligiga ishontirgandi. Ana shu yerdan ular haqiqatni tiklashni boshlaydilar.

Hammasi tezlik bilan va shovqinsiz uyushtirildi. Torn omma e'tiborini tortmaslik uchun Londondan uchib ketgani shaxsiy samolyotga buyurtma berdi. Uchib ketgunlariga qadar Jennings tekshiruv uchun ba'zi narsalarni - Injilning bir necha xil nusxalarini, diniy bilimlarga oid kitoblarni ajratdi.

Torn Pirfordga borib narsalarini yig'ishtirdi va o'zini tanitmaslik maqsadida kiyib yurish uchun katta shlyapasini oldi. Pirfordga g'ayritabiiy sukunat cho'kkan, mashinalar xuddi endi boshqa minilmaydigandek holatda turardi. Gortonlar ko'rinishmasdi.

- Ular ketib qolishdi, - tushuntirdi Beylok xonim u oshxonaga kirganida.

Ayol xuddi Gorton xonim singari sabzavot to'yorab o'tirardi.

- Qanaqasiga? - so'radi Torn.

- Butunlay. Narsalarini yig'ishtirib, ketishdi. Ularga oxirgi oylik maoshini jo'natishingiz uchun yangi uylarining manzilini qoldirishdi.

Torn karaxt bo'lib qolgandi.

- Ular sababini aytishmadimi?

- Buning ahamiyati yo'q, janob. Hamma ishni o'zim uddalayman.

- Ular aytishlari kerak edi...

- Masalan menga, ular hech narsa deyishmadi. O'zi ular men bilan juda kam gaplashishardi. Janob Gorton ketamiz deb turib oldi. Gorton xonimning esa ketgisi yo'qqa o'xshadi.

Torn Beylok xonimga xavotir bilan qaradi. U Demenni bu ayol bilan qoldirishdan qo'rqardi. Ammo boshqa iloji ham yo'q edi. U zudlik bilan ketishi shart edi.

- Agar bir necha kunga boshqa joyga kesam, yolg'iz o'zingiz qiynalib qolmaysizmi?

- O'ylaymanki, qiynalmayman. Oziq-ovqat bir necha haftaga yetadi, bolaga esa tinchlik kerak.

Torn bosh silkidi va chiqib ketmoqchi bo'lib o'girildi-yu, to'xtadi:

- Beylok xonim...

- Janob?

- Itni.

- Bilaman. Kech kirguncha u bu yerdan ketadi.

- U nega haligacha bu yerda?

- Biz uni o'rmonga tashlab kelgandik, ammo u qaytib keldi. It o'sha baxsizlikdan keyin ko'chada yotgan ekan, o'yolingiz esa uni ichkariga olib kirishimni so'rab yolvordidi. Bu sizga yoqmasligini Demenga aytgandim, ammo bunday vaziyatda o'ylovdimki...

- U bu yerda bo'lmasligini istayman.

- Bugunq uni olib ketishlarini so'rab qo'ng'iroq qilaman.

Torn eshik tomon yuzlandi.

- Janob Torn?...

- Ha?

- Xotiningizning ahvoli qalay?

- Tuzalyapti.

- Uning oldiga o'yolingiz bilan borsak bo'ladimi?

Torn sochiqqa qo'llarini artayotgan ayolga tikilib o'ylanib qoldi. U bekalik vazifasini qoyilmaqom qilib bajarardi. Torn hatto uni nima uchun bunchalik yoqtirmasligi haqida ham o'yladi.

- Keragi yo'q. Qaytib kelganimda o'zim olib boraman.

- Yaxshi, janob.

Ular xayrlashishdi va Torn kasalxonaga yo'l oldi. U bu yerda doktor Bekker bilan uchrashdi. Doktor unga Katerinaning tuzalib borayotganini bildirdi. U Katerinaning oldiga kirdi. Katerina uni ko'rib ma'yus jilmaydi.

- Salom, - dedi u.

- Salom, - dedi Katerina.

- Tuzukmisan?

- Sal-pal.

- Yaqinda to'liq tuzalib ketasan.

- Bilaman.

Torn kursisini karavot yoniga surdi va o'tirdi. U Katerinaning shu holatda ham naqadar go'zal ko'rinarayotganidan ajablandi. Quyosh nuri uning sochlariga tushib turardi.

- Ko'rinishing yaxshi, - dedi u. - Men faqat seni o'yladim.

- Ko'rinishim qanday ekanligini tasavvur qilyapman, - dedi Katerina kulib.

Torn uning qo'llaridan tutdi va ular bir-birlariga jim termulishdi.

- G'alati davrlar, - dedi Katerina.

- Ha.

- Nahotki bir kun kelib hamma narsa o'z joyiga tushsa?

- Ha.

Katerina g'amginlik bilan jilmaydi va Torn uning ko'zlarini to'sib turgan sochlarini to'yorilab qo'yish uchun qo'lini uzatdi.

- Biz axir yaxshi odamlarmiz-ku, to'yorimi Jeremi?

- Menimcha shunday.

- Unda nima uchun hamma narsa bizga qarshi?

U boshini qimirlatdi.

- Agar biz yovuz bo'lganimizda edi, - dedi Katerina, - men buni jazo deb hisoblagan bo'lardim. Balki biz shunga loyiqdirmiz.

Ammo bizning gunohimiz nima? Qanday xatoga yo'l qo'yganmiz?

- Bilmadim, - qiyinchilik bilan javob berdi Torn.

Katerina unga baxtiqarodek tuyuldi.

- Bu yerda sen xavfdan xolisan, - shivirladi Torn. - Men esa bir necha kunga ketyapman.

U javob bermadi. U hatto Tornning qayerga ketayotganligini ham so'ramadi.

- Ishlarim bor. Ortga surib bo'lmaydi.

- Uzoq vaqt bo'lmaysanmi?

- Uch kun. Senga har kuni qo'ng'iroq qilib turaman.

Katerina bosh irg'adi. Torn uning yonog'idan beozorgina o'pib qo'ydi.

- Jerri?

- Ha?

- Ular pastga men o'zim sakraganligimni aytishdi, - U Tornga bolalarcha beozor va hayrat bilan tikildi. - SYeNGAham shunday deyishdimi?

- Ha.

- Men nima uchun bunday qilishim kerak edi?

- Bilmadim, - pichirladi Torn. - Lekin buni aniqlaymiz.

- Men aqldan ozganmanmi? - shunchaki so'radi u.

Torn unga qaradi va inkor ma'nosida bosh chayqadi.

- Hammamiz aqldan ozib qoldik shekilli, - dedi u.

Katerina o'rmidan turdi va ularning yuzlari ro'parama-ro'para keldi.

- Men o'zim sakramadim, - pichirladi u. - Meni... Demen itarib yubordi.

Xonaga uzoq sukunat cho'kdi va Torn xonadan asta chiqib ketdi.

Olti o'rinli "Lir" samolyoti Torn va Jenningsni olib uchardi. Yarim tunda ular Rimga qarab uchishardi. Jennings atrofiga kitoblarni yoyganicha, Tornni Tassonening barcha so'zlarini eslashga majbur qilardi.

- Eslolmayman, - dedi Torn. - Umuman yodimda yo'q.

- Boshqatdan boshlang. Yodingizga tushgan hamma narsani bir boshdan ayting.

Torn ruhoniy bilan bo'lgan birinchi uchrashuvi, uning ta'qibi, nihoyat parkdagi uchrashuv haqida qaytadan so'zlab berdi. Bu uchrashuvda ruhoniy she'rlar o'qigandi.

- Qandaydir dengiz... - ming'irladi Torn, eslashga urinarkan. - o'lim... lashkarlar... Rim... haqida.

- Yaxshiroq eslashga harakat qiling.

- Men juda jahlgamingan va uni jinni deb o'ylagandim. Umuman olganda, unga quloq solmaganman ham.

- Lekin uning so'zlarini eshitgansiz. Demak, siz eslay olasiz. Bo'ling!

- Eslolmayman!

- Urinib ko'r!

Tornning yuzi burishdi. U ko'zlarini yumib, eslashga harakat qilib ko'rdi.

- U mendan imon keltirishimni so'raganini eslayman. "Yaratganga imon keltir". U shunday degandi. "Yaratganga imon keltir"...

- Nima uchun?

- Shaytonning o'yoli bilan kurashish uchun. U "Shaytonning farzandini yengish uchun Xudoga imon keltir" degandi.

- Yana-chi? - bo'sh kelmasdi Jennings.

- Chol. Qandaydir chol...

- Qanaqa chol?

- U bir chol bilan uchrashishim lozimligini aytgandi.

- Davom eting...

- Eslolmayapman!...

- Uning ismini aytgandimi?

- M... Magdo. Megiddo. Yo'q, bu shaharning nomi.

- Qaysi shaharning? - so'radi Jennings.

- Uning so'zlariga ko'ra, men borishim kerak bo'lgan shaharning. Megiddo. Imonim komil. Men Megiddoga borishim kerak.

Jennings portfelidan xaritani izlay boshladi.

- Megiddo... - ming'irlardi u. - Megiddo...

- Bu shaharni eshitganmisiz? - so'radi Torn.

- Garov o'ynashim mumkin, u Italiyada joylashgan.

Lekin Yevropaning birorta ham mamlakatida bu shahar yo'q edi. Jennings xaritaga yarim soat tikilib o'tirdi, keyin umidsiz ravishda bosh chayqaganicha uni yopdi. U elchiga qarab uning uxlayotganini ko'rdi va diniy kitoblarini varaqlashga tushdi. Mo"jaz samolyot tungi osmonda guvillaganicha parvoz qilar, Jennings esa kitob o'qishga kirishib ketgandi. "... va yerga Shaytonning avlodi inson ko'rinishida keladi. Zo'rlangan to'rt oyoqli jonivor uning onasi bo'ladi. Yosh Masih yer yuziga sevgi va xayr ulashgani kabi, u ham bevosita do'zaxning o'zidan olgan buyruqlarga ko'ra nafrat va qo'rquv urug'ini sochadi..."

Samolyot qo'ndi va Jennings atrofga sochilib ketgan kitoblarini yig'ishtirishga tutindi.

Rimda yomg'ir yog'ayotgandi. Ular bo'm-bo'sh ayeroportni tezlik bilan tark etib, taksilar turadigan joyga chiqishdi. Mashina ularni shaharning narigi chetiga olib ketayotgan paytda Jennings mizg'ir, Torn esa Via Ventoning haykaliga tikilganicha Katerina bilan bir-birlarining qo'llaridan tutganicha bu ko'chalarni kechishgan damlarni eslardi. Ular bir-birlarini sevishardi. U Katerinaning atiri isini, uning kulgisini esladi. Shu yerda ular bir-birlariga sevgi izhor qilishgandi...

- Jeneral gospitali, - dedi taksichi va tormozni bosdi.

Jennings uyg'onib, tashqariga qaradi.

- Bu emas, - dedi Torn.
- Si. Jeneral gospitali.
- Yo'q, u eski bino edi. G'ishtin imorat. Esimda.
- Manzilni to'yori yozganmisiz? - so'radi Jennings.
- Jeneral gospitali, - qaytardi haydovchi.
- E diferente (bu boshqa joy(ital.), - so'zida turib oldi Torn.
- Fuoco (yong'in (ital.), - javob berdi haydovchi. - Tre anni piu o meno (taxminan uch yil ilgari (ital.).
- Nima deyapti? - so'radi Jennings.
- Yong'in, - javob qildi Torn. - "Fuoko" yong'in degani.
- Si,- dedi taksichi. - Tre anni.
- Qanaqa yong'in? - so'radi Jennings.
- Chamasi, eski gospital yonib ketgan. Uning o'rniga boshqa qurishgan.
- Tre anni piu o meno. Multo morte.
Torn Jenningsga qaradi.
- Uch yil ilgari. Juda ko'pchilik halok bo'lgan ekan.
Ular taksichiga pul berishdi va undan kutib turishni so'rashdi. U dastlab unamadi, ammo pulning ko'pligini ko'rgach, rozi bo'ldi.
Torn italyan tilida chala-chulpa qilib, Rimdan ketgunlaricha uning xizmatidan foydalanishlarini tushuntirdi.
Gospitalda deyarli hech kim yo'q edi. Jennings biror kishini topishga qaror qildi, Torn shu payt bir rohibani uchratib qoldi. Rohiba bundan uch yil ilgari sodir bo'lgan yong'in gospitalni poydevorigacha vayron qilganini tasdiqladi.
- Hamma narsa yonib ketmagandir, - qaysarlik bilan dedi Torn. - Qaydlar. Ular saqlanib qolgan bo'lishi kerak...
- U paytda men bu yerda ishlamasdim, - dedi rohiba inglizchalab. - Lekin odamlarning aytishicha, yong'in hamma narsani kulga aylantirgan.
- Balki, qog'ozlar biror yerda saqlanib qolgandir?
- Bilmadim.
Torn umidsizlikka tushgandi, rohiba esa yelkasini qimiratib boshqa hech narsani bilmasligiga ishora qildi.
- Menga qarang, - dedi Torn. - Bu men uchun juda muhim. Men bu yerda bir chaqaloqni farzand qilib olganman. Menga uning tug'ilganligi haqidagi ma'lumotlar kerak.
- Bu yerda farzand asrab olish bo'lmagan.
- BIR marta bo'lgan. Anig'ini aysam, farzand asrab olish emas...
- Adashyapsiz. Bizda farzand asrab olish javobgarlikdan ozod etish va yordam ko'rsatish agentligi orqali amalga oshiriladi.
- Sizda tug'ilganlik haqidagi qaydnomalar bormi? Bu yerda tug'ilgan chaqaloqlar haqidagi ma'lumotlarni saqlab qo'yasizlarmi?
- Ha, albatta.
- Balki men kunini...
- Foydasi yo'q, - uning so'zini bo'ldi Jennings. U Tornga yaqinlashdi. - Yong'in aynan hujjatlar bo'limida boshlangan. Yerto'lada, hujjatlar saqlanadigan joyda. Keyin esa olov yuqoriga ko'tarilgan va uchinchi qavat do'zaxga aylangan.
- Uchinchi qavat?...
- Tug'ish bo'limi, - bosh silkidi Jennings. - Kultepa qolgan xolos.
Torn devorga suyandi.
- Kechirasizlar... - dedi rohiba.
- To'xtab turing, - iltimos qildi Torn. - Xodimlar-chi? Axir KIMDIR tirik qolgan bo'lishi kerak.
- Ha. Juda kam odam.
- Bu yerda bo'yi baland kishi bo'lardi. Ruhoniy. Barzangi.
- Uning ismi Spilletto edimi?
- Ha, - Tornga jon kirdi. - Spilletto.
- U bu yerning rahbari edi.
- Ha, rahbar. U...
- U tirik qolgan.
Torning qalbida umid uchquni paydo bo'ldi.
- U shu yerdami?
- Yo'q.
- Qayerda?
- Subyakodagi ibodatxonada. Yong'inda jabrlanganlarning ko'pchiligini o'sha yoqqa jo'natishgan. Ko'pchilik o'sha yerda vafot etdi, ammo u tirik. Esimda, buni mo'jiza deyishgandi, axir yong'in paytida u uchinchi qavatda bo'lgan ekan.
- Subyako? - so'radi Jennings.
Rohiba bosh irg'adi.
- San-Benedetto ibodatxonasi.
Mashinaga o'tirishlari bilanoq, ular xaritaga tikilishdi. Subyako shahri Italiyaning janubiy chegarasida bo'lib, u yerga borish uchun kechasi bilan yo'l yurish lozim edi. Ular uxlayotganlarida taksichi bemalol yursin deb, boradigan yo'llarini qizil qalamda belgilab berishdi.
San-Benedetto ibodatxonasi yarim vayrona bo'lsada, uning baland qo'rg'oni o'z salobatini saqlab qolgandi. Qo'rg'on asrlardan buyon ko'plab qamallarga dosh bergandi. Ikkinchi jahon urushi davrida bu yerni shtabga aylantirgan nemislar ibodatxonadagi barcha rohiblarni otib tashlashgandi. 1946 yilda italyanlarning o'zlari uning devori ortida yuz bergan xunrezliklarga nisbatan o'ch olish ma'nosida ibodatxonani minomyotlardan o'qqa tutishgandi.
Zamonning barcha sinovlariga qaramasdan, San-Benedetto muqaddas joyligicha qolgan va uning devorlari duo-iltijolarning aksadosini jimgina yutib kelardi.
Loyga belangan taksi ibodatxona oldiga yaqinlashdi. Haydovchi uxlab qolgan yo'lovchilarni uyg'otishga majbur bo'ldi.
- Senorlar?
Torn qimirlab qo'ydi. Jennings oynani tushirdi va atrofga alanglarkan, tongning musaffo havosidan to'yib nafas oldi.

- San-Benedetto, - dedi charchagan haydovchi.

Torn ko'zlarini ishqadi va qizg'ish osmon ostidagi ibodatxonaning mahobatli manzarasiga ko'zi tushdi.

- Buni qara, - shivirladi Jennings vahima bilan.

- Yaqinroqqa yursangiz bo'lmaydimi? - so'radi Torn.

Haydovchi inkor ma'nosida bosh chayqadi.

Unga uxlab turishni aytib, Torn va Jennings mashinadan tushishdi. Ular bellarigacha baland o'sgan o'tlar orasidagi so'qmoqdan borishar, ertalabki shudringdan butun kiyimlari ho'l bo'lib ketgandi. Yurish qiyin edi. Jennings bir soniyaga to'xtadi va kamerasini olib, ibodatxonani bir necha marta suratga oldi.

- Ishonish qiyin, - shivirladi u. - Jin ursin, ishonish qiyin.

Torn betoqat bo'lib u yoq-bu yoqqa alanglay boshladi va Jennings unga yetib oldi. Ular o'z nafasleri va uzoqdan, ibodatxona ichidan xuddi ingrash kabi eshitilayotgan qo'shiqqa quloq solganicha ildamlashardi.

- Bu yer juda qayg'uli ekan, - dedi Jennings ular eshik yoniga yetib kelishganida.

Qo'shiq ovozi xuddi devorlardan chiqib, ibodatxona yo'laklariga tarqalayotganga o'xshardi. Ular tovushning qayerdan kelayotganini aniqlashga uringanicha, asta-sekin yurib borishardi.

- Menimcha buyoqqa, - dedi Jennings uzun yo'lakka ishora qilib. - Iflosligini qara.

Oldinda jigarrang so'qmoq ko'rindi. So'qmoq ostonasiga tosh yotqizilgan yog'och eshik oldiga boshlab borardi. Ular eshikka yaqinlashganlarida qo'shiq balandroq eshitila boshladi. Eshikni qiya ochib, Torn va Jennings ichkariga mo'ralashdi. Ular o'zlarini xuddi o'rta asrlarga tushib qolgandek his qilishdi. Ular ulkan qadimiy zalni ko'rishdi. Tosh zinalar Isoning toshdan ishlangan haykali joylashtirilgan mehrobga olib borardi. Gumbaz tuynugidan tushayotgan quyosh nurlari haykalni yoritib turardi.

- Muqaddas joy, - shivirladi Jennings.

Torn bosh iring'adi va bino ichini ko'zdan kechirishda davom etdi. Uning nigohi tiz cho'kib ibodat qilayotgan rohiblar guruhiga tushdi.

Ularning iltijosi goh balandlar, goh pasayardi. Jennings eksponometr asbobini oldi va uning ko'rsatkichlariga nazar tashladi.

- Ko'zdan yo'qot, - shivirladi Torn.

- Yoritgichni olib olishim kerak edi.

- Yo'qot deyaqman.

Jennings Tornga ajablanib qaradi, lekin bo'ysundi. Torn o'ta tashvishlangandek ko'rinar - uning tizzalari qaltirar, xuddi tanasi unga tiz cho'kib, rohiblarning iltijosiga qo'shilishni buyurayotgandek edi.

- Tuzukmisan? - dedi Jennings.

- ...Men katolikman, - dedi Torn.

Bir payt u zulmat tomonga qaraganicha qotib qoldi. Jennings nogironlar aravachasini va unda o'tirgan g'alati bir kishini ko'rdi. Boshqalardan farqli ravishda, u aravachada qaddini tik tutib o'tirar, boshi xuddi toshdek qotib qolgan, qo'llari falaj bo'lgandek harakatsiz edi.

- Bu o'shami? - shivirladi Jennings.

Torn bosh iring'adi, uning ko'zlari katta ochilgandi. Ular aravachaga yaqinlashishdi va nogironning yuzini ko'rib Jennings aftini bujmaytirdi. Uning yuzining bir tarafi oqib tushgandek ko'rinar, ko'zlari yuqoriga ma'nosiz tikilib turardi. O'ng yeng orasidan esa qo'l o'rniga qandaydir suyak chiqib turardi.

- U ko'rishini ham, eshitishini ham bilmaymiz, - dedi Spillettoning yonida turgan rohib. - Yong'indan beri u biror marta ham gapirmadi.

Duo o'qib bo'lgach, rohib Spillettoning aravasini tashqariga olib chiqdi va ikki sayyoh ularning ortidan ergashishdi.

- Birodarlarimiz unga qarab turishibdi, - so'zida davom etdi rohib, - har kuni unga la'nat o'qigach, uning soyoligi uchun duo qilamiz.

- La'nat o'qigach? - so'radi Torn.

Rohib bosh silkidi.

- "Qo'ylarini tashlab ketgan cho'ponga la'natlar bo'lsin. Uning o'ng qo'li qurib, o'ng ko'zi ko'r bo'lib qolsin".

- U gunoh qilganmi? - so'radi Torn.

- Ha.

- Qanday gunoh qilganini bilsak bo'ladimi?

- U Yaratgandan yuz o'girgan.

Torn va Jennings bir-birlariga qarab olishdi.

- U Tangridan yuz o'girganini qayoqdan bilasiz? - so'radi Torn rohibdan.

- Tavbasidan.

- U gapirolmaydiku.

- U tavba qilib xat yozgan. Uning chap qo'li ishlaydi.

- Nima deb yozgan?

- Nima uchun so'rayotganingizni bilsam bo'ladimi?

- Bu juda muhim, - dedi Torn. - Yordam berishingizni o'tinib so'rayman. Bu hayot-mamot masalasi.

Rohib unga diqqat bilan qaradi va bosh iring'adi.

- Yuring men bilan.

Spillettoning xonasi deyarli bo'm-bo'sh edi: bu yerda faqatgina somon to'shama va tosh stol bor edi xolos. Kechagi yomg'irdan keyin xona ichida ko'lmak hosil bo'lgandi. Torn to'shamaning ho'l bo'lib ketganini sezdi. Nahotki ular mana shunday cheklashlarni joriy qilishgan bo'lsa, yoki bu ham Spillettoga berilgan jazomikini?

- Stolga chizilgan suratga qarang, - dedi rohib ular ichkariga kirishgach. - U bu suratni ko'mir yordamida chizgan.

Arava g'ijirladi. Ular ruhoniy chizgan g'alati belgiga tikilganlaricha, stol atrofini o'rab olishdi.

- U bu yerga kelgan kuniyoq mana shu suratni chizgan, - davom etdi rohib, - ammo bundan boshqa hech narsa yozmadi.

Stolga qandaydir belgi chizilgandi. Jenningsning e'tiborini ushbu belgidagi uchta raqam o'ziga tortdi. Bu uchta olti edi. Xuddi Tassonening oyog'idagi belgi singari.

- Bosh ustidagi chiziqni ko'ryapsizmi? - dedi rohib. - Bu rohiblarning bosh kiyimini bildiradi.

- Bu avtoportretmi? - so'radi Jennings.
- Biz shunday deb o'ylaymiz.
- Mana bu oltilar nimani anglatadi?
- Olti - iblisning belgisi, - javob qaytardi rohib. - Yetti - Masihning raqami. Olti esa Shaytonning raqami.
- Ular nima uchun uchta? - so'radi Jennings.
- Bizningcha, bu iblis uchligini bildiradi. Shayton, Iblis va Dajjol.
- Nima uchun siz buni tavba qilish deb o'ylaysiz? - so'radi Jennings.
- Siz suratni avtoportret dedingiz. Surat do'zax uchligining ramzi bilan o'ralgan.
- Ammo u nima demoqchi bo'lganini aniq bilmaysiz-ku?
- Buning ahamiyati yo'q, - dedi rohib. - Eng asosiysi, u tavba qilyapti.
Jennings va Torn bir-birlariga ma'noli boqishdi. Torn umidsizlikka tushgandi.
- U bilan gaplashsam bo'ladimi? - so'radi u.
- Bu sizga yordam bermaydi.
Torn Spillettoga qaradi va uning ma'nosiz yuziga ko'zi tushib qaltirab ketdi.
- Spilletto ota, - dedi u qat'iy qilib. - Mening ismim Torn.
Ruhoniy yuqoriga ko'z tikdi. U qimir etmas va Jeremini eshitmasdi.
- Foydasi yo'q, - dedi rohib.
Ammo Tornni to'xtatishning iloji yo'q edi.
- Spilletto ota, - qaytardi Torn. - o'sha go'dakni eslaysizmi? Uning kimligini bilmoqchiman.
- Iltimos qilaman, senor, - ogohlantiruvchi ohangda gapirdi rohib.
- Siz ularga qibla iqrar bo'lgansiz, - qichqirdi Torn, - endi qibla menga ham iqrar bo'ling! O'sha go'dak qayerdan kelganini bilmoqchiman!
- Iltimos qilaman...
Ruhoniy Spillettoning aravasini yurgizmoqchi bo'ldi, lekin Jennings uning yo'lini to'sdi.
- Spilletto ota! - bo'kirdi Torn ma'nosiz, gung qiyofaga tikilib. - O'tinaman! Onasi qayerda? Onasi kim? Iltimos! Javob bersangiz-chi!
Birdan quloqni qomatga keltiruvchi sado yangradi. Cherkov qo'ng'iroqlari chalina boshladi. Bu tovushga toqat qilib bo'lmasdi, Torn va Jennings qo'ng'iroq ovoizidan cho'chib tushishdi. Torn ruhoniyning qo'li ko'tarila boshlaganini ko'rib qoldi.
- Ko'mir! - qichqirdi Torn. - Unga ko'mir beringlar!
Jennings darhol oldinga tashlanib stol ustidan ko'mir parchasini oldi va uni ruhoniyning qo'lga tutdi. Qo'ng'iroq jarangi davom etar, ruhoniyning qo'li qo'ng'iroq har bong urganida bir qaltiraganicha, stol ustiga qing'ir-qiyshiq harflarni yozardi.
- Bu qandaydir so'z, - hayajon bilan qichqirdi Torn. - Ch... Ye... R...
Ruhoniy titrab-qaqshab so'zning davomini yozishga urindi, uni oyoriq tutdi, u og'zini ochdi va qandaydir hayvoniy tarzda ingradi.
- Davom eting! - uni majburladi Torn.
- V... - o'qidi Jennings. - Ye... T...
Kutilmaganda qo'ng'iroq ovozi to'xtadi. Ruhoniy ko'mirni tushirib yubordi va uning boshi aravacha suyanchig'iga egildi. Uqubatga to'la ko'zlar osmonga tikildi, uning yuzidan duvillab ter oqardi.
Uning atrofidagilar stolga yozilgan so'zga tikilganlaricha sukut saqlab turishardi.
- Chervet?... - so'radi Torn.
- Chervet, - qaytardi Jennings.
- Bu italyanchami?
Ular yozuvga tikilib turgan rohibga qarashdi.
- Bu so'z sizga biror narsani anglatadimi? - so'radi Torn.
- Cherveteri, - javob berdi rohib. - Menimcha, bu Cherveteri.
- Nima u? - so'radi Jennings.
- Eski qabriston. Etrussklarniki. Di Santanjelo qabristoni.
Ruhoniyning tanasi yana qaltiradi, u nimadir demoqchi bo'lib ingradi, ammo jim bo'lib qoldi.
Torn bilan Jennings rohibga tikilishdi, ammo u boshini chayqadi va ijirg'anib dedi:
- Cherveteri xarobaga aylangan joy. Techalkning maqbarasi qoldiqlari.
- Techalkning? - so'radi Jennings.
- Etrussklarning iblis ma'budi. Ular shaytonparast bo'lishgan. U ko'milgan joy ular uchun muqaddas sanaladi.
- U nima uchun bu so'zni yozdi? - so'radi Torn.
- Bilmadim.
- Qabriston qayerda? - so'radi Jennings.
- U yerda qabrlar va... yovvoyi itlardan boshqa hech narsa yo'q, senor.
- U qayerda? - toqatsizlik bilan so'radi Jennings.
- Haydovchingiz bilishi kerak. Rimdan ellik chaqirim shimolda.
Rimda boshlangan shamol shahar tashqarisiga o'tgan, kuchli yomg'ir mashinaning tez yurishiga xalal berar, ular shossedan tor va loy ko'chaga burilishgach, ularning yurishi yanada qiyinlashgandi. Bir marta mashinaning orqa g'ildiragi chuqurga tushib tiqilib qoldi, ular mashinani surib chiqarishlariga to'yori keldi. Tong otib kelayotgandi. Nihoyat ular manzilga yetib kelishdi. Ularning oldida temir panjara namoyon bo'ldi, panjara ortida esa qabrlar ko'zga tashlanardi. Jennings mashina yukxonasini ochib fotoapparatini topdi va unga yangi tasma qo'ydi. Uning nigohi yukxonaning bir burchagida qalashib yotgan moy yuqi lattalar orasidagi temir lomga tushdi. Jennings uni kamariga qistirganicha panjara bo'ylab keta boshladi. Yer quruq edi, Jennings sovuqdan qaltiragan ko'yi qabriston darvozasini izlardi. Ammo darvozani topolmadi. Fotoapparatini yana bir marta tekshirib olgach, u daraxtga osilib panjara ustiga chiqdi. Muvozanatini yo'qotganicha, qabriston ichiga ag'anadi. Jennings o'rnidan turib, ichkariga yo'l oldi. Osmon yorishib ketgan, u endi atrofda qabrlar va haykallarning siniq parchalarini bemalol ko'rayotgandi. Ayoza qaramasdan, Jennings terlab ketganini sezdi. U asabiy holatda yon atrofga alanglaganicha yo'lida davom etardi. Jennings xuddi birov o'zini kuzatib turgandek his qilardi. Haykallar uni kuzatayotgandek tuyulardi. Jennings o'zini bosib olish uchun

to'xtadi va yuqoriga qaradi. Uning ro'parasida Jenningsga vajohatli ko'zlarini tikkan ulkan haykal turardi. Jenningsning nafasi ichiga tushib ketdi, haykalning irg'ib chiqqan ko'zlari go'yoki uning bu yerdan tezda jo'nab ketishini talab qilayotgandek edi. Tosh qiyofaning uzun sochlari peshonasiga tushgan, burni go'shtdor, katta og'zi g'azab bilan ochilib turardi. Jennings o'zidagi qo'rquvni yengdi va haykalni uch marta suratga tushirdi...

Torn ko'zlarini ochdi va Jenningsning yo'qligini ko'rdi. U mashinadan tushdi va qabriston tomon qaradi, haykallarning siniqlarini quyoshning ilk nurlari yoritayotgandi.

- Jennings?!

Unga hech qanday javob bo'lmadi. Torn panjara yoniga yaqinlashib yana ovoz berdi. Uzoqdan qandaydir ovoz keldi. Torn katta qiyinchilik bilan panjaradan oshib o'tdi.

- Jennings?..

Atrof jimjit bo'lib qoldi. Torn haykallar oralab Jenningsni izlay boshladi. U asta-sekin qadam tashlardi. Uning oyoqlari botib qolayotgandi. Torn ulkan haykallar orasida o'zini g'alati seza boshladi. Qabriston sukunati uni ezardi. Butun atrof jonsizdek edi. Torn ilgari ham mana shunday hisni boshidan kechirgandi. O'shanda u Pirfordda bir juft ko'z uning uyini kuzatayotganini ko'rgandi. Torn hozir ham o'zini kimdir kuzatayotganini sezib yurishdan to'xtadi. Jeremi qotib qoldi. Uzoqdan, butalar orasidan qandaydir shovqin eshitildi. Qadam tovushlari tobora yaqinlasha boshladi. Torn qochishga tutindi, ammo oyoqlari o'ziga bo'ysunmasdi. U ko'zlarini dahshatdan katta ochganicha joyidan qimirlamasdi.

- Torn!

Bu Jennings edi. U qo'lida temir lomni tutganicha butalarni yorib o'tib Tornning yoniga yaqinlashdi.

- Topdim! - dedi u. - Topdim!

- Nimani topding?

- Ketskik! Yur men bilan!

Ular oldinga tashlanishdi. Jennings qabrlar ustidan chaqqonlik bilan sakrab o'tar, Torn undan ortda qolmaslikka urinardi.

- Mana! Buyoqqa qara! Bu o'sha! - qichqirdi Jennings va yonma-yon qazilgan ikkita qabr oldida to'xtadi. Ular boshqa qabrlarga nisbatan yangi bo'lib, qablardan biri odatiy kattalikda, ikkinchisi esa kichkina edi. Qabrtoshlarida marhumlarning ism-sharifi va yillar yozilgandi.

- Kunini ko'ryapsizmi? - hayajon bilan so'radi Jennings. - Oltinchi iyun. Oltinchi iyun! To'rt yil oldin. Ona va bola...

Torn qabrlar oldiga sekingina keldi.

- Bular qabristondagi eng yangi qabrlar, - dedi Jennings. - Qolganlari shunchalik eskiki, ulardagi yozuvlar ham o'chib ketgan.

Torn indamadi. U cho'kkalab olib, yozuvlarni o'qish maqsadida qabrtoshlaridagi loyni tozalardi.

- ...Mariya Avedichi Santoyya... Go'dak Santoyya... In Morte et in. Nate Amplexa rantur Generationes.

- Bu nima degani?

- Lotincha.

- Nima deb yozilibdi?

- ...O'lim... va tug'ilishda... avlodlar birlashadilar.

- Buni qara-ya!

Jennings Tornning yoniga tizzaladi va uning yiyolayotganini ko'rdi. Torn boshini quyi solganicha ho'ngrardi. Jennings u o'zini bosib olishini kutib turdi.

- Mana u, - ingradi Torn. - Endi bildim. Bu yerda mening farzandim yotibdi.

- Ehtimol, siz tarbiyalayotgan bolaning onasi ham shu yerga ko'milgandir.

Torn Jenningsga qaradi.

- Mariya Santoyya, - dedi Jennings qabrtoshiga ishora qilib. - Bu yerga ona va bola ko'milgan.

Torn uning so'zlari ma'nosini tushunishga urinarkan, bosh silkidi.

- Menga qarang, - dedi Jennings. - Biz Spillettodan bolaning onasi qayerdaligini so'ragandik. Mana onasi. Bunisi esa sizning farzandingiz bo'lsa kerak.

- Ammo nega bu yerda? Nega bunaqa joyda?

- Bilmadim.

- Nima uchun bunday dahshatli joyda?!

Jennings Tornnga qaradi. Uning o'zi ham hech narsani tushunmayotgandi.

- Buni aniqlashning bitta yo'li bor. Asosiysi, biz ularni topdik. Endi qolgan narsalarni bilishimiz mumkin.

U lomni oldi va yerga qattiq urdi. Lom yerga kirib ketdi.

- Bu unchalik qiyin emas. Bor-yo'g'i ikki qarich tuproqni olsak bo'ldi.

U yerni lom bilan o'ya boshladi. Keyin esa qo'llari bilan tuproqni kavlay boshladi.

- Yordamlashvor, - dedi u Tornnga va Torn ham sovuqdan qotib qolgan qo'llari bilan tuproqni kavlashga kirishdi.

Yarim soatdan so'ng ular terga va loyga botganicha, beton plita yuzasidan so'nggi tuproqni tortib oldilar.

- Hidini sezyapsizmi? - so'radi Jennings.

- Ha.

- Chamasi, judayam shoshilishgan.

Torn azobdan qiynalayotgani uchun unga javob bermadi.

- Avval qaysi birini ochamiz? - dedi Jennings.

- Balki buning keragi yo'qdir?

- Kerak.

- Lekin bu odamgarchilikdan emas.

- Agar xo'p desangiz, haydovchini yordamga chaqiraman.

Torn tishlarini g'ijirlatdi va bosh chayqadi.

- Unda boshladik, - dedi Jennings. - Avval kattasini.

Jennings plita ostiga lomni tiqdi. Keyin uni pastga bosdi.

- Qani, bo'l, jin urgur! - qichqirdi u va Torn yordamga shoshildi. Uning qo'llari qaltirardi.

- Kamida bir tonna keladi... - ming'irladi Jennings. Ular plitani ko'tarib surishga erishishdi va qabr ichiga nazar tashlashdi.

- E Xudoyim!

Chuqur ichida shoqolning jasadi yotardi. Turli hasharotlar qandaydir tarzda shu paytgacha saqlanib qolgan teri va tananing qoldiqlarini har tarafdan kemirishardi. Torn titrab ketdi va o'zini orqaga tashladi. Beton plita gursillab chuqur og'ziga tushdi. Minglab pashshalar osmonga ko'tarildi. Jennings dahshat bilan Tornga tashlandi va uni bu yerdan olib ketishga urindi.

- Yo'q!!! - o'kirdi Torn.

- Ketdik!

- Yo'q! - o'kirishda davom etdi Torn. - ikkinchisini!

- Nima uchun? Biz o'zimiz uchun kerakli barcha narsani ko'rdik.

- Yo'q, bunisini ham, - dedi Torn. - Balki, bu yerga ham hayvon ko'milgandir!

- Xo'sh, nima bo'пти?

- Unda, mening farzandim tirik bo'lib chiqadi!

Jennings Tornning telbalaricha nigohiga ko'zlarini qadadi va lom yordamida kichkina beton plitani ko'tarishga urindi. Torn uning yoniga kelib, plita orasiga qo'lini tiqdi. Plitani surishdi va Tornning ko'zi yoshga to'ldi. Kichkinagina qabrda chaqaloqning suyaklari yotar, uning bosh suyagi majaqlangandi.

- Boshi... - ho'ngradi Torn.

- ... E Xudo...

- Ular uni o'ldirishgan ekan!

- Ketdik.

- Ular mening o'yolimni o'ldirishgan ekan! - qichqirdi Torn ovozining boricha. - Ular uni o'ldirishgan ekan! Mening o'yolimni o'ldirishgan ekan!

Jennings Tornni o'rnidan turg'izdi va uni kuch bilan sudray boshladi. Ammo u kutilmaganda qo'rquvdan titrab ketib, joyida qotib qoldi.

- Torn, bu yoqqa qara.

Torn Jennings ko'rsatgan tarafga qaradi va qop-qora itning boshiga ko'zi tushdi. Itning yonayotgan ko'zlari bir-biriga yaqin joylashgan, uning og'zidan so'lak oqardi. Yaqin atrofda uvillash eshitildi. Torn va Jennings qimirlamay turishardi. It butalar orasidan chiqib keldi. U ozib ketgan, hammayog'i yara-chaqa bo'lib, biqinida yangi jarohatning izi bor edi. Butalar shitirlab, yana bitta itning tumshug'i ko'zga tashlandi. Keyin yana va yana itlar paydo bo'la boshladi. Go'yoki butun qabrston harakatga kelayotgandek edi. Atrofni qora sharpalar bosib ketgan, ular och qolgan, o'nlab quturgan itlar edi. Ularning og'zidan so'lak oqardi. Jennings va Torn hattoki bir-birlariga qarashga ham jur'at qila olishmasdi. Uvillayotgan itlar to'dasi hozircha joyidan qimirlamay turardi.

- Ular... murdalarning hidini sezishyapti... - shivirladi Jennings. - Orqaga yurish kerak.

Ular nafaslarini yutganicha, asta-sekin ortga chekina boshlashdi. Shu lahzada itlar ularga tashlanishdi. Torn toyib ketdi va beixtiyor baqirib yubordi. Jennings shu zahoti unga yopishdi va xotirjamlikni saqlash maqsadida pichirladi:

- Yugurmaslik kerak... ularga faqat jasadlar kerak...

Ammo itlar qabrlarni aylanib o'tib ko'zlarini tiriklardan uzmay turishardi. Itlar va odamlar orasidagi masofa qisqarib borar, yirtqichlar tobora yaqinlashib kelishardi. Torn va Jennings ortga chekinib borishardi. Shu payt ular orqadagi to'siqqa urilishdi.

Torn qaltiraganicha Jenningsga yopishdi. Ular tosh sanamning oyog'i ostida turishardi. Itlar ularni har tarafdan o'rab olgandi.

Yirtqichlar va ularning qurbonlari qandaydir soniyalarga jim bo'lib qolishdi. Quyosh botayotgan va qabrston ortida ufq qizarib ketgandi. Itlar olg'a tashlanish haqidagi buyruqni kutishardi.

Jennings jahd bilan itlarning yo'l boshchisini lom bilan urdi va itlar shu zahoti ularga otishdi. Jenningsni yiqitgan yirtqichlar uning tomog'idan tishlashga urinishardi. Muxbir yerda yotganicha tipirchilar, fotoapparat tasmasi uning bo'yniga o'ralib qolgandi.

Jennings itlardan qutulishga harakat qilardi.

Torn to'siq yoniga yetib olishga erishdi. Shu payt unga katta it tashlandi va tishlarini uning yelkasiga botirdi. Jeremi cho'kkalab qoldi va boshqa itlar ham unga tashlanishdi. Tishlarning sharaqlashi eshitar, Jeremining ustiga so'laklar oqardi. Torn

emaklagancha to'siqqa yaqinlashishga urindi. U tishlarning tanasiga qanday botayotganini his qilardi. U bir necha soniyaga yerda yumalayotgan Jenningsga qarashga ulgurdi. Torn oyoriqni his etmasdi, uning xayolida bitta fikr bor edi - bu yerdan qochish! Jeremi emaklagancha to'siq tomon keta boshladi. Itlar uning yelkasiga yopishishdi. Uning qo'li qandaydir sovuq narsaga tegdi. Bu

Jennings qo'lidan tushirib yuborgan lom edi. U lomni mahkam tutdi va ortiga siltadi. Ayanchli akillash eshitildi va Torn itlardan biriga boplab tushirganini bildi. Uning yelkasi qondan ho'l bo'lib ketdi va ortiga o'girilgan Torn bir itning ko'zi oqib tushganini ko'rdi. Bu unga kuch bag'ishladi, u lom bilan itlarni ura ketdi va oyoqqa turib oldi.

Jennings daraxt tagida turardi. Itlar unga tashlanishda davom etishardi. Olishuv paytida kutilmaganda fotoapparat yoritgichi ishlab ketdi va yirtqichlar dahshat bilan orqaga chekinishdi. Torn lomni siltaganicha to'siq tomon chekinardi. Jennings itlar yaqin kelishganida fotoapparat tugmachasini bosar, yoritgich chaqnaganida itlar ortga chekinganidan foydalanib, to'siq tomon yugurardi. Nihoyat u ham panjaraga yetib oldi.

U Tornga yaqinlashdi. Torn panjaraga osilib chiqdi va yangi osilib qolib, qabrston tashqarisiga yiqildi. U oyoriqdan ingrab yubordi. Jennings ham panjaraga osilib chiqdi va kamerani itlarga otib yuborib, o'zini tashqariga otdi. Haydovchi dahshatga tushganicha ularga tikilib turardi. U mashinadan otilib chiqib Jenningsga Tornni mashinaga o'tqizishda yordam berdi.

Jenningsning ko'zi itlarga tushdi. Ular panjaraga tashlanishar, uvillashardi. Ulardan biri panjaradan sakrab o'tishga urindi va undan deyarli sakrab ham o'tgandi, ammo panjara qozig'iga sanchilib qoldi. Uning tomog'idan qon favvora bo'lib otib boshladi. Qon isini sezgan itlar osilib qolgan itga tashlanishdi va uni yorib tashlashdi.

Mashina o'qdek uchib ketdi. Eshikni qarsillatib yoparkan, haydovchi oyna orqali yo'lovchilariga nazar tashladi. Ularning butun a'zoi badani osilib qolgan et va qondan iborat edi. Torn va Jennings bir-birlariga mahkam yopishganlaricha, yosh bolalardek ho'ngrab yiyolashardi.

11

Taksichi ularni tibbiy yordam markaziga olib bordi, ularning yuklarini mashinadan tushirib, jo'nab qoldi. Torn yuz bergan voqeadan o'ta ta'sirlanib ketgandi. Barcha savollarga uning o'rniga Jennings javob berdi. U o'zlarining haqiqiy ismlarini aytmadi va shunday yolg'on to'qidiki, unga kasalxonadagilar ishonishdi. U o'lgudek ichishganini va qo'riqchi itlar tomonidan muhofaza

qilinadigan xususiy mulkka borib qolishganini aytdi. Bu shahar atrofida yuz bergan, o'ta mastlikda ular panjaradan oshib o'tishib, itlar hujumiga duch kelishgandi. Ularning yaralariga dori qo'yishdi, quturishga qarshi emlashdi va bir haftadan so'ng qon topshirgani kelishlarini buyurishdi. Ular bu yerdan chiqib kichikroq mehmonxonaga borishdi va soxta ismlar bilan u yerga joylashishdi.

Torn telefonga yopishdi va Jennings xonada u yoqdan bu yoqqa yurayotganida, Katerina bilan boyolanishga urindi.

- Ular seni o'ldirishi mumkin edi, ammo o'ldirishmadi, - dedi Jennings tahlikali ovozda. - Ular MYeNI o'ldirishga urinishdi.

Torn Jenningsga jim bo'lishini so'rab qo'lini ko'tardi va Jennings uning ko'yilagida qon dog'ini ko'rdi..

- Eshityapsanmi, Torn?! Ular menga tashlanishdi!!

- Bu kasalxonami? Ha, u 44-palatada.

- E Xudo, agar kameram bo'lmaganida edi... - davom etdi Jennings.

- Iltimos, jim turib tur, gaplashib olay.

- Biz nimadir qilishimiz kerak, Torn. Eshityapsanmi?

Torn Jenningsga o'girildi va uning bo'ynidagi jarohatga ko'zi tushdi.

- Menga Megiddo shahrini top, - dedi u.

- Jin ursin, qayerdan topaman?

- Bilmadim. Kutubxonaga bor.

- Kutubxonaga? Obbo!

- Allo? - dedi Torn. - Katerina?

Katerina erining ovozidagi tashvishni sezib, karavotga o'tirdi. U go'shakni sog' qo'lida ushlab turar, bir qo'li harakatsiz osilib turardi.

- Tuzukmisan? - dedi Torn xavotirlanib.

- Ha. Senchi?

- Ha. Men shunchaki...

- Qayerdasi?

- Rimda. "Imperator" mehmonxonasida.

- Nima bo'ldi?

- Hech narsa.

- Kasalxonasidan?

- Yo'q.

- Jeremi, bu yoqqa qayt.

- Hozir emas.

- Men qo'rquyapman.

- Hech narsadan qo'rqma.

- Uyga qo'ng'iroq qilsam, go'shakni hech kim ko'tarmayapti.

Torn Jenningsga qaradi. U kiyinib, ko'chaga chiqib ketishga tayyorlanayotgandi.

- Jerri, - dedi Katerina. - Yaxshisi, uyga boraqolay.

- Joyingdan jilma, - iltimos qildi Torn.

- Demendan tashvishdaman.

- Uyga umuman yaqinlasha ko'rma, Katerina!

- Borishim kerak...

- Quloq sol, Katerina. Uyga bora ko'rma!

Katerina uning ovozidagi xavotirni sezib jim bo'lib qoldi.

- Agar mendan tashvishlanayotgan bo'lsang, - dedi u, - buning hojati yo'q. Men ruhshunos bilan gaplashdim va ba'zi narsalarni tushuna boshladim. Bunga Demen emas, o'zim sababchi ekanman.

- Katerina...

- Men hozir litium ichyapman. U tushkunlikka qarshi yordam beradi. Men uyga ketmoqchiman. Sening ham qaytishingni istayman. - U jim bo'lib qoldi. Uning ovozi birdan xirillab chiqa boshladi. - Hammasi yaxshilik bilan tugashini xohlayman.

- Bu dorini senga kim berdi? - so'radi Torn.

- Griyer.

- Kasalxonadan ketma, Katerina. Men qaytgunimcha, hech qayerga siljima.

- Uyga ketmoqchiman, Jerri.

- Xudo haqqi...

- Men soppa-sog'man!

- Yo'q!

- Tashvishlanma.

- Katerina!

- Men uyga ketaman, Jerri.

- Yo'q! Men qaytaman.

- Qachon?

- Ertalab.

- Balki uyda biror voqea yuz bergandir? Uyga qo'ng'iroq qilsam...

- Ha, uyda nimadir sodir bo'lgan, Katerina.

Katerina bu so'zlardan so'ng jim bo'lib qoldi.

- Jerri? - so'radi u sekingina. - Nima bo'ldi?

- Telefonda aytolmayman, - o'tinch bilan dedi Torn.

- Nima bo'ldi? Uyimizda nima bo'ldi?

- Meni kutib tur. Kasalxonadan ketma. Men ertalab yetib boraman va hammasini tushuntirib beraman.

- Iltimos...

- Bu seni deb emas, Katerina. Sen bilan hamma narsa joyida.

- Nima deyapsan?

Jennings Torn'ga qaradi va bosh chayqadi.

- Jerri?

- U bizning farzandimiz emas, Katerina. Demen bizning bolamiz emas.

- Nima?

- Uyga bora ko'rma, - ogohlantirdi Torn. - Meni kut.

U go'shakni qo'ydi. Katerina hayratdan qotib qolgandi. Birdan u vahima uni tark etayotganini sezdi. Dori ta'sir qilgan va uning xayoli joyiga kelib qolgandi. Katerina go'shakni ko'tardi va uyining telefon raqamini terdi. Go'shakni hech kim ko'tarmadi. U karavot yonidagi tugmachani bosdi.

- Eshitaman, xonim? - degan ovoz keldi.

- Men kasalxonadan ketmoqchiman. Bu masalada kim bilan gaplashishim kerak?

- Siz shifokordan ruxsat olishingiz kerak.

- Menga uni topib bering, iltimos.

- Harakat qilib ko'raman.

Katerina yana sukunat og'ushida qoldi. Hamshira tushlik keltirdi, ammo uning ishtahasi yo'q edi. Patnis ustida kichkina idishda murabbo bor edi. Katerinaning barmog'i unga tasodifan tegib ketdi va murabbo muzday tuyuldi.

Kasalxonadan yuzlab mil narida, Cherveteri qabristonida jimjitlik hukm surar, faqatgina yer kavlanayotganga o'xshash tovush jimlikni buzardi. Ochilgan qabrlar oldida ikkita it panjalari bilan tuproqni o'yib, ochilgan qabrlarni to'ldirishardi. Tuproq sekin-asta shoqol va chaqaloqning suyaklarini ko'mib borardi. Temir panjara ustida esa itlardan birining dahshatli jasadini osilib turardi. Bir it tumshug'ini cho'zdi va past ovozda uvilladi. Bu uvillash butun qabriston bo'ylab tarqaldi va unga qolgan yirtqichlar ham jo'r bo'lishdi. Butun atrofni itlarning uvillashi tutib ketdi.

Katerina yotgan joyida yana tugmachani bosdi. Uning ovozida sabrsizlik alomati bor edi.

- Kim bor? - dedi u.

- Eshitaman, - dedi kimdir.

- Menga shifokorni chaqirib berishlarini so'ragandim.

- Buning iloji yo'q. U operatsiya xonasida.

Katerina achchiqlandi.

- Menga yordam bera olmaymizmi?

- Birortasini jo'nataman.

- Iltimos, tezroq.

- Xo'p bo'ladi.

Katerina qiyinchilik bilan o'rnidan turdi va shkaf yoniga bordi. U ko'yilagini olib ko'zguga tikilganicha kiyinishga tutindi. Katerina gipslangan qo'l bilan kiyinish oson emasligini o'yladi va ko'yilagini boshiga ildi. Ko'yilagini kiya olmayotgan Katerinani vahima bosdi. Kutilmaganda eshik ochildi va u yengil nafas oldi - kimdir unga yordamlashgani kirgan edi.

- Ey, - dedi Katerina ko'yilagi orasidan kirgan odamga qarashga urinarkan.

Ammo unga javob bo'lmadi.

- Kim u?

U qotib qoldi.

Uning ro'parasida Beylok xonim turardi. Uning yuziga upa chaplangan, lablariga qizil labbo'yoq surtilgandi. Katerina Beylok xonim derazani ochib pastga qarashini kuzatib turdi.

- Menga yordam bera olmaymizmi... - pichirladi Katerina. - Qiynalib qoldim.

Beylok xonim tirjaydi, bundan Katerinaning yuragi orqaga tortib ketdi.

- Ajoyib kun, Katerina, - dedi ayol. - Parvoz qilish uchun ajoyib kun.

U Katerinaning ko'yiligidan mahkam ushladi.

- O'tinaman, - yalindi Katerina.

Ularning ko'zlari oxirgi marta uchrashdi.

- Siz judayam go'zalsiz, - dedi Beylok xonim. - Bizga havoda turib bo'sa yo'llang.

U Katerinani deraza tokchasi oldiga sudrab keldi va derazani katta ochdi.

Bemorlarni qabul qilish bo'limiga "tez yordam" mashinasi qizil chiroqlarini yoqib yetib keldi. Shu lahzada yettinchi qavat derazasidan yuziga alvon mato yopilgan ayol pastga tushib ketdi. U juda uzoq vaqt tushdi va mashina ustiga zarb bilan tushguniga qadar uni hech kim sezmad. So'ngra ayolning tanasi bir titradi va abadiy uyquga ketdi.

Shu onda Cherveteri qabristoniga sukunat cho'kdi. Qabrlar tuproq bilan to'ldirilgandi va itlar butalar orasiga kirib ketishdi...

Torn qattiq charchagandi va birpasda uxlab qoldi. Uni telefon qo'ng'irog'i uyg'otib yubordi. Jennings hali qaytmagandi.

- Ha? - dedi uyqusiragan ovozda Torn.

Qo'ng'iroq qilgan kishi shifokor Bekker bo'lib, uning ovozi xavotirli edi.

- Xudoga shukr, sizni topdim, - dedi u. - Mehmonxonaning nomini Katerina qog'ozga yozib qo'ygan ekan...

- Nima bo'ldi?

- Katerina kasalxona derazasidan o'zini tashlab yuboribdi.

- Nima? - Tornning ovozi chiqmay qoldi.

- U o'ldi, janob Torn. Biz qo'limizdan kelgan barcha choralarni ko'rdik.

Tornning tomog'iga nimadir tiqilib qolgan, u gapira olmasdi.

- Biz nima yuz berganini aniq bilmaymiz. U kasalxonadan ketmoqchi bo'lgan ekan, keyin uning jasadini ko'chadan topdik.

- U o'ldimi?..- dedi Torn zo'rg'a.

- O'sha ondayoq. Uning boshi majaqlanib ketgan.

Torn oh urdi va go'shakni ko'ksiga bosdi.

- Janob Torn...

Ammo Torn go'shakni qo'yib qo'ygandi. U yiyolardi.

Yarim tunda Jennings qaytib keldi, u o'lgudek charchagandi. U karavotda yotgan Tornnga nazar tashladi.

- Torn?
- Ha, - pichirladi Torn.
- Men kutubxonaga bordim, so'ngra Qirollik Geografiya Jamiyatida bo'ldim.
Torn javob bermadi va Jennings karavotga o'zini tashladi. U Tornning ko'ylagidagi qonli dog' yanada kattalashganini ko'rdi.
- Men Megiddo shahrini topdim. Uning nomi "Armageddon" - "Qiyomat" so'zidan kelib chiqqan ekan.
- Qayerda joylashgan ekan? - sabrsizlik bilan so'radi Torn.
- Qo'rqamanki, ellik fut yer ostida. Quddus yaqinida. U yerda hozir qazish ishlari ketyapti ekan. Menimcha, Amerikaning qaysidir universiteti tomonidan.

Jennings karavotga astoydil o'rnashdi. U juda charchagandi.

- Men u yerga bormoqchiman, - pichirladi Torn.

Jennings bosh silkidi va xo'rsindi.

- Agar qariyaning ismini topganimizda edi...

- Bugengagen.

- Bugengagen?

- Ha. She'rlar ham yodimga tushdi.

Jennings Tornnga ishonqiramay qaradi.

- Siz uchrashishingiz lozim bo'lgan kishining ismi Bugengagenmi?

- Ha.

- Bugengagen - odamlarning tanasidan iblisni quvgan kishi, u o'n yettinchi asrda yashagan va kitoblardan birida uning nomi tilga olingan.

- Aynan mana shu ism, - istamaygina javob berdi Torn. - Men hammasini esladim. Uning barcha gaplarini.

- Xudoga shukr! - dedi Jennings.

- "U Sionga kelganida... - boshladi Torn eshitilar-eshitilmas qilib. - Samo kometani yo'llaydi... Va Rim yuksaladi... Biz ziyoni qaytib ko'rmaymiz".

Jenningsning butun vujudi quloqqa aylangandi. U Tornning so'zlash ohangidan uning hayotida nimadir yuz berganini sezdi.

- "Abadiy dengiz tubidan yirtqich chiqib keladi... - davom etdi Torn. - Va so'nggi qoni qolguncha jang qilish uchun lashkar keladi... Aka o'z ukasini o'ldiradi va qilichini... oxirgi insonning yuragi urishdan to'xtamaguncha tashlamaydi".

U gapirishdan to'xtadi. Jennings ko'chada o'tib ketayotgan politsiya mashinasining ovozi uzoqlashgunicha kutib turdi va derazaga yaqinlashdi.

- Nima bo'ldi? - so'radi u.

- Katerina o'ldi, - befarqlik bilan javob berdi Torn. - Bola ham o'lishini istayman.

Ular tonggacha uxlashmadi. Soat sakkizda Torn El Al kompaniyasiga qo'ng'iroq qildi va Isroilga uchish uchun chiptaga buyurtma berdi.

Torn tez-tez safarlarga chiqqan bo'lsada, Isroilga hech qachon kelmagandi. Uning bu mamlakat haqidagi bilimlari gazetalardagi yangiliklardan va yaqindagina Injilda o'qiganlaridan iborat edi. U Isroilning zamonaviy, ilg'or davlat ekanligidan ajablandi.

Fir'avnlr davrida ham mavjud bo'lgan, lekin yaqindagina, asfalt va betonlar davrida qaytadan paydo bo'lgan bu davlat sahroning o'rtasiga tushib qolgan qumsuvoq parchasiga o'xshardi. Uning osmoni bir paytlar yahudiylarning Misrdan qochishlariga shohid bo'lgandi; hozir esa osmono'par binolar va mehmonxonalar ko'kka qadar bo'y cho'zgandi.

Butun atrofni qurilishlar shovqini tutib ketgandi. Ulkan yuk ko'tarish kranlari xuddi fil singari o'z "xartum"larida yuklarni u yoqdan bu yoqqa olishardi. Shahar xuddi har tomonga kengayish uchun urinayotganday edi. Ko'p yerlarda asfalt bo'linib ketgan, yaqinda qurilgan, ammo eskirib ketgan yo'llar qaytadan qurilayotgandi. Hamma yoqqa Muqaddas Yer bo'ylab sayohat qiluvchilar e'tiborini tortuvchi e'lonlar osib tashlangandi. Politsiyaning ham ishi boshidan oshib yotardi: ular qo'poruvchilarni topish maqsadida chamadon va xaltalarni tekshirib chiqishardi.

Torn va Jenningsni ayeroportda uzoq ushlab qolishdi: ularning jarohatlari va ko'kargan yuzlari shubha uyg'otgandi. Torn Amerika ma'muriyatidan ekanligini yashirish maqsadida fuqarolik pasportini ko'rsatdi.

Ular taksida Xilton mehmonxonasigacha borishdi, so'ngra do'kondan yupqa kostyumlardan sotib olishdi. Issiq kuchayib borardi.

Tornning jarohatiga oqib tushgan ter yarasini achishtirardi. Jennings buni sezib, Tornnga shifokorga borishni taklif qildi. Ammo Torn Bugengageni topish ishtiyoqida yonardi.

Torn va Jennings bozor tomon yurishdi va hammadan Bugengagen haqida so'ray boshlashdi. Bu ismni hech kim eshitmagandi va ular qidiruvni davom ettirishdi. Torn umidsizlikka tushgan, oyog'ini arang sudrardi. Jennings esa aksincha, juda tetik bo'lib, do'konlar, fabrikalarga kirib chiqar, telefon kitoblarini tekshirardi, u hatto bir marta politsiya bo'limiga ham kirib chiqdi.

- Balki u ism-sharifini o'zgartirgandir, - dedi Jennings uf tortib ertasiga ertalab ular parkda o'tirishganida. - Ehtimol, endi uning ismi Jorj Bugendir. Yoki Jim Gagen. Yoki Izzi Gagenberg.

Ertasiga ular Quddusdagi kichikroq mehmonxonalardan biriga joylashishdi. Ular o'sha g'alati ismni hech bo'lmasa eshitgan odamni izlab kun bo'yi tentirashdi. Ammo samarasi bo'lmadi.

- Yengilganga o'xshaymiz, - dedi Jennings mehmonxona ayvonidan pastga qararkan.

Xona isib ketgan, Torn terga botganicha karavotda yotardi.

- Agar bu yerda bittayu bitta Bugengagen bo'lsa, uni topish uchun birorta ham imkoniyatimiz yo'q. Biz esa uning umuman mavjud emasligini ko'rib turibmiz.

U xonadan sigaret qidira boshladi.

- Jin ursin, o'sha kichkina ruhoni doim morfiy iste'mol qilib yurgan, biz esa uning so'ziga laqqa tushibmiz. Yaxshiyamki, u senga Oyga uchishing lozimligini aytmapti.

U karavotga o'tirdi va Tornnga qaradi.

- Tushunolmayapman, Torn. Bir necha kun ilgari men qidiruvlarimizning naqadar zarurligiga ishonardim, hozir esa bu narsa menga bema'nilikdek tuyulyapti.

Torn bosh iring'adi va oyoriqdan yuzlari tirishib karavotga o'tirdi. U bintni yechdi va Jennings uning ochilib qolgan yarasini ko'rdi.

- Yarang menga yoqmayapti.

- Hammasi joyida.
- Yiring boylayapti shekilli.
- Hechqisi yo'q, - dedi Torn.
- Nima uchun senga shifokor topishimni so'ramayapsan?
- Yaxshisi, qariyani top, - dedi Torn. - Menga kerakli bo'lgan yagona odam u.
Jennings Torniga endigina javob berishga tutingandi, ammo eshik taqillab qoldi. U eshikni ochib, ostonada tilanchini ko'rdi. U pastak bo'yli arab bo'lib, beligacha yalang'och edi. Arab tilla tishlarini ko'rsatib tirjaydi va boshi yerga tekkuday engashdi.
- Nima kerak? - so'radi Jennings.
- Qariyani sizlar izlayapsizlarmi?
Jennings va Torn bir-birlariga qarashdi.
- Qaysi qariyani? - so'radi Jennings ehtiyotkorlik bilan.
- Bozorda menga sizlar qariyani izlayotganingizni aytishdi.
- Ha, biz bir kishini izlayapmiz.
- Men sizlarni uning oldiga boshlab boraman.
Torn o'rnidan zo'rg'a turdi va Jenningsga ma'noli boqdi.
- Tezroq-tezroq, - ularni undadi arab. - U sizlar ayni paytida kelganingizni aytdi.
Ular Quddusning tor ko'chalari bo'ylab piyoda ketishardi. Tez va jimgina qadam tashlashardi. Arab ularga yo'l ko'rsatardi. U yoshiga nisbatan juda chaqqon edi. Torn va Jennings uni ko'zdan qochirmaslikka harakat qilishar, ammo u burilishlarda ko'zdan g'oyib bo'lib qolardi. Torn va Jennings unga halloslab yetib olishganida u tirjaydi. Chamasi, ularning safari nihoyasiga yetgandi, oldinda g'ishtli devor qad ko'targandi. Jennings va Torn "ahmoq bo'ldik" degan fikrga borishdi.
- Pastga, - dedi arab burchakdagi temir panjarani ko'tararkan.
- Bu yana nimasi? - ikkilandi Jennings.
- Tezroq-tezroq, - dedi arab.
Torn va Jennings unga itoat qilishdi. Arab ularning ortidan tushdi. Yer osti juda qorong'i edi va arab mash'ala yoqdi. Arab ularni tobora ichkariroqqa boshlab borardi. Ular mash'alaning xira nurida toshdan qilingan zinapoyani ko'rishdi. Kanalizatsiya tizimi atrofidan o'sib chiqqan jigarrang tUSDagi o'simliklar hammayoqni qoplab olgan, ularning yurishini qiyinlashtirardi. Ular sekin-asta ehtiyotkorlik bilan pastga tushishardi. Zinapoya tugagach, arab yana tezlik bilan ildamladi. Torn bilan Jennings yugurishga urinishar, ammo ular yerga yotqizilgan silliq tosh yo'lakda sirg'anib ketishardi. Arab ko'zdan yo'qoldi va uning qo'lidagi mash'ala yorug' nuqtaga o'xshab ko'rina boshladi. Ular zulmatda qolishdi va sekin oldinga yura boshlashdi. Yer osti yo'lagidan kanalizatsiya tizimi o'tgandi va Jennings birdan arxeologlar aytgan "murakkab va boshni aylantiruvchi kanallar tizimi" shu emasmikin deb o'ylanib qoldi. Mash'alaning nuqtadek yorug'i ham ko'zdan g'oyib bo'ldi va ular yolg'izliklarini his etishdi.
- Jennings, - dedi Torn og'ir-og'ir nafas olarkan.
- Shu yerdaman.
- Hech nimani ko'rmayapman...
- Bu ablah...
- Meni kutib tur.
- Yurishning foydasi yo'q, - dedi Jennings. - Biz devorga taqaldik.
Torn oldinga yurib, Jenningsning yoniga keldi. Qo'lini uzatgan edi devorga tegdi. Yo'lak tugagandi. Arab esa yo'qolib qolgandi.
- U boshqa yo'l bilan keta olmaydi, - to'ng'illadi Jennings. - Bu aniq.
U gugurt chaqdi va maqbaraga o'xshagan yer osti inshootining kichik bir qismi yorishib ketdi.
- Bu nima - suv quvurimi? - so'radi Torn.
- Bu yer zax, - dedi Jennings. - Qanaqasiga zax bo'lishi mumkin?
Gugurt o'chdi va ular yana zulmat ichida qolishdi.
- Bu yer quruq cho'l. Jin ursin, suv qayerdan kelgan?
- Chamasi, yer osti bulog'i bor... - taxmin qildi Torn. - Ketdik.
- Devorni teshib o'tamizmi?
- Orqaga qaytamiz. Bu yerdan chiqib ketish kerak.
Ular devorni paypaslaganlaricha orqaga qaytishdi. Ular zo'rg'a yurishar, har bir qadami go'yoki olis masofadek tuyulardi. Kutilmaganda Jenningsning qo'li havoda osilib qoldi: u bo'shliqni sezdi.
- Torn?
Jennings Tornning qo'lidan ushlab o'ziga tortdi. Yer osti yo'lagining burchagida qandaydir darcha bor edi. Ular bu darchani sezmay o'tib ketishgandi.
- Pastda yoruyolik ko'rinyapti, - shivirladi Torn.
- Bu bizning yo'l boshlovchimiz bo'lsa kerak.
Torn va Jennings darchadan o'tishdi. Ular g'orga kirib qolishdi. Bu yorug' zal edi. Uning markazida ularni ikki kishi kutib turardi. Ulardan biri o'sha arab edi. Ikkinchisi esa mallarang kalta shim va yengi kalta ko'ylak kiygan qariya edi. U jiddiy qiyofada turar, terlab ketganidan ko'ylagi tanasiga yopishgandi. Torn va Jennings qariyaning ortidagi stol ustida bir uyum kitob sochilib yotganini ko'rishdi.
Yoruyolikdan ularning ko'zlari qamashib ketdi. Zalda o'nlab mash'alalar yonib turardi.
- Ikki yuz dirham, - dedi arab va qo'lini cho'zdi.
- Unga pul bera olasizlarmi? - dedi kalta shimli kishi.
- Siz... - Jennings qariya bosh iring'aganini ko'rib chaynaldi. - Siz...Bugengagenmisiz?
- Ha.
Jennings unga shubha bilan nazar tashladi.
- Bugengagen o'n yettinchi asrda yashagan.
- U mendan to'qqiz avlod ilgari Bugengagen.
- Lekin siz...
- Men oxirgisiman, - uning so'zini bo'ldi qariya, - va ularning ichida eng omadsiziman.

U stolni aylanib o'tdi va kursiga o'tirdi. Chiroq nuri uning yuzini yoritdi: qariyaning yuzi oppoq edi, uning yuzidagi tomirlari ko'rinib turardi.

- Bu yer qanaqa joy? - so'radi Torn.

- Jezril, Megiddo shahri, - dedi u. - Mening qo'rg'onim, mening qamog'im. Xristianlik shu yerdan boshlangan.

- Sizing qamog'ingiz? - so'radi Torn.

- Juyorofiy tomondan qaraganda bu yer xristianlikning yuragi. Shuning uchun bu yerdaligimda menga hech kim va hech narsa zarar yetkaza olmaydi.

Qariya ularning holatini kuzatdi. Torn va Jenningsning yuzlarida taajjub alomatlari zohir bo'lgandi.

- Choparimga pul bera olasizmi? - so'radi qariya.

Torn cho'ntagiga qo'l suqib bir siqim pul oldi. Arab ularni xoli qoldirib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Xona sovuq va zax edi. Torn va Jennings qaltirashardi.

- Bu maydondan, - dedi Bugengagen, - bir paytlar Rim lashkarlari o'tishgan, tosh o'rindiqlarda o'tirgan qariyalar esa Isoning tug'ilishini bashorat qilishgan. Ularning barcha so'zlari mana bu yerda yozilgan, - u qo'li bilan devorga ishora qildi, - shu binoda bizga Injil nomi bilan ma'lum bo'lgan kitob bitilgan.

Jennings qorong'i g'orga ko'z tikkandi va Bugengagen buni sezdi.

- Mana shu yerda butun bir shahar joylashgan. Shimoldan janubgacha 35 chaqirim keladi. Uning katta qismida hozircha yursa bo'ladi. Yuqorida qazish ishlari ketyapti. Shuning uchun yer o'pirilmoqda. Ular bu yerga yetib kelishganida vayronalar qoladi xolos.

Torn va Jennings bu yerda ko'rayotgan va eshitayotgan narsalarini tushunishga urinib, jimgina turishardi.

- Anavi pastak bo'yli ruhoniychi? - so'radi Bugengagen. - U allaqachon o'lgandir?

Torn Tassoneni dahshat bilan eslab unga o'girildi.

- Ha, - dedi u.

- Unday bo'lsa, o'tiring, janob Torn. Yaxshisi zudlik bilan ishga kirishaylik.

Torn joyidan qimirlamadi, qariya esa Jenningsga nigoh tashladi.

- Bizni kechirasiz. Buni faqat janob Torngina bilishi lozim.

- Biz birgamiz, - javob berdi Jennings.

- Yo'q.

- Uni bu yerga men boshlab keldim.

- Ishonamanki, buning uchun u sizdan minnatdor bo'ladi.

- Torn...

- Uning aytganini qil, - dedi Torn qat'iy tarzda.

Alamdan Jenningsning yuzi burishib ketdi.

- Qayerda kutib turay?

- Bitta mash'alani oling, - dedi Bugengagen.

Jennings bo'ysunishga majbur bo'ldi. U Tornga jahl bilan qaradi-da zulmat sari yo'l oldi.

Oraga noqulay jimlik cho'kdi. Qariya Jenningsning qadam tovushlari eshitilmay qolguncha kutib turdi.

- Unga ishonasizmi? - so'radi Bugengagen.

- Ha.

- Hech kimga ishonmang.

U o'girilib, devorni o'yib qilingan tokchadan tugun oldi.

- Sizga ishonsam bo'ladimi? - so'radi Torn.

Qariya stol yoniga qaytdi va tugunni ochdi. Uning ichida yetti dona pichoq yaltirab turardi. Pichoqlar ingichka bo'lib, fil suyagidan ishlangan soplari xoch shaklida edi.

- Mana bularga ishonib, - dedi u. - Faqat shulargina sizni qutqarishi mumkin.

Oraga sukunat cho'kdi. Jennings olg'a intildi. U atrofga qo'rqinch bilan alangladi. U toshga aylangan binolarning devorlarini, toshdevorga singib ketgan inson suyaklarini ko'rdi. U yana oldinga qadam tashladi...

Torn stolga dahshat bilan tikilib turardi. Pichoqlar xoch shaklida terilgandi.

- Buni muqaddas yerda bajarish lozim, - shivirladi qariya. - Cherkovda.

Qariya o'zini to'yori tushunganiga ishonch hosil qilish uchun Tornni diqqat bilan kuzatdi.

- Har bir pichoqni sopigacha sanchish lozim. Ular xoch shaklida sanchilishi kerak. Birinchi pichoq eng asosiysi. U hayotiy kuchni yo'q qiladi va xochning asosini tashkil etadi. Qolganlari esa ruhiy quvvatni yo'q qiladi va ularni mana bunday tartibda sanchish lozim...

U jim bo'lib qoldi va Tornga qaradi.

- Siz shafqat qilmasligingiz kerak, - tushuntirdi u. - U inson farzandi emas.

Torn e'tiroz bildirmoqchi bo'ldi. Uning ovozi qandaydir qo'pol, o'zinikiga o'xshamasdi.

- Balki siz adashayotgandirsiz? - dedi u. - Balki u...

- Hech qanday xato bo'lishi mumkin emas.

- Bunga birorta dalil bo'lishi kerak...

- Uning tug'ma belgisi bor. Uchta olti.

Tornning nafasi bo'g'ildi.

- Yo'q, - dedi u.

- Injilda shunday deyilgan, Shaytonning barcha elchilarida shu belgi bor.

- Lekin unda bunday belgi yo'q.

- O'n ikkinchi sura, oltinchi oyat. "Kimning idroki bo'lsa, ajal keltiruvchi Mal'un Yirtqichning raqamini biladi. Bu raqam insonlarga ham mos tushadi. U oltita yuz, oltita o'n va olti".

- Aytyapmanku, unda bunday belgi yo'q.

- Belgi bo'lishi kerak.

- Men uni cho'miltiganman. Uning badanini yaxshi bilaman.

- Belgini sochlari ostidan topasiz. Tug'ilganda uning sochlari qalin edi, shunday emasmi?
Torn chaqaloqni ilk bor ko'rgan lahzani esladi. Go'dakning sochlari qalin va uzun ekanligidan hayratlangani ham yodiga tushdi.
- Sochlarini qirib tashlang, - maslahat berdi Bugengagen. - Ana shunda belgini ko'rasiz.
Torn ko'zlarini yumdi va boshini egdi.
- Siz boshidanoq umuman ikkilanmasligingiz kerak. So'zlarimga shubha qilyapsizmi?
- Bilmadim, - dedi Torn og'ir tin olib.
- Qariya o'zini orqaga tashladi va unga boqdi.
- Oldindan aytilganidek, bola tug'ilishga ulgurmasdanoq bu dunyoni tark etdi. Xotiningiz halok bo'ldi.
- U bor-yo'g'i go'dak!
- Sizga yana dalil kerakmi?
- Ha.
- Unda kuting, - dedi Bugengagen. - Ammo shuni bilingki, siz imon keltirishingiz lozim. Aks holda buni uddalolmaysiz. Agar shubhaga borsangiz, ular sizni yengadilar.
- Ular?
- Siz uyingizda yana bir ayol borligini aytgandingiz. Bolaga qaraydigan enaga.
- Beylok xonim...
- Qariya bir nima yodiga tushganday bosh silkidi.
- Uning haqiqiy ismi Baalok. U iblisning yordamchisi. U yo'lingizga to'g'anoq bo'lish uchun jon-jahdi bilan harakat qiladi. Ular jim bo'lib qolishdi. G'or ichida qadam tovushlari eshitildi. Zulmat ichidan Jennings chiqib keldi. Uning yuzida taajjub alomatlari bor edi.
- ... Minglab skeletlar... - pichirladi u.
- Yetti ming, - aniqlik kiritdi Bugengagen.
- Bu yerda nima bo'lgan?
- Megiddo - Armageddon yuz bergan joy. Qiyomat.
Jennings ko'rgan narsasidan hali ham hayratda edi.
- Siz... Armageddon allaqachon sodir bo'lgan demoqchimisiz?
- Ha, albatta, - javob berdi qariya. - hali yana ko'p marta sodir bo'ladi.
U shu so'zlarni aytib pichoqlar solingan tugunni Tornga uzatdi.
Torn rad qilishga urindi, ammo Bugengagen tugunni uning qo'lga tutqazib qo'ydi. Ularning nigohlari to'qnashdi.
- Men uzoq umr ko'rdim, - dedi Bugengagen qaltiroq ovozda. - Umrim bekor ketishini istamayman.
Torn Jenningsning ortidan ergashdi. U so'nggi marta ortiga o'girildi. Mash'alalar ko'rinmas, hamma narsa qorong'ulikka singib ketgandi.
- Ular Quddus bo'ylab jimgina ketishardi. Torn tugunni mahkam ushlab olgandi. U hech narsaga e'tibor bermay ko'zlarini oldinga tikkanicha yurib borardi. Jennings unga bir necha marta savol berdi, ammo Torn indamadi. Ular qurilish ishlari ketayotgan torko'chaga kirishdi va suratkash shovqinda ovozi eshutilishi uchun Tornning qulog'iga baqirdi.
- Menga qara! Men qariyaning nima deganini bilmoqchiman. Bunga mening haqqim bor, shunday emasmi?
Ammo Torn xuddi undan qutulmoqchi bo'lganday oldinga tikilganicha qadamini tezlatdi.
- Torn! U nima deganini bilmoqchiman!
Jennings oldinga tashlandi va Tornning yengidan tortdi.
- Ey! Men begona emasman! Axir buni men topdim-ku!
Torn yurishdan to'xtadi va Jenningsga tik boqdi.
- Ha. To'yori. Hammamizni sen topding.
- Nima demoqchisan?
- Sen bu narsalarni haqiqat deb o'ylaysan. Bu bema'nilikni mening miyamga sen quyding!..
- To'xtab tur...
- Hamma suratlarini sen olding!
- Shoshma...
- Meni bu yerga sen olib kelding!
- Senga nima bo'ldi?
- Men esa aslida sening kim ekanligingni ham bilmayman!
- Torn Jenningsning qo'lidan yulqinib chiqdi, ammo Jennings yana unga yopishdi.
- Menga birpas quloq solib tur.
- Shuncha quloq solganim yetar.
- Senga yordam bermoqchiman!
- Bas qil!
- Ular bir-birlariga hamla qilishga tayyor edilar. Torn g'azabdan titrardi.
- Shunga ishonib yuribman-a! ISHONIBMAN!
- Torn...
- Sen topgan chol o'tmas pichoqlar bilan savdo qilib yuradigan bir gado!
- Nima deyapsan?
- Torn qo'lidagi tugunni silkidi.
- Mana buning ichida pichoqlar bor! Qurol! U mana shu pichoqlarni sanchishimni istaydi! Uningcha, men go'dakni o'ldirishim kerak ekan!
- U go'dak emas!
- Go'dak!
- Xudo haqqi, yana qanday isbot...
- Meni kim deb o'ylayapsan?
- O'zingni bos...

- Yo'q! - qichqirdi Torn. - Men bunday qilmayman! Bu o'yinda qatnashmayman! Bolani o'ldirish? Sizlar meni KIM deb o'ylayapsizlar?!

Torn tugunni jahl bilan otib yubordi. Tugun devorga zarb bilan urildi va g'oyib bo'ldi. Jennings jim bo'ldi va ortiga qayrildi. Ammo Torn uni to'xtatdi.

- Jennings...

- Janob?

- Sizni ortiq ko'rishni istamayman. Men charchadim.

Jennings tishlarini g'ijirlatib yo'ning narigi chetiga o'tdi va devor tagidan pichoqlarni qidira boshladi. Hammayoqqa ahlat to'kib tashlangandi. Atrofni yuk kranlari va mashinalarning shovqini tutib ketgandi. Jennings tugunni topish maqsadida axlatni oyoqlarida titkilay boshladi. U eski chelakning yonida yotgan tugunni ko'rdi va boshi ustida harakatlanayotgan yuk kraniga e'tibor bermay tugunni olish uchun egildi. Yuk kranining xartumi bino chetiga tegib ketdi va soniyalar ichida deraza romlaridan birining oynasi tushib ketdi.

Oyna parchasi xuddi oyboltadek keskir edi.

U Jenningsning boshini shartta uzib yerga tushdi va mayda-mayda bo'laklarga bo'linib ketdi.

Torn dastlab shisha singanini, keyin baqir-chaqirni eshitdi. U odamlarning Jennings ketgan tomonga yugurishayotganini ko'rdi. U yugurayotganlar ortidan ergashdi va to'planganlar orasiga suqildi.

Yerda boshsiz tana yotar, bo'ynidan qon tizillab otildirdi. Ularning yuqorisidagi balkonda turgan ayol telbalarcha kular va pastni ko'rsatardi. Axlat chelak ichida esa ko'zlari katta-katta ochilgan bosh yotardi.

Torn bor kuchini yig'ib oldinga yurdi va Jenningsning jonsiz qo'li yonida turgan tugunni oldi. Uning ko'zlari hech nimani ko'rmasdi. U mehmonxona tomon yo'l oldi.

12

Londongacha parvoz uchun sakkiz soat ketdi. Tornning miyasi umuman ishlashni xohlamasdi. Na qo'rquv, na qayg'u, na ikkilanish bor edi - u faqat amalga oshiradigan ishini o'ylardi xolos. London ayeroportida styuardessa unga xavfsizlikni ta'minlash maqsadida olib qo'yilgan pichoq solingan xaltani qaytarib berdi. Styuardessa ularning chiroyli ishlanganiga e'tibor berdi va Torndan pichoqlarni qayerdan olganligini so'radi. U nimadir deb g'oldiradi va xaltani cho'ntagiga yashirdi. Yarim tun bo'lib, ayeroport yopilgan - bu amaldagi tartibga muvofiq oxirgi reys edi. Shaharni quyuk tuman qoplagandi. hattoki, taksichilar ham uni Pirfordga olib borib qo'yishdan bosh tortishdi. Torn dahshatli yolg'izlikni his etdi.

Nihoyat u taksi topdi. Mashina tumanga singib ketdi. Torn oldinda nimalar kutayotganligini o'ylamasdi. O'tmish allaqachon bir umrga o'tib ketgan, kelajakni ko'rishning esa imkoni yo'q edi. Faqat abadiy davom etayotgan bugun, ayni daqiqalar bor edi xolos. Mashina Pirfordga yetib keldi. Torn taksidan tushdi va yaqindagina ham baxtli hayot kechirgan uyiga qaradi va uning ko'z oldidan bo'lib o'tgan voqealar o'ta boshladi. U Demen bilan o'ynayotgan Katerinani, mehmonlarni kuldirayotgan Chessani ko'rdi.

Kutilmaganda uning ko'z oldiga Jennings keldi va Torn yuragi qinidan chiqib ketay deb urayotganini his etdi.

U butun irodasini jamlab eshikka yaqinlashdi va muzlab qolgan qo'llari bilan eshik tirqishiga kalit soldi. Orqadan qandaydir tovush eshitildi. Kimdir o'rmon tomonga yugurib ketgandek tuyuldi. Jeremining nafasi ichiga tushib ketdi; u ichkariga kirib eshikni yopdi va zulmat ichra atrofqa quloq solib turdi. Torn mehmonxonani aylanib o'tib oshxonaga kirdi, u yerdan garajga o'tdi. "Mercedes"ga o'tirib kalitni soldi. Mashinada anchagina benzin bo'lib, u Londonga borish uchun bemalol yetardi. Keyin u oshxonaga qaytib kirdi va atrofqa quloq soldi.

Oshxonada hamma narsa ilgarigidek turardi. Plita ustida ertalab yeyish uchun bo'tqa qo'yilgandi.

Torn ustun ostiga kelib tugunni ochdi va nazar tashladi. Uning oldida yetti dona pichoq turardi. Torn ularning naqadar ingichka va o'tkirligini ko'rdi. Jeremi pichoqlarni qaytarib o'radi va qaltiroq qo'llari bilan tugunni paltosi cho'ntagiga soldi.

Torn ikkinchi qavatga ko'tarildi va qorong'i yo'lakka chiqdi. U yana Jenningsning o'limini esladi. U Demenning xonasida yo'q bo'lishini, uni Beylok xonim olib ketgan bo'lib chiqishini Xudodan iltijo qila boshladi. Ammo Jeremi ularning nafas olishlarini eshitdi va uning yuragi iztirobga to'ldi. Ayolning xurragi bolaning nafas olishini bosib ketardi. U devorga qapishdi va quloq solib turdi, so'ngra o'z xonasiga kirib chiroqni yoqdi.

Uning joyi solib qo'yilgandi. U karavotga o'zini tashladi. Uning ko'zi stol ustida turgan suratga tushdi. Jeremi va Katerina jilmayib turishardi. Torn ko'zlari yoshga to'lganini sezdi.

Soat tungi ikkiga zang urdi. Torn o'rnidan turib yuvinish xonasiga kirdi. U chiroqni yoqib dahshat bilan o'zini orqaga tashladi.

Katerinaning barcha pardoz buyumlari sochilib yotar, bu yerni kimdir ostin-ustun qilib tashlagandi. Yuz kremlari va upa idishlari ezib majaqlanib tashlangan, devorga lab bo'yog'i chaplangandi. Torn kimdir Katerinani jini suymaganligidan shunday qilganligini sezdi. Buni faqat katta yoshli odam qilishi mumkin edi, chunki idishlar kuchli zarb bilan ezilgan, lab bo'yog'ining izlari esa balandda edi. Torn singan ko'zguda aksini ko'rdi. Uning yuzidagi ajinlar yanada chuqurlashgandi. Jeremi shkafni ochdi. U ancha timirskilanib elektr ustarani topdi. Torn uni ishlatib ko'rdi.

Tornning labi yuqorisida ter tomchilari paydo bo'ldi, u labini artirdi va yuvinish xonasini tark etib qorong'i yo'lak bo'ylab keta boshladi. Bolaning xonasi Beylok xonimning xonasidan keyin joylashgandi. Torn Beylok xonimning eshigi qiya ochiq turgan xonasiga mo'raladi. U chalqancha tushganicha uxlab yotar, bir qo'li karavotdan pastga osilib turar, tirnoqlariga yorqin qizil bo'yoq surtilgan, yuziga esa qalin qilib upa chaplangandi.

Torn qaltiroq qo'llari bilan eshikni yopdi va asrandi farzandining xonasi tomon yo'l oldi. Demen xotirjam uxlab yotardi. Torn chuqur nafas oldi va ustarani mahkam ushlaganicha oldinga qadam tashladi. Ustara vijillab ishlay boshladi va uning ovozi butun xonani tutib ketdi. Bola uxlardi. Torn engashdi, uning qo'llari qaltirardi. U ustarani bolaning boshiga tegizdi. Yerga bir tutam soch tushdi. U ustarani yana yurgiza boshladi. Sochlar yostiqlik ustiga tushardi. Go'dak ingradi va qimirlab qo'ydi. Qo'rquv va qiziqishdan nafasi chiqmay qolgan Torn tobora tezroq harakat qila boshladi. Bola ustaradan boshini olib qochib u yoqdan bu yoqqa qimirlay boshladi. Demen uyg'onib ketdi.

Torn vahimaga tushdi va uning boshini yostiqlikka bosdi. Qo'rqib ketgan go'dak uning qo'lidan qutulishga urinib ko'rdi, ammo Torn uning boshini mahkam bosganicha, sochini olishda davom etardi. Endi Demen uning qo'lida tipirchilar, bolaning chinqirig'i kuchayib borardi. Ammo Torn uni mahkam tutib turardi. Bolaning boshida soch deyarli qolmadi. Bolani qo'ldan chiqarib yubormaslikka urinayotgan Tornning nafasi bo'g'ildi. Torn ustarani Demenning qulog'i orqasida yurgizdi. Mana u. Tug'ma xol. Shishga o'xshaydi. Ustara uni kesib yubordi, ammo xol tobora aniqroq ko'zga tashlandi. Otilar! Uchlari markazda birlashgan

uchta olti raqami ko'rinib turardi.

Torn o'zini orqaga tashladi. Bola otasiga dahshat bilan qaragancha chinqirib yiyolardi. U sochsiz boshini siladi. Kaftidagi qonni ko'rgan Demen dod solib yiyolay boshladi. U otasini quchoqlaganicha ho'ngrardi. Torn uning ko'zlaridagi qo'rquvni sezdi. Uning yordam so'rab cho'zilgan qo'lchalarini ko'rib u ham yiyolab yubordi.

- Demen!

Shu payt eshik zarb bilan ochildi va xonaga Beylok xonim kirib keldi. Uning bo'yalgan lablari g'azab bilan qimtilgandi. Torn bolani ushlamoqchi bo'ldi, ammo ayol uni itarib yubordi va Torn eshikka urildi. Demen karavotdan sakrab tushdi. Ayol Tornga tashlandi, u esa ayolning chang solayotgan qo'llarini ushlayshga urindi. Ayol uning tomog'idan bo'g'ib olganda, uning ko'zlari qinidan chiqib ketay dedi. Torn o'girilmoqchi bo'ldi, ammo Beylok uning qo'lini tishlashga ulgurd. Ularning yonginasidagi stol ustida turgan chiroq yerga quladi. Torn chiroqni qo'lga oldi va bor kuchi bilan Beylokning boshiga urdi.

Chiroqning tutqichi sinib ketdi va Beylok yiqildi. Torn uni yana bir marta urdi. Ayolning bosh suyagi sinib ketdi va chakkasidan qon oqa boshladi. Torn o'rnidan turdi va voqeani dahshat bilan kuzatib turgan bola tomonga qadam tashladi. Torn uni sudrab yo'lakka olib chiqdi. Demen eshiq tutqichiga mahkam yopishdi, ammo Torn uni kuch bilan siltadi. Bola uning yuziga chang soldi va ular zinapoyadan yiqilib tushishlariga bir bahya qoldi. Bola muvozanatini saqlash uchun elektr simiga yopishdi. Torn uning qo'llarini bo'shatishga urindi va ularni tok urib yubordi...

Hushiga kelgan Torn emaklagancha atrofga nazar tashladi. Bola nariroqda behush yotardi. U o'rnidan turib bolani ko'tarmoqchi bo'ldi. Shu payt eshikning g'iyqillab ochilgani eshitildi. Torn qiyinchilik bilan o'girildi. Uning ro'parasida Beylok xonim turardi. Uning boshidan qon oqayotgandi. U Tornning paltosiga yopishdi va ular yerga ag'anashdi. Ayol qonli qo'llarini uning tomog'iga cho'zdi. Beylok xonimning yuzi qon va upa aralashmasidan hosil bo'lgan bo'tqa bilan chaplangandi. U oyoriqdan ingrardi.

Tornning nafasi bo'g'ildi. U Beylok xonimning telbavor ko'zlarini va uning yuziga yaqinlashayotgan yuzini ko'rdi. Torn qo'li bilan atrofini paypaslay boshladi. Uning qo'lga sanchqi tegdi. U sanchqini mahkam ushladi va zarb bilan Beylok xonimning chakkasiga sanchdi. Ayol yonboshiga ayodarildi. Torn zo'rg'a o'rnidan turdi. Beylok xonim dod solganicha boshiga sanchilgan sanchqini chiqarishga urinardi.

Torn hali ham hushiga kelmagan go'dakni ko'tardi va garaj tomon yurdi. U mashina eshigini ochgan ham ediki, qandaydir g'ingshigan tovushni eshitdi. Qop-qora sharpa unga tashlandi va uni yerga qulatdi. Torn o'zini mashina ichiga urdi. Ulkan it uning yengidan tishlaganicha uni mashinadan tushirishga urinardi. Bola uning yonidagi o'rindiqda yotardi. Torn bo'sh qo'li bilan itning tumshug'iga tushirdi. Atrofga qon sachradi va it oyoriqdan g'ingshiganicha uning qo'lini qo'yib yubordi. Torn mashina eshigini yopdi.

U talvasaga tushgancha kalitni izlar, tashqaridagi it esa borgan sari quturib borardi. U bor kuchi bilan o'zini orqa oynaga urdi. Nihoyat Torn qaltiroq qo'llari bilan kalitni topdi. Bola harakatga keldi va ingrab qo'ydi, it esa yorilib qolgan oynaga o'zini urishda davom etardi. Torn oldinga qarab dahshatga tushdi. Uning ro'parasida yana Beylok xonim turardi. U katta bolg'ani qo'lida tutgancha mashinaga yaqinlashib kelardi. Torn mashinani yurgizdi. Beylok xonim qo'lidagi bolg'ani mashinaga qarata otdi. Shu payt oyna yorig'idan itning kallasi mo'raladi. It tishlarini sharaqlatar, og'zidan so'lak oqardi. Torn bir qo'li bilan paltosi cho'ntagidan pichoqni oldi va zarb bilan itning ikki ko'zi orasiga sanchdi. Pichoq sopigacha kirib ketdi. It sherdek o'kirdi va asta-sekin sirg'alib old oyoqlari bilan mashinaga osilib qoldi. Uning ovozi garajni tutib ketdi. Torn mashinani orqaga yurgizdi. Beylok xonim dahshat bilan yuzidagi qonli bo'tqani artardi.

- Jonginam... - dedi u. - Jonginam...

Mashina o'rnidan siljidi. Ayol uning yo'lga yugurib chiqdi. Torn ayolni aylanib o'tishi mumkin edi, lekin unday qilmadi. U lablarini mahkam qimtidi va tezlikni oshirdi. Beylok xonim zarbdan uchib ketdi. Jeremi orqani ko'rsatuvchi ko'zguga qaradi. U asfaltda yotgan ayolning jasadini va o'tloqda jon talashayotgan itni ko'rdi.

Mashina katta yo'lga chiqdi. Uning yonida hamon o'ziga kelmagan bola yotardi. Torn Londonga olib boradigan shossega chiqdi. Tong otib borar, tuman tarqayotgandi. Tornning mashinasi bo'm-bo'sh shossedda yelib borardi.

Bola hushiga kela boshladi va oyoriqdan ingradi. Torn yonidagi go'dakka e'tibor bermaslik uchun butun e'tiborini yo'lga qaratdi.

- U odam bolasi emas! - dedi u tishlarini g'ijirlatib. - U odam bolasi emas!

Mashina o'qdek uchib borar, to'la o'ziga kelmagan go'dak esa ingrashda davom etardi.

Burilishda Torn rulni eplolmay qoldi va Demen o'rindiqdan ag'anab tushdi. Ular Barcha Avliyolar cherkoviga ketishardi. Cherkov ko'rina boshladi. Hushiga kelgan bola Jeremiga qo'rquv bilan tikilib turardi.

- Menga qarama... - o'tindi Torn.

- Boshim yomon tegdi... - yiyoladi go'dak.

- Menga qarama!

Bolakay ko'zini pastga tikdi. Ular cherkovga yetib kelishdi. Torn tepaga qarab osmonning birdaniga qorayib ketganligidan hayron bo'ldi. Shamol turib, yomg'ir yog'a boshladi. Torn eshikni ochdi. U Demenning yoqasidan tutdi va uni mashina ichidan tortib olmoqchi bo'ldi. Bola qichqirib Tornni tepa boshladi. Torn yana unga yopishdi va uni tashqariga sudrab olib chiqdi. Demen uning qo'lidan chiqib qocha boshladi. Torn unga yetib oldi va yerga yiqitdi. Osmonda momaqaldiroq gumburlab chaqmoq chaqdi. Demen Tornning qo'lidan qutulishga harakat qilib tipirchilay boshladi. Jeremi uni mahkam bosib oldi. Torn Demenni cherkovga olib borgunicha u Tornni tepib bordi.

Ko'chani qarama-qarshi tomonida deraza ochilib kimdir Tornga qichqirdi, ammo Jeremi hech kimga e'tibor bermasdi. Shamol Tornning yuziga urilar, uning oyoqlari chalishib ketardi. Bola tipirchilaganicha uning bo'yniga tishlarini botirdi. Torn oyoriqdan ingrab yubordi, ammo yurishdan to'xtamadi. Uzoqdan politsiya mashinasining sirenasi eshitildi. Tashqariga yugurib chiqqan bir kishi bolani qo'yib yuborishini aytib Tornga qichqirdi. Ammo Jeremi hech narsani eshitmas, u cherkovga yaqinlashib borardi. Demen Tornning yuziga chang soldi. Uning barmog'i Tornning ko'ziga kirib ketdi. Jeremi yiqilib tushdi va Demenni cherkov zinapoyasi bo'ylab sudray boshladi. Torn ostonaga yaqinlashib qolgandi.

Demen telbalaricha uning yuzini tirnar va Tornni tepardi. Jeremi bolani yiqitdi va qo'lini cho'ntagiga tiqib pichoqlarni ola boshladi. Demen yovvoyilarcha o'kirdi va uning qo'lidagi xaltani urib tushirdi. Pichoqlar sochilib ketdi. Torn ulardan birini qo'lga oldi. Politsiya mashinasi ularning oldiga kelib to'xtadi. Torn pichoqni yuqori ko'tardi.

- To'xta! - kimningdir ovozi eshitildi va yomg'ir orasidan ikki politsiyachi chiqib keldi. Ulardan biri to'pponchasini yalang'ochladi.

Torn avval ularga, keyin bolaga qaradi va g'azab bilan qichqirganicha pichoqli qo'lini pastga siltadi. Bolaning chinqirig'i va to'pponcha ovozi bir vaqtda yangradi.

This is not registered version of TotalDocConverter

Atrofga suhbat qurib, bo'riyadigan o'limni qabriga qo'yib qolishgandi. Torn zinapoyada harakatsiz yotar, uning yonida bola tipirchilardi. Keyin cherkov eshiklari ochildi va ruhoniy chiqib keldi. U bu manzaraga dahshat bilan tikildi.

13

Fojiali xabar butun Londonga yoyildi. Voqea haqidagi mish-mishlar shunchalik ko'p va bir-biriga zid ediki, muxbirlar shifokorlardan nima bo'lganini bilish uchun shahar kasalxonasini ikki kun davomida bo'shatmadilar. Ertasiga ertalab shifokorlar yig'ilishdi va ular bayonot bergunlaricha telekameralar bu yerga allaqachon o'rnatib bo'lingandi. Maxsus jarroh Grut Shuur yakunlovchi xulosani aytdi.

- Shuni bildiramanki, ertalab sakkiz yarimda uning joni uzildi. Biz uning hayotini saqlab qolishga urindik, ammo u olgan jarohat bunga imkon bermadi.

Muxbirlarning chuqur xo'rsinishlari eshitildi va shifokor ularning jim bo'lishini kutib turdi.

- Boshqa hech qanday ma'lumot berilmaydi. Motam marosimi Barcha Avliyolar cherkovida o'tkaziladi. So'ngra jasad ko'mish uchun Amerika Qo'shma Shtatlariga olib ketiladi.

... Nyu Yorkda ikkita tobut solingan mashina ortida o'nlab limuzinlar turardi. Oldinda mototsikl mingan politsiyachi borardi.

Qabristonga odam sig'may ketgandi. Xavfsizlik bo'limi soqchilari tomoshabinlarni o'tkazmas, rasmiy shaxslar esa yangigina qazilgan ikki qabr yoniga yaqinlashishardi. Musiqa sadolari yangradi va tobutlar ruhoniyning oldiga keltirildi. Ishchilardan biri tobutlarni qabrga tushiradigan mexanizmni tekshirib ko'rdi.

- Biz bugun oramizdan ikki nafar insonning bu dunyoni tark etganlaridan chuqur iztirobdamiz, - deb so'zini boshladi ruhoniy qiroat bilan. - Ular boqiy dunyoga safar qilar ekanlar, bizning qalbimizni ham o'zlari bilan olib ketmoqdalar. Kelinglar, narigi dunyoga yo'l olganlar emas, o'zimiz haqimizda qayg'uraylik. Ularning umri qisqa bo'lsa-da, mana shu qisqa vaqt ichida ular amalga oshirgan ishlar uchun minnatdor bo'laylik.

Bugun biz boyluk va farovonlikda tug'ilgan... buyuk insonning farzandiga "alvido" deymiz. Ammo uning misolida biz insonlarga faqatgina dunyoviy huzur-halovatning o'zi yetarli emasligini ko'ramiz...

Qabrston darvozasi oldiga muxbirlar to'lib ketishgandi. Nariroqda esa bir guruh kishilar bo'lib o'tgan voqeani muhokama qilishardi.

- Hammasi g'alati-ya?

- Nimasi g'alati? Ko'chada odam otib o'ldirish birinchi marta bo'layotgani yo'qku.

- Ularni ko'rib qolgan kishi kim ekan? Politsiya chaqirgan-chi?

- U mast bo'lgan ekan.

- Bilmadim, - dedi yana kimdir. - Baribir g'alati. Ular bunaqa paytda cherkovda nima qilishayotgan ekan?

- Elchining xotini o'lgan edi. Balki, duo o'qish uchun borgandir.

- Qaysi ahmoq cherkovda jinoyat sodir qiladi?

- Unaqalar ko'p. Ishonaver.

- Tushunolmadim, - suhbatga aralashdi kimdir. - Chamasi, bizdan ko'p narsalarni yashirishyapti.

- Bu birinchi marta emas.

- Oxirgisi ham emas.

Tobutlar qabrga qo'yildi va ruhoniy qo'llarini yuqoriga ko'tardi. Marosim ishtirokchilari orasida er-xotinlar ajralib turishardi.

Ularni tansoqchilar va politsiyachilar o'rab olishgandi. Bashang kiyingan erkak viqor bilan turar, uning yonidagi ayol esa to'rt yashar bolakayning qo'lidan ushlab olgandi. Bolaning bir qo'li bint bilan o'ralgan bo'lib, ko'kragiga osilib turardi.

- Jeremi va Katerinani boqiy dunyoga kuzatar ekanmiz, - dedi ruhoniy, - biz ushbu buyuk oilaning davomchisi, ularning farzandi Demenga e'tibor qaratamiz. Go'dak boshqa oilaning qaramog'iga o'tadi. U bu yangi oilasidan faqat mehr-muruvvat ko'rsin, otasining merosini olsin va insoniyatning buyuk kishisiga aylansin.

Demen tobutlarning tushirilishini kuzatib turardi. U ayolning qo'lidan mahkam tutdi.

- Xudo yorlaqasin seni, Demen Torn, - dedi ruhoniy. - Isoning muhabbatiga sazovor bo'lgin.

Beg'ubor osmonda kutilmaganda momaqaldiroq gumburladi. Yig'ilganlar asta-sekin tarqala boshladilar. Demening yangi ota-onasi hamma tarqalishini kutib turishdi, so'ng ular qabrlar yoniga kelishdi. Go'dak egilib, pichirlab duo o'qidi. Odamlar o'girilib, joylarida qotib qolishdi. Ayrimlar o'kirib yiyolab yubordi. Nihoyat bolakay o'rnidan turdi va tutingan ota-onasi bilan keta boshladi. Tansoqchilar ularni har tomondan o'rab olishdi va limuzin yoniga kuzatib qo'yishdi.

Mototsikl mingan to'rt politsiyachi bolani suratga olayotgan muxbirlarni yorib o'tib limuzinga yo'l bo'shatishardi. Demen to'xtovsiz ravishda suratga olayotgan muxbirlarga oynadan tikilganicha orqa o'rindiqda o'tirardi. Ammo muxbirlar olgan barcha suratlar yaroqsiz bo'lib chiqdi. Ularda qandaydir dog' aniq ko'rinib turardi. Doyolar ko'rinishidan tutunni eslatardi.

Bu tutun limuzin ustini qoplab olgandi.

Birinchi kitob tugadi.